



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI


# O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2024 №2(13)



**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan  
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnali yuridik va  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori  
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari  
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

**MUNDARIJA**

Tashkulov A.D. Kirish so'zi.....	2
Xalilov A.U. O'zbekistonda sud ekspertrizasini rivojlantirishda amalga oshirilgan islohotlar va bu borada xalqaro hamkorlikning roli.....	4
Saitova N.S. Mahsulotlarda genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO)ni huquqiy tartibga solish bo'yicha O'zbekiston va chet davlatlar amaliyoti.....	9
Imomnazarov A.X. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	22
Eshnazarov M.X. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspert xulosasining tarkibiy tuzilishi tahlili.....	34
Ильясова Н.К. Предмет, объекты и задачи почерковедческой экспертизы.....	43
Xasanova D.Y., Kamalov Sh.Sh. O'pkalar pnevmokoniozi: sud-tibbiy ekspert gistolog amaliyotidagi holat.....	47
Samanova F.Z., Karimova D.T. Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar kriminalistik ekspertrizasining zamonaviy imkoniyatlari.....	51
Ravshanov F.R. Xalqaro tartibotning bузilishi – global konfliktlar asosi sifatida.....	57
Isabayev M., O'zbekiston davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishda mahalliy vakillik instituti vakolat va funksiyalarining optimallashuvi.....	63
Hasanov Sh., Siyosiy ziddiyatlarning strukturaviy-funksional tahlili.....	71
Ro'ziyeva G.S. Hozirgi davrda madaniyatga oid davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari, tamoyillari, tuzilishi va uni boshqarishni takomillashtirish.....	76
O'lmasxo'jayev Z.A. Mafkuralarning davlat va jamiyat xavfsizligiga ta'siri.....	82
Эшмуродов А. Роль духовно-нравственного воспитания в обеспечении моральной безопасности общества.....	89
Bobokulov S.O. Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish oqibatlari va bu sohada davlat siyosati.....	95
Nasrullaev N. TUIT bright future week – yoshlar uchun ulkan imkoniyat sifatida.....	100
Qolqanov N.T. Yangi O'zbekistonda – yangicha saylovlar: funksiyalari va asosiy tamoyillari.....	103
Saidxodjaev S.X. “Xalqaro hamkorlikning sud ekspertrizasini takomillashtirish va rivojlantirishdagi o'rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va unda erishilgan natijalar.....	111

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertriza markazi**

**Bosh muharrir:**

Akram XALILOV

**Bosh muharrir o'rbinbosari:**

Uchkun UZAKOV

**Mas'ul kotib:**  
Nuriddin QOLQANOV

**Tahrir hay'ati:**

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Tolibjon ORZIYEV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

**Mas'ul muharrir:**

Husan NISHONOV

**Dizayner:**

Faxriddin RAHIMOV

**Sahifalovchi:**

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertrizasi” huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda  
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:**

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani  
Farg'on'a yo'li ko'chasi.

Telefonlar:

(71) 209-11-55 (153 ichki), (93) 171-37-74

web-site: [www.sudex.uz](http://www.sudex.uz)

e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

[facebook.com/sudex.uz](https://facebook.com/sudex.uz)

[telegram.me/sudex.uz](https://telegram.me/sudex.uz)

Jurnal 18.07.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Offset usulida bosildi.

Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

## KIRISH SO'ZI

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Xalqaro hamkorlikning sud ekspertizasini takomillashtirish va rivojlantirishdagi o'rni" nomli xalqaro konferensiya

**TASHKULOV**  
**Akbar Djurabayevich,**  
*O'zbekiston Respublikasi*  
*Adliya vaziri*



Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar!

Muhtaram xonimlar va janoblar!

Sizlar bilan "Xalqaro hamkorlikning sud ekspertizasini takomillashtirish va rivojlantirishdagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada uchrashib turganimizdan xursandmiz!

Qayd etish lozimki, onlayn va oflays formatda tashkil etilayotgan konferensiyamizda 8 ta mamlakatdan mehmonlar va 400 nafardan ortiq ekspertlar, mutaxassislar hamda sud-tergov organlari vakillari bir davraga jamlangan.

Ta'kidlash joizki, qachonki sud-tergov jarayonida ish yuzasidan maxsus bilimga ega mutaxassisning fikri talab qilinganda sud ekspertiga murojaat qilinadi.

Ular bergan xulosa tergov va sud organlariga ish yuzasidan dalillarga baho berishda hal qiluvchi o'ringa ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, inson taqdiri, jamiyatning odil sudlovga ishonchi kabi muhim masalalarga borib taqaladi. Shunday ekan, sud ekspertlari adolatning eng yaqin yordamchilari desak to'g'ri bo'ladi.

Barcha davlatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatli himoya qilinishida, jinoyatchilikning oldini olish va uni fosh etishda sud ekspertiza tadqiqotlari natijalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bilan birga, sud-ekspertlik faoliyatini

yanada takomillashtirish yuzasidan qilinadigan ishlarimiz va vazifalarimiz, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud.

Har bir sohada kuzatilgani kabi kriminalistika, sud ekspertiza sohasi ham dinamik rivojlanib bormoqda. Biroq jinoyat olami ham tinch turgani yo'q, chunki insoniyat tarixidan ma'lumki, yangiliklar va texnologiyalardan nafaqat ezgulik, balki yozuvlik yo'lida ham foydalaniб kelinadi.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda soha oldida yangi chaqiriqlar paydo bo'lmoqda. Turli yangi gajetlar, sun'iy intellekt texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga ildam kirib kelar ekan, bu nafaqat insonlar hayotining yaxshilanishi va taraqqiyotga xizmat qiladi, balki texnologiyalar vositasida sodir etiladigan yangidan-yangi jinoyat turlari paydo bo'lishiga ham olib kelishi mumkin.

Ushbu chaqiriqlarga munosib javob berish uchun butun dunyo sud ekspertlarining o'zaro hamjihatligi, tajriba almashuvi va hamkorligi katta ahamiyatga ega.

Jumladan, bugungi kunda soha oldida quyidagi masalalar ustuvor bo'lib qolmoqda:

Birinchidan, raqamli qurilmardan foydalanimishning o'sishi jinoyatchilarining jinoyatlarni yangi vositalar orqali sodir etishiga olib kelmoqda. Odatda bunday jinoyatlar sodir etilganidan so'ng jinoyatchilar o'zlaridan raqamli izlar qoldiradilar. Raqamli dalillarni olish va ularni tahlil qilish maxsus bilim va uskunalarini, shuningdek, so'nggi texnologik yutuqlardan xabardor bo'lishni talab etadi.

Vaholanki, kiberjinoyatchilik zamon va makon tanlamaydi, hech bir davlat fuqarosi undan to'liq himoyalanganmagan.

Mazkur masalaga ijobiy yechim topish maqsadida quyidagilarni taklif etaman:

- raqamli dalillar bilan ishlash va kiberjinoyatlarni aniqlashga doir hamkorlikni yanada kengaytirish;
- ushbu sohada faoliyat yurituvchi ekspert va mutaxassislarining soha rivojlangan mamlakatlarda tizimli malaka oshirishini ta'minlash;
- bu sohada yaratilayotgan yangi texnologiya va uslubiyotlar bilan mamlakatlarimiz ekspertiza muassasalarini doimiy ravishda ta'minlab borish.

Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilayotgan DΝK tahlilidagi yutuqlar sud ekspertiza sohasida katta yangilik bo'ldi. Biroq DΝK ma'lumotlar bazalaridan foydalishinda genetik maxfiylik bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqarmoqda.

Bu borada ham soha mutaxassislari tomonidan hamkorlikni yanada kengaytirish talab etiladi.

Bugun sud ekspertlari qo'lidagi har bir dalil adolatni yuzaga chiqaruvchi muhim vosita bo'lsa, ertaga bu ma'lumotlar yig'ilib jamiyat va butun insoniyat taqdirini o'zgartirib yuboruvchi ma'lumotlar bazasiga aylanadi.

Shunday ekan, sohada kadrlarning mas'uliyatini va shaxsiy daxldorlik hissini oshirish muhim sanaladi.

Uchinchidan, sohani yanada rivojlantirish maqsadida sud ekspertlarini sohadagi yangiliklardan xabardor qiluvchi ma'lumotlar bazalarini yanada rivojlantirish.

Bu vazifa o'z-o'zidan keng ko'lamli hamkorlikni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida sud ekspertlarining bilim va ko'nikmalarini oshirishga, tadqiqotlarni o'tkazishda zamona viy usullarni qo'llash orqali ekspertiza xulosalari aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, sud ekspertiza sohasi xorijiy davlatlarda turli darajada rivojlanmoqda. Shunga ko'ra, davlatlarning bu sohada o'zaro tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish, amaliyot va qonunchilik yuzasidan fikr almashish maqsadida xalqaro konferensiylar, davra suhbatlarini o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sud ekspertiza tizimi tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Mazkur islohotlarni amalga oshirishda xalqaro hamkorlikning alohida o'rni borligini aytib o'tmoqchiman.

Bugungi xalqaro konferensiymizning asosiy maqsadi ham sud-ekspertiza sohasining zamona viy holati va muammolarini tahlil qilish, xorijiy sud ekspertiza muassasalarida mavjud ilg'or tajribalarni mamlakatlarimizda tatbiq etish hamda uni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhokama maydonini yaratish hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, bugungi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyanı ochiq deb e'lon qilaman va kelgusidagi ishlariiga muvaffaqiyatlar tilayman.

O'ylaymanki, konferensiya barchamizga sud ekspertiza sohasini yanada rivojlantirish uchun yangi g'oyalarni kashf qilishga hamda sohoni yanada rivojlantirishga keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Konferensiya yanada foydali hamda qiziqarli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida barcha ishtirokchilardan faol qatnashishlarini so'rab qolaman.

Barchangizga kelgusi faoliyattingizda omad va ulkan zafarlar yor bo'lsin!

# O'ZBEKISTONDA SUD EKSPERTIZANI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA BU BORADA XALQARO HAMKORLIKNING ROLI

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Xalqaro hamkorlikning sud ekspertizani takomillashtirish va rivojlanirishdagi o'rni" nomli xalqaro konferensiya*

**XALILOV**  
**Akram Utamurodovich,**  
**X.Sulaymonova nomidagi**  
**Respublika sud ekspertiza**  
**markazi direktori**

"THE ROAD OF INTERNATIONAL  
IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT  
IN THE FIELD OF INTERNATIONAL  
COLLABORATION IN THE JURISDICTION  
AND IN THE FIELD OF CRIME PREVENTION  
AND CONTROL"



Assalomu alaykum, hurmatli anjuman qatnashchilari!

Hurmatli xonimlar va janoblar!

"Xalqaro hamkorlikning sud ekspertizani takomillashtirish va rivojlanirishdagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga xush kelibsiz!

Avvalambor, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi jamoasi va shaxsan o'z nomimdan xorijiy mehmonlarimiz, Bolgariya, Turkiya, Hindiston, Malayziya, Ozarboyjon hamda Qozog'iston davlatlaridan tashrif buyurgan hamkasblarimizga samimiyy minnatdorligimni bildiraman.

Fursatdan foydalanib, mamlakatimizdagi sud-huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat sud ekspertiza muassasalari, oliy ta'lim va ilmiy mussasalari rahbarlari hamda vakillariga o'z vaqtlarini ayamay tadbirimizda faol ishtiroy etayotganliklari uchun tashakkur aytaman.

Mazkur tadbirni yuqori savyada tashkillashtirishda hamkorlik qilayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatga qarshi kurashish bo'yicha boshqarmasining (UNODC) Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasiga, hurmatli Ashita Mitall xonimga va uning jamoasiga, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarining

Davlat departamenti Xalqaro narkotiklar va huquqni muhofaza qilish ishlari bo'yicha byurosi (INL) rahbari Neyt Rettenmaerga alohida minnatdorchilik bildiraman.

**Hurmatli tadbir qatnashchilari,** ma'lumki yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 28-moddasida agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlanib qo'yildi. Bu esa sud ekspertiza tashkilotlarining jinoyatchilikning oldini olish va uni fosh etishdagi mas'uliyati va rolini yanada oshiradi.

Hozirgi globallashuv jarayonida jinoyatchilik bir lokal chegara doirasidan o'tib, dunyo bo'ylab tez fursatlar bilan tarqalmoqda. Shu bilan birga, jinoyatchilar tomonidan jinoyatni sodir etishda yangi vositalar va turli moliyaviy sxemalardan dunyoning bir chekkasida foydalanilsa, qisqa muddatda dunyoning boshqa chekkasida qo'llanilib, jinoyatlar sodir etilmoqda.

Shunga ko'ra, sud ekspertiza tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar doimiy ilmiy izlanishda bo'lishi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolarning talab va ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida yangi ekspertiza tadqiqotlari, zamonaviy texnologiyalarni amaliyatga tatabiq etish hamda sud ekspertlari malakasini yanada oshirish choralarini ko'rishi, o'z faoliyatlarini zamon talablariga mos xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib borishi muhim hisoblanadi.

Bu borada esa, sohaviy xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali sud ekspertiza faoliyatida turgan yangi muammolarni tezkor hal etib borish bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi.

Bugungi xalqaro konferensiyadan asosiy maqsad ham Sud ekspertizasi sohasida xalqaro hamkorlikning o'mini yanada kengaytirish, istiqbolli loyihamar haqida fikr almashish, rivojlangan xorijiy sud-ekspertiza tashkilotlarining ilg'or tajribasini o'rganish, umumiy muammolarni hal etish va bu borada tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Hurmatli hamkasblar, fursatdan foydalanib, ruxsatingiz bilan sud ekspertiza sohasida keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar va Markazimiz faoliyatidagi yangiliklar haqida qisqacha**

**to'xtalib o'tsam.**

So'nggi yillarda barcha sohalar qatori, sud-huquq tizimining muhim bo'g'inlaridan sanalgan sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ham islohotlar izchillik bilan amalgalashirilib, muhtaram Prezidentimizning ushbu sohani takomillashtirishga doir qabul qilgan tegishli farmon va qarorlari asosida sohadagi normativ hujjatlar yanada takomillashtirilib, sud eksperti kadrlarining kasbiy malakasini oshirish, sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash, sud ekspertizasi jarayonida advokatlar hamda nodavlat sud ekspertlari ishtirokini ta'minlash orqali, odil sudlovni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda ilk bor nodavlat tashkilotlar tomonidan sud-ekspertlik faoliyatini amalgalashirishning huquqiy asoslari yaratilib, hozirda bir qator nodavlat sud ekspertlari faoliyatini olib bormoqda.

Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan PF-6256-son Farmon bilan O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiysi va uning ijrosini ta'minlash maqsadida 2021–2023-yillarda amalgalashiriladigan ishlar yuzasidan "Yo'lxaritas" tasdiqlandi.

Bunda, avvalambor sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilganining isboti sifatida "Sud-ekspertlik faoliyati to'g'risida" Qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

2022-yilda qonunchiligidan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra mamlakatimizda **ilk bor iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritishda** advokatga davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida shartnoma asosida advokat so'rovi bilan ekspertiza o'tkazish tashabbusi huquqi berildi. Bu o'z navbatida sudda tortishuv instituti to'laqonli ta'minlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Markazimizda** sud ekspertlarining malakasi va huquqiy bilimlarini zamon talablari darajasida oshirish maqsadida o'quv markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'quv markazida davlat sud ekspertlarining huquqiy bilimlari oshirish hamda yangi tashkil etilayotgan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari ekspertlarini ham qayta tayyorlash

hamda malakasini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, o‘quv markazida “Elektron ta’lim platformasi” axborot tizimi joriy qilinib, sud ekspertlarini ishdan ajralmagan holda masofaviy o‘qitish ishlari ham tashkil etilgan.

Shuningdek, sud-ekspertiza sohasida **dual ta’lim** prinsipi bo‘yicha sud ekspert kadrlarini qayta tayyorlash bo‘yicha yangi tartib joriy etildi.

Farmon asosida respublikamiz tarixida ilk marotaba Markazimizda **Sud-ekspertlik ilmiytadqiqot instituti** faoliyati tashkil etilib, Markaz huzurida yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini beruvchi Ilmiy kengash tuzildi. Ilmiy kengashda “Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi” ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiyalar himoyasini o‘tkazishga ruxsat berildi.

Shu bilan birga, Hukumatimizning tegishli qarori bilan davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariغا muvofiq o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan **51 turdagি sud ekspertizasi** tadqiqotlari ro‘yxati tasdiqlandi. Mazkur yangilik **jismoniy va yuridik shaxslarga** o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda sud ekspertiza imkoniyatlaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, sud ekspertlarining faoliyatini reyting tizimida baholab borish tartibi belgilandi, shuningdek, Adliya vazirligi huzuridagi Sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Markazimizda olib borilgan ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar natijasida keyingi 4 yilda **bir qator yangi, ya’ni Sud-lingvistik, Sud-kompyuter-texnik, Sud-avtomobil yo’llari, Sud-elektrotexnika, Sud-psixologik, “Bank va tadbirkorlik sohasida boy berilgan foydani aniqlash tadqiqoti”, “Gaz va elektr texnika obyektlarining portlash texnik ekspertizasi”, Oziq-ovqat mahsulotlari sud ekspertizasi, Sud-soliq, Oziq-ovqat mahsulotlarini baholash ekspertizasi, “Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasi”, “Sud psixologik-fiziologik ekspertizasi”, “Radiotexnika ekspertizasi”, “Elektron raqamli imzolarning haqiqiyligini aniqlash” hamda “Go‘sht va**

**sut mahsulotlarining halolligini aniqlash”** va boshqa yangi ekspertiza turlari yaratilib, amaliyotga tatbiq etilib, Markazda amalga oshiriladigan sud ekspertiza turlari **44 tadan 57 taga**, mutaxassislik yo‘nalishlari **91 taga** yetkazildi.

Oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot hamda xorijiy va mamlakatimizdagi boshqa sud ekspertiza muassasalarini bilan hamkorlikda ayni vaqtida **“Intellektual mulk sohasida sud iqtisodiy ekspertizasi”, “Dendrologiya ekspertizasi”, “Videotexnika ekspertizasi”, “Fototexnika ekspertizasi”, “Elektromobilarning hamda elektr samokatlarning holatini aniqlash va ularning tormozlanish xususiyatlarini o‘rganish”, “Bino va inshootlarning texnik holatini aniqlash”** kabi yangi tadqiqotlarni yaratish va amaliyotga joriy qilish bo‘yicha ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, **Sud kompyuter texnikaviy ekspertizasi, Sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo‘limlari yangidan** tashkil etildi.

Shu o‘rinda, yangi ekspertiza turlarini yaratish borasida xorijiy hamkasblarimizning qimmatli fikrlari biz uchun muhim hisoblanadi.

Markazimiz tashabbusi bilan ekspertiza yo‘nalishiga ixtisoslashgan **“O‘zbekiston sud ekspertizasi” nomli ilmiy jurnal bosma va elektron** shaklda nashr etib kelinmoqda.

Sud-ekspertiza faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan **“Sud ekspertizalari hisobi tizimi”** joriy etilib, aholiga sud-ekspertlik sohasiga doir ma’lumotlarni **tezkor** yetkazish maqsadida **“sudexpert.uz”** axborot portalni, ekspertiza uchun taqdim etilgan ashyoviy dalillarni identifikatsiyalash dasturi faoliyatga tatbiq etildi.

Sud ekspertlari va ekspertiza to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish, ekspertiza harakatlarini amalga oshirishga aloqador tashkilotlar bilan axborot hamkorligining barcha turlarini ta’minlashga mo‘ljallangan **“E-ekspertiza”** elektron axborot tizimi ishga tushirildi.

Mazkur elektron tizim ishga tushishi natijasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar va sud ekspertiza muassasalarining o‘zaro hujjat aylanishida va uni xavfsizligini ta’minlashda ijobjiy natijalarga erishilmoqda.

**Markaz laboratoriyalarini** xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida, Markaz laboratoriyalari ISO/IEC 17025 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiya qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, sohada ilk marotaba “**Sud-ekspertiza” standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitasiga tashkil etilib**, MTK-545 “**Sud ekspertiza” Standartlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashiga hamda ISO/TC 272 “Forensic science” xalqaro texnik qo'mitasiga a'zolikka qabul qilindi va uning 19-kuzatuvchisiga aylandi.**

**Hurmatli konferensiya ishtirokchilari**, Markaz tomonidan sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilib, bir qator xorijiy sud ekspertiza muassasalarini hamda xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, Markazimiz **Sud-ekspertiza muassasalarining Osiyo tarmog'i (Asian Forensic Sciences Network – AFSN)**ning 15-yalpi yig'ilishida ishtirok etib, unda AFSNning **65-a'zosi, O'zbekiston Respublikasi esa 18-davlat** etib tasdiqlanganligi e'lon qilindi.

Sud ekspertizasi **Xalqaro Assotsiyatisining (International Association of Forensic Sciences – IAFS)** 23-yalpi anjumanida hamda Avstraliya va Yangi Zelandiya sud ekspertiza jamiyatining 26-simpoziumida Markazimiz **Sud ekspertizasi Xalqaro Assotsiyatisining to'laqonli a'zoligiga** qabul qilindi.

Markazning ushbu xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi hamda ushbu tashkilotlar ishida ishtirok etishi qator imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari, sohani rivojlantirishda o'r ganadigan jihatlarimiz ham anchagini.

Jumladan, AFSN va IAFAga a'zo davlatlar bilan sud ekspertiza sohasida yangi innovation ma'lumotlarni o'zaro almashish, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha fikr almashish, Markazda o'tkazilayotgan sud ekspertiza tadqiqotlari, uslublari va standartlarini yangi zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish, AFSNning “Forensic Asia” jurnalida xodimlarning tadqiqot natijalari, maqolalari va tezislарini chop etish, AFSN va IAFS shafeligida o'tkaziladigan sohaviy tadbirlarda ishtirok etish hamda a'zo davlatlarning sud ekspertiza muassa-

salarida malaka oshirish, stajirovka o'quv kurslarini tashkil etish, AFSNning 9 ta texnik ishchi guruhlari va Sifat kafolati va standartlar qo'mitasi ishlarida ishtirok etib, sud ekspertiza sohasini yanada rivojlantirish zarur.

**Hurmatli anjuman ishtirokchilari**, shuni ham ta'kidlash joizki, hududlarimizda ham sohani rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Samarqand viloyatida **Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi** va **Materiallar, ashylar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi** laboratoriyalari, Xorazm va Farg'ona viloyatlari da esa **Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyalari** faoliyati yo'lga qo'yildi.

DNK tahlillaridan yanada keng va samarali foydalanish uchun ayrim toifadagi shaxslarning, xususan potensial jihatdan jinoylatlarni sodir etishga moyilligi bo'lgan shaxslar DNK profillarining ma'lumotlar bazalarini yaratish maqsadida Markazda “DNA expert” avtomatlashtirilgan dasturiy kompleksidan iborat bo'lgan DNA ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan. Hozir laboratoriya ma'lumotlar bazasiga bir necha turkumlar bo'yicha jami **40 mingdan** oshiq genotiplar kiritilgan.

**So'nggi besh yil ichida** ushbu baza yordamida nafaqat bizning mamlakatimizda, balki yaqin xorij davlatlarida shaxsga qarshi og'ir va o'ta og'ir jinoylatlarni sodir etgan o'ta xavfli jinoylatchilarning hamda shaxsi noma'lum murdalarning shaxsi aniqlandi.

Bunda, voqeа joyida qoldirilgan biologik izdan uning egasining fenotipik belgilari – sochi, ko'zi, tanasining rangi, uning irqi, taxminiy bo'y-bastini aniqlash imkonini beruvchi **NJS** texnologiyalarini Markazda joriy etish masalasi hal etilib, kuni kecha bu yo'nalishdagi tegishli texnologiyalar Markazga olib kelindi va hozir ular aprobatasiyadan o'tkazilmoqda.

**Bundan tashqari, Markazda Sport genetikasi va irsiy kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni yo'lga qo'yish yuzasidan tegishli ishlar olib borilmoqda.**

Ushbu tadqiqot yordamida bolaning genetik darajada qanday jismoniy faoliyatga moyilligini aniqlash mumkin.

**Hurmatli tadbir qatnashchilari**, so'nggi paytlarda dunyoning ko'pgina mamlakatlari oziq-ovqat do'konlarida genetik modifikatsiyalangan organizm (GMO)lar mavjud mahsulotlarning

### **turi va soni ortmoqda.**

Biroq GMO mahsulotlarini iste'mol qilishning ziyon va xavflari haqida ayrim ma'lumotlar mavjud. GMO mahsulotlarini nazoratdan o'tkazmasdan foydalanish nafaqat aholi salomatligiga, balki kelajak avlod salomatligiga va millat genofondiga jiddiy xavf solishi mumkin.

Shunga ko'ra, Markazimizda Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) ekspertizasini joriy etish, buning uchun lozim bo'lgan uslubiyotlarni ishlab chiqish, xodimlarning bu borada malakasini oshirish hamda zarur bo'lgan texnologiyalar bilan ta'minlash, shuningdek, Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) munosabatini tegishli normativ huquqiy hujjat bilan tartibga solishni rejalshtirganimiz.

**Shunga ko'ra xalqaro hamkorlik va bu orqali sohani yanada rivojlantirish bo'yicha bir qancha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar mavjudligini ta'kidlashim zarur.**

#### **Xususan:**

- amaldagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish orqali xalqaro hamkorlik masalalarini to'liq qamrab olish;
- faoliyat ko'rsatayotgan davlat sud ekspertiza muassasalarining 5–10 yilga mo'ljallangan xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yagona Strategiyasini ishlab chiqish;
- davlat sud ekspertiza muassasalarining xorijiy ekspertiza muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish hamda sud-ekspertiza sohasidagi ilmiy yutuqlar alma-shinuvi barqarorlashtirish;
- ekspertiza uslubiyotlarini tayyorlashning yagona standartlarini ishlab chiqish;
- DNK ajratish, polimeraza zanjirli reaksiya jarayonlarini avtomatlashtiruvchi texnik vositalar, barcha laboratoriya uskunalarini bir-biri bilan bog'lovchi va inson faktorini kamaytiruvchi "LIMS" dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

**Hurmatli hamkasblar,** mazkur masalalarni

hal qilish bilan bir qatorda sohani rivojlantirish uchun istiqboldagi rejalarimiz bor, ruxsatlarining bilan ushbu masalaga qisqacha to'xtalsam.

**Birinchidan,** sud-ekspertlik faoliyatining istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblangan sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarni joriy etish.

**Ikkinchidan,** 3D-texnologiyalardan, jumladan 3D-modellashtirish, 3D-skanerlash va 3D-chop etishdan keng foydalanish.

**Uchinchidan,** ekspertiza tadqiqotlarida sun'iy yo'ldoshlar orqali olingan ma'lumotlardan foydalanish.

**To'rtinchidan,** kriminalistik va sud-tibbiyot ekspertiza tadqiqotlari o'tkazishning doimiy amaliyotiga kriminalistik tomografiya yoki bosh-qacha qilib aytganda "virtualnoy autopsiya" jarayonini joriy etish.

**Beshinchidan,** uchuvchisiz uchuvchi havo vositalaridan (dronlardan) tadqiqotlarni o'tkazishda foydalanish.

Yuqorida masalalar yuzasidan hurmatli konferensiya qatnashchilaridan o'z fikr-mulohazalari va qimmatli maslahatlarini kutib qolamiz. Qayd etilgan vazifalarni Siz aziz hamkasblarimiz bilan hamnafas bo'lib, hamkorlikda amalga oshirishga ishonaman.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda sud ekspertizasi doimiy va jadal rivojlanayotgan sohalardan sanalib, u moslashuvchan bo'lishi va hayotimizdagi har qanday yangilik hamda o'zgarishlarga darhol javob berishi kerak.

### **Hurmatli tadbir ishtiroychilar!**

O'ylaymizki, xalqaro tajribalar asosida o'zaro fikr almashish asnosida o'tkazilayotgan bugungi anjuman natijalari kelgusida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini amaliyotga samarali tatbiq qilish orqali sud ekspertiza sohasining yanada rivojlanishiga hamda bu borada hamkorligimizni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

## ANNOTATSIYA

# MAHSULOTLARDA GENETIK JIHATDAN O'ZGARTIRILGAN ORGANIZMLAR (GMO)NI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH BO'YICHA O'ZBEKISTON VA CHET DAVLATLAR AMALIYOTI

*SAITOVA*

*Niygora Sobirjonovna,*

*X.Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazi Sud ekspertlik  
ilmiy-tadqiqot institutining Sud-tibbiy,  
psixiatriya, psixologik va biologik  
ekspertizalar ilmiy-tadqiqot bo'limi  
boshlig'i, 1-darajali yurist*

Ma'lumki, bugungi kunda zamonaviy jamiyat oldida turgan qiyin va dolzarb masalalardan biri bu genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) sohasida ilg'or texnologiyalardan foydalanish va bunday GMOlarni o'z ichiga olgan mahsulotlardan foydalanishdir. Dunyoning huquqiy xaritasiga qarab, GMO aylanmasining turli xil huquqiy tartibga solinishini, xususan, genomik tadqiqotlar va ularni amaliy qo'llash, nazoratsiz tarqalish xavfini baholash va ulardan foydalanish bilan bog'liq tartibga solish va nazorat qilish sohasida, organizmlarni genetik tahlil qilish texnologiyalari, shu jumladan genom tadqiqotida, ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish bosqichida ko'rish mumkin. Ushbu maqolada ushbu farqlarni aniq ko'rish, GMO sohasidagi huquqiy rivojlanishning global tendensiyalarini va shu kabi mahsulotlardan foydalanishni, shu jumladan GMO aylanmasi sohasidagi nazorat masalalarini aniqlashga imkon beradigan xorijiy mamlakatlar qonunchiligining qiyoziy huquqiy tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** GMO, genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar, GM-mahsulot, genetik texnologiyalar, genetika yutuqlari, huquq va GMO, GMO borasidagi qonunchilik.

## АННОТАЦИЯ

В настоящее время одним из сложных и актуальных вопросов, стоящих перед современным обществом, является использование передовых технологий в сфере генетически модифицированных организмов (ГМО) и применения продукции с их содержанием таких. Взглянув на правовую карту мира, можно увидеть разноликое правовое регулирование оборота ГМО, в частности в области регулирования и контроля в отношении проведения геномных исследований и их практического применения, оценки рисков неконтролируемого распространения и использования технологий генетического редактирования организмов, в том числе на стадии планирования научных исследований. В статье приводится сравнительно-правовой анализ законодательства ряда стран (являющихся доминантными в своих правовых системах), что позволяет

наглядно увидеть эти различия, выявить общемировые тенденции правового развития в сфере ГМО и применения продукции с содержанием таковых, включая вопросы осуществления контроля в области оборота ГМО.

**Ключевые слова:** генетически-модифицированные организмы, ГМО, ГМ-продукция, генетические технологии, достижения генетики, право и ГМО, законодательство о ГМО.

### ANNOTATION

It is known that, today, one of the difficult and urgent issues facing modern society is the use of advanced technologies in the field of genetically modified organisms (GMO) and the use of products containing such. Looking at the legal map of the world, one can see the diverse legal regulation of the turnover of GMOs, in particular, in the field of regulation and control in relation to genomic research and their practical application, risk assessment of uncontrolled spread and use of technologies for genetic editing of organisms, including at the planning stage of scientific research. This article provides a comparative legal analysis of the legislation of foreign countries (which are dominant in their legal systems) that allows you to clearly see these differences, identify global trends in legal development in the field of GMOs and the use of products containing such, including issues of control in the field of GMO turnover.

**Key words:** GMOs, genetically modified organisms, GM products, genetic technologies, advances in genetics, law and GMOs, legislation on GMOs.

Ma'lumki, bugungi kunda zamonaviy jamiyat oldida turgan qiyin va dolzarb masalalardan biri bu genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) sohasida ilg'or texnologiyalardan foydalanish va bunday GMOlarni o'z ichiga olgan mahsulotlardan foydalanishdir. Shunday bir holatlarda inson salomatligiga bu turdag'i o'zgartirilgan mahsulotlarning ta'sirini tushunib yetish hamda tegishli choralar ni ko'rish ham juda muhimdir.

GMO biotexnologiyasi va GM mahsulotlariga<sup>1</sup> kelsak, turli mamlakatlar qonunchiligi bu sohani turli xilda tartibga soladi va bu hatto qonunchilik ta'riflaridan ham ayon bo'ladi. Masalan, GMO nima, qaysi obyektlarga nisbatan foydalilanadi, ya'ni mikroorganizmlar, o'simliklar, hayvonlar yoki odamlarmi? Bundan tashqari, GMO aylanmasi bilan bog'liq ko'plab masalalar alohida qonunlarda, masalan, GMO aylanmasi yoki bioavafsizlik bo'yicha va ayrim mahsulotlarga, masalan, urug'larga, baliqchilikka oid va shu kabi qonunlarda o'z aksini topgan. Xorijiy mamlakatlarning GMO sohasidagi qonunchilik tajribasini o'rganish orqali qiyosiy huquqiy tadqiqot o'tkazish bizning mamlakat mahsulotlarida genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlarni huquqiy tartibga solish uchun eng maqbul yo'l tanlab olishga zamin yaratadi.

Bu boradagi birinchi qadamlar Prezidentimizning 2019-yil, 14-oktabr kuni O'zbekistonni biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaga (MONREAL, 2000-yil 29-yanvar) bioavafsizlik bo'yicha Kartaxena protokoliga qo'shish to'g'risidagi qonunni imzolashi bilan bog'liq.

Shu asosida 2020-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 275-sod "Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiyaning bioavafsizlik bo'yicha kartaxena protokoli (Monreal, 2000-yil 29-yanvar) qoidalari amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori tasdilangan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi,

<sup>1</sup> GM mahsulotlar – genetik jihatdan o'zgartirilgan mahsulotlar ta'sirida yaratilgan mahsulotlar.

Fanlar akademiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensianing bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokolida (Montreal, 2000-yil 29-yanvar, keyingi o'rnlarda – Kartaxena protokoli) belgilangan Milliy muvofiqlashtiruvchi markaz vazifalarini **O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Genomika va bioinformatika markaziga** (keyingi o'rnlarda – Markaz) yuklash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 2020-yildan boshlab belgilangan tartibda Kartaxena protokoli qoidalarining bajarilishi yuzasidan Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiya kotibiyatiga hisobot berib borilishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Shunga asosan Genomika va bioinformatika markazida Milliy muvofiqlashtirish markazi bo'limi tashkil etilgan bo'lib, bo'limning vazifasi O'zbekistonda genetik modifikatsiyalangan organizmlardan (GMO) foydalanish va import-eksport qilish bo'yicha monitoring asoslarini va Qonunchilik bazasini ishlab chiqish, shuningdek, GMO yaratish va ulardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni baholashdan iborat.

Shu bilan birga 25.11.2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturining 21-bandida Genetik modifikatsiyalangan organizmlar va ularning mahsulotlari xavfsizligini ilmiy ekspertizadan o'tkazish tartibini belgilash vazifasi yuzasidan 2021-yil 1-dekabrgacha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish Milliy muvofiqlashtirish markazi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligiga yuklatilgan edi.

Ushbu topshiriq ijrosini bajarish yuzasidan 2022-yil 26-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligiga "Genetik modifikatsiyalangan organizmlar va ularning mahsulotlari xavfsizligini ilmiy ekspertizadan o'tkazish tartibini belgilash" to'g'risidagi qaror loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazib berish yuzasidan 4-1255-2971-sodan xati kiritilgan. Ammo ushbu qaror loyihasida kamchiliklar borligi sababli shu kunga qadar tasdiqlanmagan.

Ayni damda Genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) sohasi yuzasidan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining quyidagi 3 ta hujjatlari hamda tegishli xalqaro standartlarga asosan olib borilmoqda:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining bosh davlat sanitar vrachining buyrug'i: Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi gigiyenik normativlari Texnikaviy shartlar (0366-19)-sonli SANQVAM

2. Санитарные нормы, правила и гигиенические нормативы республики узбекистан гигиенические требования к безопасности пищевой продукции СанПиН РУз № 0283-10 Ташкент-2010

3. Требования, от 18.07.2005 г. № 0185-05 "к определению безопасности пищевой продукции, содержащие генетически модифицированных источников (гми)".

4. ГОСТ ИСО 21569-2009 Продукты пищевые. Методы анализа для обнаружения генетически модифицированных организмов и производных продуктов. Методы качественного обнаружения на основе анализа нуклеиновых кислот.

5. ГОСТ ИСО 21570-2009 Продукты пищевые. Методы анализа для обнаружения генетически модифицированных организмов и производных продуктов. Количественные методы, основанные на нуклеиновой кислоте.

6. ГОСТ ИСО 21571-2009 Продукты пищевые. Методы анализа для обнаружения генетически модифицированных организмов и производных продуктов. Экстрагирование нуклеиновых кислот.

Xalqaro tajribaga asosan O'zbekistonda mayjud quyidagi hujjatlarda GMO inobatga olingan bo'lishi lozim, ammo ushbu hujjatlarda GMO organizmlar inobatga olinmagan.

1. 30.08.2001-yildagi 267-II-sodan O'zbekiston

Respublikasining qonuni “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”.

2. 2018-yil 16-yanvardagi PF-5303-ton O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”.

3. 1996-yil 26-aprel 221-I-ton O'zbekiston Respublikasining qonuni, “Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida”.

4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.02.2023 yildagi O'RQ-819-ton Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida.

Shubilan birga, 2020-yil 18-maydagi PF-5995-ton O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**” Farmonida “ayni vaqtida respublikamizda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)dan xoli mintaqalar mavjud” degan jumla ishlatilgan xolos.

Shuningdek, “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-ton “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmonida ham Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar ekspertizasiga to'xtalib ketilgan.

## XALQARO TAJRIBA

### GERMANIYA QONUNCHILIGI

Germaniyaning “Gen muhandisligi to'g'risida”gi qonuni mavjud bo'lib, unga ko'ra inson salomatligi, atrof-muhit, o'simliklar va moddiy boyliklarni muhofaza qilish jarayonlarining zararli ta'siridan saqlash davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Ushbu qonunda GMO mahsulotlarini laboratoriya, issiqxonalar kabi yopiq joylarda kultivatsiya qilish hamda GMO mahsulotlarni bozorda joylashtirish talablari yoritilgan. Shu bilan birga qonunda:

- iste'mol bozorida ham GMO o'zgarmagan mahsulotlarni joylashini ta'minlash;

- GMO sohasida ilmiy rivojlanishni ta'minlash hamda GMO mahsulotlarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash belgilangan.

Qonunning asosiy xavfsizlik darajalari: GMO mahsulotlarini yetishtirish yoki bozorga joylashtirish uchun ham litsenziya zarur hisoblanadi. Ushbu qonun qoidalari buzganlik uchun jarima yoki 5 yilgacha qamoq jazosi keltirilgan.

Shuningdek, go'sht, sut, tuxum kabi hayvonlardan tayyorlangan mahsulotlar GMOsiz mahsulot bo'lsa GМОдан xoli degan belgi qo'yilishi shart, qolgan mahsulotlarga shart emas.

### ISROIL QONUNCHILIGI

“Urug' haqida”gi qonun mavjud, ammo unda maxsus nazorat qoidalari yoritilmagan.

1956-yil 22-noyabrdagi Isroil davlatining “Urug'lar to'g'risida”gi 19-tonli Qonuni, GMO va GM mahsulotlari aylanmasi sohasidagi mamlakatning asosiy aktlaridan biri bo'lib, genetik jihatdan o'zgartirilgan organizm “genetik muhandislik bilan o'zgartirilgan va genetik muhandislik bilan ularning hayot aylanishi davomida o'simliklarga har qanday munosabatda bo'lgan organizm, shu jumladan mikroorganizm, virus va har qanday bir hujayrali yoki ko'p hujayrali organizm” deyilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Isroilda GMO yetishtirishga 1956-yildagi yuqoridagi qonunda ko'rsatilgan shartlarga rioya qilgan holda tadqiqot va ilmiy maqsadlarda ruxsat beriladi. GMO qo'llash orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar Isroilda import qilinishi, sotilishi va oziq-ovqat ishlab chiqarishda ishlatilishi mumkin.

Hozirgi vaqtida Isroil qonunchiligidagi GMO rivojlanishini bevosita tartibga soluvchi maxsus qonun hujjatlari mavjud emas. GМОlarni tadqiq qilish, ishlab chiqarish va qo'llash bo'yicha vazifalar qishloq xo'jaligi va agrar rivojlanish vazirligi, shuningdek, Isroil sog'lioni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. 2005-yilda qishloq xo'jaligi va agrar rivojlanish vazirligi tomonidan 5765-200527-tonli genetik modifikatsiyalangan o'simliklar va organizmlar bilan ishlab qoidalari ishlab chiqilgan. Ushbu qoidalari qishloq xo'jaligi va agrar rivojlanish vazirligining tegishli ruxsatisiz genetik modifikatsiya orqali o'zgartirilgan har qanday o'simlik tajribalarini taqiqlaydi. Agar tajriba laboratoriya sharoitida qat'iy amalga oshirilsa va tajriba xavfsizligi uchun mas'ul shaxs tayinlansa, ariza beruvchilar eksperiment o'tkazish uchun ruxsat olish zaruriyatidan ozod qilinadi.

## ISPANIYA QONUNCHILIGI

2003-yil 25-aprel kungi “GMOlardan foydalanish, ixtiyoriy ishlab chiqarish va sotishning huquqiy nazorati haqida”gi qonuni.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2004-yil 30-yanvardagi 178/2004-sloni Qirollik Farmonida GMOlarni qo'llash, ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha umumiy qoidalar, axborot va nazorat qoidalari, sanksiyalar, idoralararo GMO kengashi va milliy bioxavfsizlik komissiyasining vakolatlari tasdiqlangan. O'z navbatida, idoralararo GMO kengashi avtonom jamoalar va Yevropa komissiyasi bilan ma'lumot almashish bo'yicha milliy bioxavfsizlik komissiyasi bilan birgalikda o'z faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu ikkala organ ham Ispaniya atrof-muhit vazirligi doirasida ishlaydi. Bundan tashqari, ushbu Qirollik dekreti GMO Markaziy reyestrini tasdiqladi, uning maqsadi GMO turi, shuningdek, GMO yetishtirish/yaratish joyi to'g'risidagi ma'lumotlarga ommaviy kirishni ta'minlaydi.

## KANADA QONUNCHILIGI

Kanadada biotexnologik jarayonlar natijasida olingan mahsulotlarni huquqiy tartibga solish “yangi avlod mahsulotlari”ni tartibga solish doirasida amalga oshiriladi. Kanadadagi GMO o'simliklarini boshqarish va hayvonlar uchun GMO ozuqalarini ishlab chiqarish bo'yicha tartibga solishni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan asosiy organ Kanada oziq-ovqat inspeksiyasi agentligi hisoblanadi. Oziq-ovqat GMO mahsulotlarining inson salomatligi uchun xavfsizligini baholash va bunday mahsulotlarni Kanada iste'mol bozorida sotish uchun ruxsat berish masalalariga kelsak, bu masalalar Kanada hukumatining Sog'lijni saqlash departamenti vakolatiga kiradi. GMO o'z ichiga olgan mahsulotlarni markalash, agar bunday mahsulotlar inson salomatligi uchun zararsiz deb topilgan bo'lsa, ixtiyoriydir.

Kanada dunyodagi eng yirik GMO mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilardan biri, xususan, genetik modifikatsiyalangan makkajo'xori, soya va lavlagi. 1993-yilda Kanada hukumi biotexnologiyani tartibga solish sohasida Federal ramkali qarorini ishlab chiqdi, unga ko'ra yangi avlod mahsulotlarini

ishlab chiqarish an'anaviy mahsulotlarga nisbatan mayjud qayta ishslashga asoslanadi. Ushbu yondashuvning maqsadi yangi avlod mahsulotlarini ishlab chiqarishni tartibga soluvchi maxsus organni tashkil etishdan bosh tortish edi, bu esa vakolatlarning takrorlanishiga va ko'rib chiqilayotgan sohaning haddan tashqari tartibga solinishiga yo'l qo'ymaslikka imkon berdi.

Kanadada GMOlarni huquqiy tartibga solish ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganishdan ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulotning xususiyatlarini baholashga asoslangan. Kanadada GMO mahsulotlari bilan ishslashni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjat “Oziq-ovqat va dordarmonlarni tayyorlash to'g'risida”gi qonundir. Shuni ta'kidlash kerakki, GMO sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni huquqiy tartibga solish o'simliklarning bioxavfsizligi bo'yicha idora tomonidan ishlab chiqilgan talablarga asoslanadi, u oziq-ovqat inspeksiyasi agentligiga bo'ysunadi hamda atrof-muhit va inson salomatligi uchun tadqiqotlar xavfsizligini baholash maqsadida nazoratni amalga oshiradi. Muhim ekologik xavflarni o'z ichiga olgan tadqiqotlar taqiqlanadi.

GM mahsulotlarini markalashga kelsak, qoida amal qiladi: agar GM mahsuloti “tabiiy” analogidan xususiyatlari jihatidan tubdan farq qilsa, ishlab chiqaruvchi mahsulot tavsifida uni ishlab chiqarishda genetik muhandislik texnologiyalaridan foydalanilganligini ko'rsatishi shart.

Kanadada GMO mahsulotlarning nazorati Oziq-ovqat agentligi hamda Sog'lijni saqlash vazirligi zimmasidadir.

## MALAYZIYA QONUNCHILIGI

Asosiy hujjalardan biri 2007-yilda qabul qilingan 678-sloni “Bioxavfsizlik haqida”gi qonundir. Qonunda GMO mahsulotlar o'zi nimaligi, GMO mahsulotlarni ishlab chiqarish, importlarni nazorat qilish belgilangan.

GMO mahsulotlarni nazorat qiluvchi normativ hujjalar Kartaxena protokoli asosida ishlab chiqilgan.

Yana bitta normativ hujjat bu 1983-yilda qabul qilingan 281-sloni “Oziq-ovqat mahsulotlari haqida”gi qonundir.

Malayziyada hech kim milliy bioxavfsizlik kengashi rahbarining yozma ruxsatisiz zamonaevi

biotexnologiyadan olingan har qanday oziq-ovqat yoki oziq-ovqat tarkibiy qismlarini import qilish, ishlab chiqarish yoki sotish uchun reklama qilish yoki sotishi yoxud biror-bir jarayonlarni amalga oshirishi mumkin emas. Hamda zamonaviy biotexnologiya usullaridan foydalanib tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari tegishli markirovka ega bo'lishi zarur.

Malayziyaning "Bioxavfsizlik to'g'risida"gi aktining qoidalariga binoan, GMO mahsulotlarini qabul qilish uchun ruxsatnomalarini arizasi genetik modifikatsiyalar bo'yicha maslahat qo'mitasi (GMAC) olimlariga ko'rib chiqish uchun oldindan yuboriladi, ular yakuniy qaror qabul qilish uchun milliy bioxavfsizlik Kengashiga o'z tavsiyalarini berishadi. Ushbu jarayon biotexnologiya mahsulotlarini ishlatish yoki atrof-muhitga chiqarishda GMO mahsulotlarining biologik xavfsizligini aniqlash maqsadida joriy etilgan. Shunday qilib, Malayziyaning "bioxavfsizlik to'g'risida"gi 678-tonli qonuning III muddasini buzganlikda aybdor deb topilgan har qanday shaxs 250 000 ringgitgacha jarima yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jismoniy shaxsga nisbatan har ikkalasiga nisbatan jazolanadi, yuridik shaxsga 500 000 ringgit jarima belgilangan.

### **MEKSİKA QO'SHMA SHTATLARI QONUNCHILIGI**

Meksika Qo'shma Shtatlarining 2005-yil 18-martdagagi "GMO bioxavfsizligi to'g'risida"gi 24-tonli qonuni GMOLarni ishlab chiqish, ushbu jarayonni amalga oshirish, eksport qilish va import qilish bilan bog'liq tadqiqotlar qoidalarini o'z ichiga oladi va inson salomatligi, atrof-muhit farovonligi va biologik xilmassislikka zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan. GMO xavfsizligi darajasini aniqlash uchun GMO mayjudligi va turini aniqlaydigan laboratoriyalarning Milliy tarmog'i tashkil etilgan.

Qonunning eng qiziqarli jihatlari – bu Meksikada makkajo'xori va boshqa ekinlar uchun maxsus himoya rejimlarini o'rnatish. Yukatan gubernatori R. S. Bello 2016-yil 26-oktabrdagi "Yukatanni GMO bo'limgan hudud deb e'lon qilish to'g'risida"gi 418-tonli farmonni qabul qildi, unga ko'ra shtat hududida GMO aylanmasi

yarim taqiqlangan edi, ammo Oliy sudning 114/2019-tonli qarori bilan, 2019-yil 418-tonli Farmon bekor qilindi, chunki faqat federal hokimiyat organlari bioxavfsizlik masalalari bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega. Meksikaning GMO bioxavfsizligi to'g'risidagi qonun-qoidalarini buzish tartib buzilgan obyektlarni vaqtincha yoki doimiy ravishda yopish, ushbu obyektlardan GMOLarni va vositalarini olib qo'yish, GMO ishlab chiqarish uchun hukumat tomonidan berilgan litsenziyalar va bir martalik qarorlarni to'xtatib turish yoki bekor qilish, ma'muriy hibsga olish, o'ttiz olti soatgacha qamoq va jarimalar kabi sanksiyalarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Meksika Qo'shma Shtatlari Federal Jinoyat kodeksining 420-moddasiga binoan, harakatlar natijasida atrof-muhitga GMO chiqargan va shu bilan uchinchi shaxslar va ekotizimga zarar yetkazgan har qanday shaxs 1 yildan 9 yilgacha jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

### **BUYUK BRITANIYA QONUNCHILIGI**

Buyuk Britaniyada GMOLarni huquqiy tartibga solish umuman xalqaro (Yevropa) qonun hujjatlari va normalariga asoslanadi. Qirollikda genetik modifikatsiyalangan mahsulotlarga nisbatan jamoatchilik munosabatini neytral deb ta'riflash mumkin. Britaniya qonun chiqaruvchisi odatda GMOLarni tartibga solish masalalariga ehtiyyotkorlik bilan va chekllovchi yondashuvga ega bo'lsa-da, Britaniya jamiyat GM mahsulotlari inson salomatligi va atrof-muhit uchun zararsiz bo'lsa, bunga qarshi emas, ammo bu har doim ham shunday emas edi. 1990-yillarning boshida mamlakatda GMO ekinlarini yetishtirishga qarshi ommaviy norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi (Davison & Bertheau, 2008), ammo asta-sekin jamiyat GMOGa nisbatan bag'rikengroq bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi GM ekinlari hozir Buyuk Britaniyada yetishtirilmaydi, ammo ular keyinchalik ozuqa sifatida foydalanish va bir qator oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun juda faol import qilinadi. Mamlakat qonunchiligidagi GM ekinlarini yetishtirishga taqiq yo'q, ammo hukumat bu faqat inson salomatligi va atrof-muhit holati uchun GMO xavfsizligini mustaqil va malakali baholash natijalariga ko'ra,

shuningdek, genetik modifikatsiyalangan va tabiiy mahsulotlarni alohida yetishtirish sharti bilan ruxsat berilganligini aniqlaydi.

Buyuk Britaniyada GMOni huquqiy tartibga solishning asosi 1990-yildagi 25-sonli “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, uning 106-moddasida GMO ta’rifi berilgan. Bu genlar tabiiy sharoitda o‘zgartirilmagan yoki gen o‘zgargan organizmdan meros bo‘lib o‘tgan yoki boshqa yo‘l bilan qabul qilingan organizmni anglatadi.

Ushbu qonundan tashqari, GMOlarni huquqiy tartibga solish masalalari boshqa hujjatlar bilan ham qamrab olingan, xususan: 2004-yildagi genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat to‘g‘risidagi qaror, 2004-yildagi genetik modifikatsiyalangan hayvonlar uchun oziq-ovqat to‘g‘risidagi qaror, 2004-yildagi GM mahsulotlarini kuzatish va markalash qoidalari to‘g‘risidagi qaror.

GMOning ochiq muhitga chiqarilishi bilan bog‘liq holda, ruxsat berish tartibi amal qiladi. Qirollikning amaldagi qonunchiligiga binoan GMO ni ochiq ekotizimga chiqarishni rejalashtirgan har qanday shaxs davlat kotibidan oldindan ruxsat olishi shart. Ariza berilgan kundan boshlab 10 kun ichida ariza beruvchi, shuningdek, GMO chiqarilishining vaqt, joyi va maqsadi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ochiq nashrga joylashtirish majburiyatini oladi, shu bilan birga ularning aloqalarini ko‘rsatadi. Ariza qabul qilingandan va ko‘rib chiqilgandan so‘ng, atrof-muhitga moddalarni chiqarish bo‘yicha maslahat qo‘mitasining bo‘limmalariga yuklatilgan ekologik ekspertiza jarayoni boshlanadi. Agar GMOlarni atrof-muhitga chiqarish maqsadi ilmiy qiziqliklarga ega bo‘lsa, qo‘mita eksperimental GM namunalarining inson oziq-ovqat zanjiriga kirishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, GM ekinlarining tabiiy ekinlar bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun muayyan ehtiyyot choralarini ko‘radi. Birlashgan Qirollik hududida ishlab chiqarilgan barcha oziq-ovqat GM mahsulotlari yoki shu jumladan GMO, amaldagi qonunchilikka muvofiq, Yevropa qonunchiligi normalari bilan belgilanadigan etiketlanadi (nafaqat iste’mol qilishga tayyor GM mahsulotlari, balki GMO o‘z ichiga olgan ingredientlar-un kabi). Biroq, hayvonot mahsulotlari (sut, go‘sht va tuxum) GM belgilariga ega bo‘lmasligi mumkin,

masalan, agar hayvon GM ozuqasida oziqlangan bo‘lsa, bu holda huquqburzalik tarkibi yuzaga kelmaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, har qanday mahsulotda GMOning 0,9 foizidan ko‘p bo‘limgan miqdorda bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi, chunki bunday GMO miqdori mahsulot sifatiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi va ko‘pincha GMOning mahsulotga tasodifiy kirib borishi natijasidir.

Buyuk Britaniyada GMO huquqburzaliklari uchun javobgarlik Yevropaning “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. Shunday qilib, GMO bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lish natijasida atrof-muhitga yoki inson salomatligiga zarar yetkazgan shaxs, hatto niyat bo‘limgan taqdirda ham aybdor deb topiladi.

## AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI QONUNCHILIGI

AQSH GMOlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha yetakchilardan biri bo‘lib, unga asosan milliy qonun chiqaruvchi yordam bergen. AQSHda GMODan foydalanishning maqbulligi masalasi o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy-ekspert va davlat darajalarida faol muhokama qilina boshlandi (Giraldo, Shinozuka & Spangenberg va boshq., 2019). Natijada 1986-yilda AQSH ilmiy-texnik siyosatini ishlab chiqish boshqarmasi boshlig‘ining ijroiya apparati tomonidan “Biotexnologiyani tartibga solishning muvofiqlashtirilgan doirasi” akti e’lon qilindi, u an’anaviy mahsulotlarni ishlab chiqarish va aylanishini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy baza GMO uchun mos keladimi yoki yo‘qligini ko‘rib chiqish uchun ishlab chiqilgan. Ishchi guruh, shu jumladan, umumiylit takliflariga asoslanib, o‘sha paytda amaldagi qonunlar tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi sharti bilan qayd etilgan masalalarni tartibga solish uchun maqbul deb topilishi mumkin degan bir qator xulosalarga keldi.

AQSHda to‘g‘ridan-to‘g‘ri GMO qoidalari ni o‘z ichiga olgan maxsus federal qonunchilik qoidalari mavjud emas. GMO to‘g‘risidagi qoidalari tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida mavjud: sog‘liq, xavfsizlik, atrof-muhit va boshqalar. AQSHning GMOni huquqiy tartibga solishga yondashuvi tartibga solish ushbu mahsulotni ishlab chiqarish

usuliga emas, balki u ishlab chiqarilgan organizm va atrof-muhit tabiatiga qaratilishi kerak degan tezisga asoslanadi.

Xulosa qilish mumkinki, AQSHda GMOLarni davlat tomonidan tartibga solish qat'iy emas, aksincha, turli xil biologik texnologiyalarning uzluksiz rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan (masalan, Yevropa Ittifoqi bilan taqqoslaganda). GMO biotexnologiya sanoatining iqtisodiy jihatdan muhim tarkibiy qismi bo'lib, hozirda AQSH iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi, chunki AQSH GM ekinlarining dunyodagi yetakchi ishlab chiqaruvchisi.

Shuni ta'kidlash kerakki, GMOLarni tartibga solishda ishtirok etadigan asosiy federal ijro etuvchi hokimiyat organlari: AQSH qishloq xo'jaligi departamentining hayvonlar va o'simliklar salomatligini tekshirish xizmati(APHIS), oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi(FDA) va atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA).

## TURKIYA QONUNCHILIGI

Turkiyaning GMO va GM mahsulotlari sohasidagi qonunchiligi haqida gapirganda, darhol ta'kidlash kerakki, Turkiya 2004-yil 24-yanvardagi bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokolining ishtirokchisi, bundan tashqari, GMO aylanmasi tarafdori bo'lgan mamlakatning GM siyosati tarafchlari bunga qarshi yirik "GMO yo'q" milliy platforma vakillari. "GMO bo'limgan" tashkiloti 2004-yilda tashkil etilgan va GMO tomonidan yetkazilgan zarar haqida faol tashviqot olib boradi, xususan, 2005-yilda Turkiyaning 16 viloyatida GM pomidoridan foydalanish misolida GMOning zararli ta'siri to'g'risida varaqalar tarqatildi. 2010-yil 26-sentabrda Turkiyaning 5977-tonli "Bioxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi, unda qonunni qabul qilishning asosiy maqsadi ilmiy va texnologik yutuqlarni hisobga olgan holda GMO va zamonaviy biotexnologiyalar yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning oldini olish zarurligi ko'rsatilgan. Turkiyaning ushbu qonunida belgilangan prinsiplar asosida GM mahsulotlarining aylanishini nazorat qilish tizimi ishlab chiqilgan.

Turkiyaning bioxavfsizlik to'g'risidagi

qonuniga ko'ra, 2020-yilga o'zgartishlar bilan GMO va GMOni o'z ichiga olgan mahsulotlarni qishloq va o'rmon xo'jaligi vazirligi bilan kelishmasdan bozorga chiqarish taqiqlanadi; GM o'simliklari va GM hayvonlarini ishlab chiqarish va GMO va GM mahsulotlarini bolalar ovqatlari va chaqaloq formulalarida, chaqaloqlar va bolalar uchun oziq-ovqat qo'shimchalarida ishlatish taqiqlanadi.

Turkiya Prezidentining 2018/3-sloni farmonining qoidalariiga muvofiq qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi vazirligi qoshida qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va siyosati Bosh boshqarmasi tashkil etildi, uning vakolatlariga Turkiya hududida GMODan foydalanish mumkinligi to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish kiradi. GMO va GM mahsulotlarining har bir turi uchun oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar va Turkiya ilmiy va texnologik tadqiqotlar Kengashi (TÜBITAK) 26 a'zolari orasidan ekspertlar xulosasi chiqariladi, shundan so'ng bo'lim olimlar tomonidan aniqlangan xatarlar va ijtimoiy-iqtisodiy baholashni hisobga olgan holda qaror qabul qiladi. Iste'mol bozorida GMO va GM mahsulotlari joylashtirilgandan so'ng, vazirlik buyurtmanomada ko'rsatilgan shartlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi. Ruxsatnomalar 10 yil muddatga amal qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar GM mahsulotlari haqida uning xavfsizligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradigan yetarli ma'lumot bo'lmasa, unda ishtirokchiga tadqiqotni qayta o'tkazish tavsiya etiladi. Arizada barcha mumkin bo'lgan xatarlar (shu jumladan, dala sinovlari, laboratoriya va shunga o'xshash xatarlarni) alohida satrda belgilanadi va ularni boshqarish rejasи taqdim etilishi kerak.

O'z navbatida, Turkiyaning "Bioxavfsizlik to'g'risida"gi qonunining 4-bo'limi jinoiy qonunchilikning huquqiy javobgarligi, sanksiyalari va qoidalariiga bag'ishlangan, xususan, ushbu bo'limning 15-moddasida ruxsat berilmagan GMO va GM mahsulotlarini olib kirgan shaxs 5 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi va ushbu moddaning sud tomonidan belgilangan jarimaning o'n minginchiligi miqdori va noqonuniy xatti-harakatlarga muvofiq boshqa javobgarlik choralar ko'riliши belgilangan.

2012-yildan beri Turkiyada GMOni o'z ichiga olgan mahsulotlar, xususan, go'sht, sut, tuxum,

pishloq va boshqa mahsulotlar xaridorlarga narx, sifat va tarkib bo'yicha mahsulot sotib olayotganda tanlov qilish imkoniyatini berish uchun GMO bilan oziqlangan hayvonlardan olingan mahsulotlar majburiy etiketlanadi.

## ROSSIYA FEDERATSIYASI QONUNCHILIGI

Rossiya Federatsiyasida ham GMO mahsulotlarni hamda genetik muhandislik sohasini nazoratga soluvchi bir qancha qonun hujjatlari mavjud. Masalan:

- Rossiya sog'lijni saqlash vazirligining 2016-yil 5-iyuldaggi 476n-tonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlarning, shuningdek, bunday organizmlar yordamida olingan yoki bunday organizmlarni o'z ichiga olgan mahsulotlarning konsolidatsiyalangan davlat reyestri ni yuritish tartibini tasdiqlash to'g'risida hamda genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar, shuningdek, bunday organizmlar yordamida olingan yoki tarkibida shunday organizmlar mavjud bo'lgan mahsulotlar jamlangan davlat reyestriga ma'lumotlarni kiritish" tartibi;

- Veterinariya nazorati o'tkaziladigan tovarlarga yagona veterinariya (veterinariya va sanitariya) talablari;

- 1996-yil 5-iyuldaggi 1996-FZ "Genetik muhandislik sohasida Davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida" gi federal qonun;

- Rossiya Federatsiyasi hukumatining 839-yil 23-sentabrdagi 2013-tonli "Atrof-muhitga chiqarish uchun mo'ljallangan genetik muhandislik qilingan organizmlarni, shuningdek, bunday organizmlar yordamida olingan yoki bunday organizmlarni o'z ichiga olgan mahsulotlarni Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi qarori;

- Rossiya Federatsiyasi ta'lim va fan vazirligining 02.10.2014-yuldaggi 1299-tonli buyrug'i "Atrof-muhitga chiqarish uchun mo'ljallangan genetik jihatdan yaratilgan modifikatsiyalangan organizmlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi sertifikatlar shakllarini tasdiqlash va genetik jihatdan yaratilgan modifikatsiyalangan organizmlar yordamida olingan yoki bunday organizmlarni o'z ichiga olgan mahsulotlarni davlat ro'yxatidan

o'tkazish to'g'risida"gi buyrug'i;


- 30.03.1999-yuldaggi 52-tonli "Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligi to'g'risida"gi federal qonuni;

- 02.01.2000-yuldaggi 29-tonli "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi federal qonun;

- 07.02.1992-yuldaggi Rossiya Federatsiyasining 2300-1-tonli "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni va boshqalar.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2016-yilda murakkab xarakterdagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidagi o'zgarishlar GMOni o'z ichiga olgan mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida sezilarli cheklowlarni joriy etdi. Shunday qilib, 07.03.2016-yuldaggi 358-FZ "Rossiya Federatsiyasining genetik muhandislik faoliyati sohasida davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" federal qonuniga ko'ra Rossiyada GM o'simliklari va hayvonlarini yetishtirish va ko'paytirish taqiqlandi, ulardan foydalanish, eksperimentlar va ilmiy tadqiqot ishlari bundan mustasno. Ushbu qonun, shuningdek, GMO va GM mahsulotlarini import qiluvchilarga zarur ro'yxatga olish tartib-qoidalaridan o'tish majburiyatini uzaytirishni nazarda tutgan, shu bilan birga Rossiya Federatsiyasi hukumatiga ushbu organizmlar va mahsulotlarni mamlakatga olib kirishni taqiqlash huquqini bergen monitoring natijalari. Bundan tashqari, ushbu AKT ruxsat etilgan turdag'i va foydalanish shartlarini buzgan holda GM Olardan foydalanganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutgan.

Shu bilan birga, Rossiyada GMO mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq masalalarni qonuniy tartibga solishda ba'zi nomuvofiqliklarni kuzatish mumkin. 2018–2019-yillarda Rossiyada genetik va genomik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi (Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 680-tonli 11.28.2018-yuldag'i "Rossiya Federatsiyasida genetik texnologiyalarni rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni va boshqalar). Ushbu huquqiy hujjatlar genetik va genomik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun asos yaratdi, bu Rossiyada GM mahsulotlarini ishlab chiqarishda ilgari qayd etilgan cheklovga



mos kelmaydi (aslida qishloq xo'jaligi sohasida o'tkazilgan genomik tadqiqotlar natijalaridan foydalangan holda).

**Xulosa.** GMOLarni yaratish va ularidan foydalanish bo'yicha bir qator xorijiy mamlakatlarning me'yoriy-huquqiy bazasini qiyosiy huquqiy o'rganish O'zbekistonda shunga o'xshash masalalarni huquqiy tartibga solishda xorijiy tajribani qo'llash imkoniyati to'g'risida bir qator xulosalar va tavsiyalarni shakkantirishga imkon berdi. Rivojlangan mamlakatlarning umumiy yo'nalishi genetik texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'lishiga qaramay, har bir davlat huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlariga ega, bu u yoki bu ilg'or xorijiy tajribani amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishda yanada chuqur ilmiy yondashuvni talab qildi. Turli huquqiy tizimlarga mansub davlatlar qonunchiligini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

ko'rib chiqilgan barcha mamlakatlarda genomik tadqiqotlarni tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining umumiy tendensiysi tizimli rivojlanish (ushbu sohadagi yetakchi olimlar va mutaxassislarining fikrlarini hisobga olgan holda) va davlat hokimiyatining turli darajalarida va tashkilotlarda huquqiy hujjatlar, standartlar va qoidalarni qabul qilishda genomik tadqiqotlar jarayonini qo'shimcha tartibga solishga qaratilgan. Bunday holda, asosiy farq – bu tartibga solish darajasi hamda ma'muriy va tartibga solish qoidalariiga rioya qilish nuqtayi nazaridan bunday faoliyatni sertifikatlash (litsenziyalash)dan o'tish

qiynligi;

AQSH, Xitoy va Isroilda GMO va GM mahsulotlarini tartibga soluvchi qonunchilik qonun chiqaruvchining liberal yondashuvi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, ushbu mamlakatlar davlat rahbari va hukumati tomonidan GMO sohasidagi tadqiqotlarni rag'batlantirish va ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatma keladi. Bundan tashqari, Isroilda tajriba o'tkazish uchun ruxsat olishning hojati yo'q, agar u jihozlangan laboratoriyyada o'tkazilsa va tajriba xavfsizligi uchun mas'ul shaxs tayinlansa;

Ko'pgina mamlakatlarda GMO va GM mahsulotlarining aylanmasi ushbu sohani nazorat qiluvchi organning qaroriga bog'liq, agar faoliyat noqonuniy olib borilsa, unda ba'zi mamlakatlarda jiddiy jarimalar va qamoq jazosini nazarda tutuvchi jinoiy javobgarlik ko'zdautilgan, masalan, Malayziya, Meksika, Germaniyada;

Biotexnologiyalarni (shu jumladan GMO) rivojlantirish nuqtayi nazaridan Qo'shma Shtatlardagi huquqiy rejim eng maqbul hisoblanadi, bu, xusan, AQSH bu sohada dunyoda yetakchi ekanligi bilan tasdiqlanadi. AQSH rahbariyati jahon bozorida AQSH yetakchiligini saqlab qolish uchun biotexnologiyani huquqiy tartibga solish modelini doimiy ravishda takomillashtirishda davom etmoqda. Bu, birinchi navbatda, byurokratik to'siqlarni kamaytirishga tegishli;

Ushbu masalada ilmiy jamoatchilikning roli va GMOLarning zarari va foydalari to'g'risida alohida ta'kidlash kerak, chunki hozirgi vaqtida turli xil manbalar, shu jumladan ataylab noto'g'ri

ma'lumot beruvchi manbalar ushbu masala bo'yicha jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatmoqda;

GMO mahsulotlarini ishlab chiqarishni qonuniy tartibga solish, bir tomonidan, GMOlarning atrof-muhitga chiqarilishi ustidan nazorat o'rnatish hamda odamlarga va atrof-muhitga ta'siri monitoringini joriy etish orqali genetik muhandislik sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, xususan, xalqaro sifat va xavfsizlik standartlariga javob beradigan yangi texnologiyalardan foydalanish, shu bilan mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish zarur;

Rossiya, Belorussiya va Qozog'istonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan GMO bo'lgan mahsulotlar aylanmasining turli masalalari qonunchilik va quyi dara-

jalarda tartibga solinadi. Shu munosabat bilan milliy qonun chiqaruvchilar ushbu mahsulotlarga, xususan, ularni sertifikatlash uchun bir qator muhim cheklovlar va talablarni o'rnatdilar;

Aytish joizki, GMOlarning to'liq aylanmasini qonun bilan taqiqlovchi yoki unga moratoriyl joriy etuvchi davlatlar ham bor. Xususan, Jazoir, Saudiya Arabiston, Peru, Ekvador, Venesuela va AQSHning ayrim shtatlarida GMO butunlay taqiqlangan. Rossiya vaqtinchalik moratoriyl amal qilayotgan mamlakatlardan biri, ammo uning ta'siri yakunlanmoqda va 2019-yildan boshlab biotexnologiyalar va GMO sohasidagi yutuqlarini rivojlantirishga hissa qo'shadigan bir qator hujjatlar qabul qilindi.

Shunga asosan mamlakatda GMO mahsulotlarni davlat darajasida tartibga solish bo'yicha tartibni xalq manfaatlaridan hamda chet davlatlar tajribasidan kelib chiqib qaytadan ko'rib chiqish zarur bo'ladi.



**ADABIYOTLAR**

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 14-oktabr kuni imzolagan O'zbekistonni biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyaga (MONREAL, 2000-yil 29-yanvar) bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokoliga qo'shish to'g'risidagi qonuni.
2. 11.05.2020-yildagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 275-sun "Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiyaning bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokoli (Monreal, 2000-yil 29-yanvar) qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
3. 25.11.2020-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4899-sun qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining bosh davlat sanitari vrachining buyrug'i oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi gigiyenik normativlari Texnikaviy shartlar (0366-19)-sonli SANQVAM.15.11.2019.
5. Санитарные нормы, правила и гигиенические нормативы республики узбекистан гигиенические требования к безопасности пищевой продукции СанПиН РУз № 0283-10 Ташкент-2010
6. "Требования к определению безопасности пищевой продукции, содержащей генетически модифицированные источники (ГМИ)" от 18.07.2005 г. № 0185-05.
7. ГОСТ ИСО 21569-2009 Продукты пищевые. Методы анализа для обнаружения генетически модифицированных организмов и производных продуктов. Методы качественного обнаружения на основе анализа нуклеиновых кислот.
8. ГОСТ ИСО 21570-2009 Продукты пищевые. Методы анализа для обнаружения генетически модифицированных организмов и производных продуктов. Количественные методы, основанные на нуклеиновой кислоте.
9. ГОСТ ИСО 21571-2009 Продукты пищевые. Методы анализа для обнаружения генетически модифицированных организмов и производных продуктов. Экстрагирование нуклеиновых кислот.
10. 30.08.2001-yildagi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 267-II son Qonuni.
11. 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5303-sun O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni.
12. 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 221-I-sun O'zbekiston Respublikasining qonuni.
13. 27.02.2023-yildagi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-819-sun O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
14. O'zbekiston Respublikasi Sud ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi NAMU-NAVIY NIZOM. (21.02.2023 yil, ro'yxat raqami VMQ 73-sun).
15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOMning 21-bandni (10.04.2023-yil, ro'yxat raqami 72-sun).
16. Turli mamlakatlarda ro'yxatdan o'tgan GMO liniyalari haqida ma'lumot mavjud International Service for the Acquisition of Agri-biotech Applications (ISAAA)/GM Approval Database (<http://www.isaaa.org/gmapprovaldatabase>) veb-sayt.
17. Germanianing "Genetika muhandisligini tartibga soluvchi qonun (Gen muhandisligi to'g'risidagi qonun)" (Gesetz zur Regelung der Gentechnik (Gentechnikgesetz — GenTG). Available from: <https://www.gesetze-im-internet.de/gentg/BJNR110800990.html> [Accessed 11th November 2020])
18. Malayziyaning ACT 678 Bioxavfsizlik qonuni.
19. Ispanianing "GMOlardan foydalanish, ixtiyoriy ishlab chiqarish va sotishning huquqiy nazorati haqida"gi qonuni (Ley 9/2003, de 25 de abril, por la que se establece el régimen jurídico de la utilización confinada, liberación voluntaria y comercialización de organismos modificados genética-

mente. Available from: [https://noticias.juridicas.com/base\\_datos/Admin/l9-2003.html](https://noticias.juridicas.com/base_datos/Admin/l9-2003.html) [Accessed 18th October 2020].

20. Xitoyning “Qishloq xo‘jaligida GMO xavfsizligini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”i.

21. Qozog‘istonning “Oziq-ovqat xavfsizligi haqida”gi qonuni.

22. 1956-yil 22-noyabrdagi Isroil davlatining “Urug‘lar to‘g‘risida”gi 19-sonli Qonuni (Seeds Law, 1956. Available from: <https://www.ecolex.org/details/legislation/seeds-law-1956-lex-faoc022926/> [Accessed 30th November 2020]).

23. Meksika Qo‘shma Shtatlarining 2005-yil 18-martdagi “GMO bioavfsizligi to‘g‘risida”gi 24-sonli qonuni (Ley de Bioseguridad de Organismos Genéticamente Modificados. Available from: <https://mexico.justia.com/federales/leyes/ley-de-bioseguridad-de-organismos-geneticamente-modificados/> [Accessed 13th November 2020]).

24. Buyuk Britaniyada GMOni huquqiy tartibga solishning asosi 1990-yildagi 25-sonli “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun (Environmental Protection Act 1990. Available from: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1990/43/contents> [Accessed 24th November 2020]).

# HODISA SODIR BO'LGAN JOYNI KO'ZDAN KECHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**IMOMNAZAROV**  
*Alisher Xasanovich,*  
*O'zbekiston Respublikasi Huquqni  
 muhofaza qilish akademiyasi  
 mustaqil izlanuvchisi*

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqlolada hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining nazariy va huquqiy asoslari, milliy va xorijiy olimlarning hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishga oid qarashlari va yondashuvlari, mazkur yondashuvlarning o'zaro nisbati muhokama qilingan. Shuningdek, maqlolada hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining o'ziga xos xususiyatlari, uning boshqa obyektlarni ko'zdan kechirish bilan bog'liq tergov harakatlari dan farqlovchi belgilari kabi masalalar tadqiq qilingan. Maqlolada muallif tomonidan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazishda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, hodisa sodir bo'lgan joy, ko'zdan kechirish, tergov harakati, dalil, tergov.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются теоретические и правовые основы осмотра места происшествия, взгляды и подходы отечественных и зарубежных ученых к осмотру места происшествия, взаимосвязь между этими подходами. Также в статье рассматриваются особенности следственного действия по осмотру места происшествия, его отличия от следственных действий, связанных с осмотром других объектов. Автором разработаны предложения и рекомендации по вопросам, на которые следует обратить особое внимание при осмотре места происшествия.

**Ключевые слова:** место происшествия, осмотр, осмотр места происшествия, следственные действия, доказательства, расследование.

## ANNOTATION

This article discusses the theoretical and legal basis for the crime scene examination, the views and approaches of domestic and foreign scientists to the crime scene examination, as well as the relationship between these approaches. The article also discusses such issues as the features of the crime scene examination, its differences from investigative actions related to the investigative examination of other objects. In the article, the author has developed proposals and recommendations on issues that should be paid special attention to during the crime scene examination.

**Key words:** crime scene examination, crime scene, investigative examination, investigative actions, evidence, investigation.

Tergov harakatining eng asosiy va keng tarqalgan turi hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish hisoblanadi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati deyarli barcha turdag'i jinoyat ishlari bo'yicha o'tkazilib, tergov harakatlari orasida o'tkazilish salmog'i yuqori hisoblanadi. Har yili o'rtacha 43 000 mingdan ortiq hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati o'tkazilmoqda<sup>1</sup>. Mazkur ko'rsatib o'tilgan ma'lumot ham ushbu tergov harakatining jinoyat ishlarini tergov qilish va tergov harakatlarini o'tkazishdagi ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatib turibdi.

Bugungi kunda yuridik adabiyotlarda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati bo'yicha turli xil qarashlar va fikrlar mavjud. Ayrim manbalarda hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish so'rovni amalgalashirishga qaratilgan tergov harakatlari sifatida qayd etilsa<sup>2</sup>, boshqa manbalarda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jinoyat izlari va ashyoviy dalillarni topish, ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tergov harakati sifatida baholangan<sup>3</sup>.

Ushbu fikrlar umumiylar tarzda bayon etilgan bo'lib, ko'zdan kechirishning barcha turlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksining 137-modda-

<sup>1</sup> Abdullayev R.K. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning kriminalistik ta'minotini takomillashtish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2023. – 5-bet.

<sup>2</sup> [http://www.kalinovsky-k.narod.ru/p/krat\\_kurs/11-1.htm](http://www.kalinovsky-k.narod.ru/p/krat_kurs/11-1.htm)  
[http://www.kalinovsky-k.narod.ru/p/krat\\_kurs/11-1.htm](http://www.kalinovsky-k.narod.ru/p/krat_kurs/11-1.htm)

<sup>3</sup> Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish: O'quv-amaliy qo'llanma/General-mayor Sh.T.Ikramov umumiylar tahririda. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 79 b. Sharafutdinov A.O. Ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi: O'quv qo'llanma. Toshkent 2013. 19-bet. Baynazov J.Sh. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining o'ziga xos xususiyatlari // Science promotion. – 2023. – t. 4. – №. 1. – S. 209-215.

sida ko'zdan kechirish tergov harakatining alohida turi sifatida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati belgilab qo'yilgan. Mazkur normaga asosan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki jinoyat izlari borligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganda o'tkaziladi<sup>4</sup>.

Mazkur moddada hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish asoslari belgilab berilgan. Holatda jinoyat alomatlari mavjud bo'lsa eng muhim masala hodisa sodir bo'lgan joy va uni ko'zdan kechirish hisoblanadi. Hodisa sodir bo'lgan joyga nisbatan jinoyat amalda bajarilgan joy sifatida ham qaraladi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish "hodisa joyi" tushunchasiga asoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, hodisa sodir etilgan joyni ko'zdan kechirishda "hodisa joyi" tushunchasi nimani anglatishini aniqlashtirish lozim. Chunki ushbu masalani aniqlashtirish nafaqat nazariy, balki amaliy faoliyat bilan ham bevosita bog'liqidir. Chunki bu har xil ko'zdan kechirish turlarini (hodisa joyini ko'zdan kechirish, yer-maydonlarni hamda turar joylarni ko'zdan kechirish) ajratish imkonini beradi.

D.P. Rasseykin va V.P. Vodyaniskiy kabi mualliflar ko'zdan kechirish tergov harakati o'tkaziladigan voqealarni bevosita sodir bo'lgan hudud yoki xonani hodisa joyi sifatida baholashadi<sup>5</sup>. D.P. Rasseykin va V.P. Vodyaniskiylar tekshiriladigan voqealarni haqida gapirganda nimani nazarda tutganligi aniq emas. Shubhasiz, hodisani ko'zdan kechirish haqida emas, balki uning oqibatlarini tekshirish haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi. Hodisa joyi jinoyat sodir etilgan joy va xonadan tashqari, boshqa joylarni ham qamrab olgani uchun mazkur mualliflarning fikrlari bilan kelishib bo'lmaydi.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 269-modda.

<sup>5</sup> Рассейкин Д.П. Осмотр места происшествия и трупа при расследовании убийств. – Саратов, 1967. – С. 69. Аналогичная точка зрения встречается в работах и других исследователей (см.: Тактика следственных действий. – Саратов, 2000. – С. 28; Водяницкий В.П. К вопросу о понятии места происшествия // Вопросы криминалистики и судебной экспертизы. – Саратов, 1976. – Вып. 1. – С. 47).

A.V.Dulov va P.D.Nesterenkolar esa hodisa joyini holat bevosita tergov qilinadigan ba'zi bir hududning maydoni yoki xonardon, shuningdek, bu hodisaga tegishli bo'lgan ma'lumotlar va ularning oqibatlari topilishi mumkin bo'lgan boshqa qo'shni joylarni ham hodisa joyi sifatida qayd etishgan<sup>6</sup>. Mazkur mualliflarning fikrlarida tekshirilayotgan hodisa va ularning oqibatlari haqidagi ma'lumotlar bilan aynan nimani nazarda tutayotgani noaniq tarzda bayon etilgan. Ro'y bergen hodisaning moddiy izlari faqatgina xonalar yoki jinoyat sodir etilgan joyga yaqin bo'lgan hududlarda bo'lmasdan, katta maydonlarda ham bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, hodisa sodir bo'lgan joy u qamrab olgan hududi bo'yicha ham, jinoyat sodir bo'lgan joydan ham kengroq bo'lishi mumkin. Chunki ayrim turdag'i jinoyatlar bo'yicha jinoyat izlari va unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni jinoyat sodir etilgan joydan uzoq bo'lgan boshqa joydan ham topish mumkin. Misol uchun, kompyuterga noqonuniy kirish hamda undagi ma'lumotlar jinoiy tajovuz obyektidan ancha uzoqroqda joylashgan boshqa joydag'i kompyuterdan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Masofadan turib internet orqali kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy kirish holatida hodisaning yagona yaxlit joyi mayjud emas. Chunki bunday jinoyatlarda hodisaning bir nechta joyi bo'lishi mumkin:

1) jinoiy tajovuz obyektiga aylangan ma'lumotlarni qayta ishlash joylari, ya'ni ish joyi, ofislar, korxona, muassasa va tashkilotlar;

2) ma'lumotlarni saqlash yoki zaxiralash uchun mo'ljallangan joylar, shu jumladan, jinoiy hodisa bo'yicha jinoyat izlari saqlanib qolgan server joylashgan joylar;

3) kompyuter ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish, ularni blokirovka qilish, o'zgartirish yoki nusxa olish, kompyuter, kompyuter tizimi yoki ularning tarmog'inining ishlashini buzish orqali olingan ma'lumotlarni kompyuter muhitida saqlash joylari.

Ko'rib turganimizdek, jinoyat sodir etilgan joy bevosita jinoyat izlari bo'lмаган, lekin uning holati bilan tanishish imkonini beradigan hudud bilan o'ralgan bo'lishi ham mumkin.

<sup>6</sup> Дулов А.В., Нестеренко П.Д. Тактика следственных действий. – Минск, 1971. – С. 109.

Hodisa sodir bo'lgan joy kompyuter o'matilgan va ma'lumotlar saqlanadigan bitta xona, bir nechta xona, shu jumladan kompyuter tarmog'i bilan bog'langan yoki internetga ulangan turli hududlarda joylashgan binolar bo'lishi mumkin.

A.N. Vasileva va R.B.Xametovlar hodisa sodir bo'lgan joy nafaqat noqonuniy harakat (harakatsizlik) qilingan, ijtimoiy xavfli qilmishning zararli oqibatlari sodir bo'lgan hudud yoki binolardan tashqari, u bilan bog'liq holatlar aniqlangan joylarga ham tegishli ekanligini qayd etishgan<sup>7</sup>.

Shu sababli, hodisa sodir bo'lgan joyni aniqlash (ayniqsa, tergovning dastlabki bosqichida, odatda, hodisa joyini ko'zdan kechirish tayinlanganda), katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Vaziyatni o'rghanish jarayonida topilgan izlar asosida sodir bo'lgan hodisaning mohiyati to'g'risida ishonchli xulosa chiqarish har doim ham mumkin emas.

Misol uchun, ma'lum bir joyda aniqlangan hodisa bo'yicha turli xil talqinlar, ya'ni jinoyat sodir etgan shaxs bu yerda jinoyat sodir etganligi, jinoyatga tayyorgarlik ko'rganligi, jinoyat oqibatlari va jinoyat izlarini yashirish vaqtida turli izlar qoldirgan bo'lishi mumkin. Jinoiy hodisa uning izlari topilgan joydan boshqa joyda sodir bo'lganligini aniqlash uchun ko'pincha ko'p vaqt talab etiladi.

R.S.Belkin esa, hodisa joyini jinoyat izlari topilgan joy yoki bino deb tavsiflaydi. U tergov o'tkazish talab etadigan holat bo'yicha jinoyat izlari topilgan joyni hodisa joyi sifatida, uning tekshiruvini esa hodisa joyini ko'zdan kechirish sifatida baholaydi<sup>8</sup>. Shuni qayd etish kerakki, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining vazifalari faqatgina izlarni aniqlash bilan chegaralanmaydi.

Bunda, jinoyat izlaridan tashqari, ishni qonuniy va asosli hal etishga qaratilgan ashyoviy dalillarni topish, jinoiy hodisa ro'y bergen vaziyatni hamda ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtiruvchi ma'lumotlar ham olinadi.

<sup>7</sup> Васильев А.Н. Осмотр места происшествия. – М., 1960. – С. 7. Криминалистика / Под ред. – М., 1971. – С. 289. Хаметов Р.Б. О плуральном характере места происшествия // Вестн. Сарат. гос. академии права. – 2000. – № 3 (22). – С. 32-33.

<sup>8</sup> Белкин Р.С., Лифшиц Е.М. Тактика следственных действий. – М., 1997. – С. 52.

L.A.Ivanov hodisa joyini voqeasodir bo'lgan yoki uning oqibatlari qolgan, daliliy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yoki hodisalar (ularning izlari) mavjud bo'lgan ma'lum bir makon deb tushunish lozimligini qayd etgan<sup>9</sup>. Muallifning hodisa joyi sifatida holat sodir etilgan va daliliy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar va ularning izlari qolgan joylarni e'tirof etishi diqqatga sazovordir. Biroq, muallifning yuqoridagi fikrlarida "ma'lum bir makon" deganda nimani nazarda tutishi mavhum hisoblanadi. Chunki muallif tomonidan "ma'lum bir makon" deganda aynan qaysi joylar tushunilishi ko'rsatib berilmagan.

V.P.Kolmakov esa, hodisa sodir bo'lgan joy deganda, hududning ma'lum bir fazoviy maydoni, yer, suv yuzasi va suv tubi, uning moddiy oqibatlari topilgan binolar tushunilishini qayd etgan<sup>10</sup>. Ushbu berilgan ta'rifda V.P.Kolmakov "hodisa joyi" tushunchasini qamrab oladigan makon deganda nimalar kirishini ko'rsatib bergen. V.V.Stepanov haqli ravishda "hodisa joyi sifatida tekshiriladigan maydonga suv osti muhiti, yer osti tabiiy tuzilmalari yoki sun'iy inshootlarni kiritish orqali tekshiriladigan sohalar ro'yxatini kengaytirishni taklif qilgan"<sup>11</sup>.

Mazkur mualliflarning fikrlaridan kelib chiqib, hodisa joyi – bu hudud, suv maydoni, yer maydoni, suv yuzasi, suv osti muhiti, yer osti tabiiy tuzilishi yoki sun'iy inshoot, uning ichida noqonuniy harakat (harakatsizlik) yoki uning zararli oqibatlari sodir bo'lgan yoxud tergov qilinayotgan hodisaga aloqador bo'lgan izlar mavjud bo'lgan joy.

Yuridik ensiklopediyada hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish – jinoyat sodir etilgan bino yoki hududni yoxud uning izlari topilgan joyni bevosita o'rganishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir<sup>12</sup>, deb ta'rif berilgan. Ushbu ta'rifda faqat xona yoki maydon ko'zdan kechirish obyekti sifatida qayd etilgan bo'lib, hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish doirasida o'rganilgan

<sup>9</sup> Иванов Л.А. Следственный осмотр при расследовании транспортных происшествий. – Саратов, 1993. – С. 7.

<sup>10</sup> Колмаков В. П. Следственный осмотр. Юридическая литература. – 1969. – С. 30.

<sup>11</sup> Степанов В.В. О понятии места происшествия // Теория и практика криминалистики и судебной экспертизы. Саратов, 2004. – Вып. 12.

<sup>12</sup> Юридический энциклопедический словарь. – М., 1987. – С. 281.

boshqa obyektlar (suv osti muhiti, yer osti tabiiy tuzilmalari va sun'iy inshootlar) haqida to'xtalib o'tilmagan.

Shuningdek, ushbu berilgan ta'rifda hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirishning o'ziga xos belgilari ko'rsatilmagan bo'lib, bu holat ushbu tergov harakatini boshqa o'xhash tergov harakatlaridan farqlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Chunki tintuv, tergov eksperimenti va ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish vaqtida ham jinoyat sodir etilgan xonani yoki hududni yoxud uning izlarini qidirib topish mumkin.

V.V.Frolov va M.V.Kurbanov fikricha, hodisa joyini ko'zdan kechirish tushunchasi jinoyat ishi bo'yicha ashayoviy dalillar va izlarni aniqlash, ularni mustahkamlash, jinoyat mexanizmi va sabablarini o'rganish va ko'zdan kechirish ma'lumotlaridan foydalanishga hamda jinoyatni issiq izidan fosh etishga qaratilgan tergov-qidiruv tadbirlari majmuasini o'z ichiga oladi<sup>13</sup>.

Mazkur mualliflarning hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish tergov harakatini tergov-qidiruv tadbirlari sifatida baholashi munozarali hisoblanadi. Chunki hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish tergov-qidiruv tadbirlari hisoblanmaydi. Bu kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatining alohida turidir.

Bu borada A.V.Dalinin, S.V.Aristovlar tomonidan berilgan tushuncha nisbatan tugal bo'lib, ular hodisa joyini ko'zdan kechirishni tergov harakatlari deb tushunish kerakligini, bunda tergovchi qonunda ko'rsatilgan shaxslar bilan birlgilikda ma'lum hududda yoki xonada mavjud bo'lgan moddiy obyektlarning holati, belgilari va xususiyatlari, ularda mavjud bo'lgan jinoyat izlari va boshqa ashayoviy dalillarni topish, vaziyatni va ishdagi haqiqatni aniqlash uchun muhim bo'lgan barcha holatlarni bevosita idrok qiladi, tekshiradi, qayd etadi va baholaydi<sup>14</sup>, deb ta'kidlab o'tgan.

Mazkur mualliflarning fikrlari bilan qisman

<sup>13</sup> Фролов В.В., Курбанов М.В. Актуальные проблемы осмотра места происшествия //Аллея науки. – 2018. – Т. 1. – № 4. – С. 682-685.

<sup>14</sup> Далинин А.В., Аристов С.В. Понятие осмотра места происшествия как разновидности следственного осмотра // Социология и право. – 2019. – № 4 (46). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-osmotra-mesta-proishestviya-kak-raznovidnosti-sledstvennogo-osmotra>. – Дата обращения: 12.03.2024.

kelishish mumkin. Haqiqatan ham, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda jinoyat izlari va boshqa ashyoviy dalillar olinadi hamda tegishli tartibda qayd qilinadi. Biroq A.V.Dalinin, S.V.Aristovlarning tergovchi tomonidan jinoyat izlari va ashyoviy dalillar tekshirilishiga oid fikrlari munozarali hisoblanadi. Chunki jinoyat izlari va ashyoviy dalillarni tekshirishda maxsus bilimlar yoki kriminalistik-texnik vostitalar talab etilishi mumkin. Bunday holatlarda ularni tekshirish uchun ekspert yoki mutaxassislarni jalg'etish maqsadga muvofiq.

Ko'rib turganimizdek, ushbu ta'rif ham ba'zi kamchiliklardan xoli emas. A.V.Dalinin, S.V.Aristovlardan tashqari boshqa olimlar<sup>15</sup> ham tergovchining (qonunda nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarning) moddiy obyektlarning holati, belgi va xususiyatlarini to'g'ridan to'g'ri idrok etishlarini qayd etib o'tishgan.

Fikrimizcha, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda hamda olingan ma'lumotlarni tekshirishda maxsus bilimlar talab etilgan holatlarda ishga mutaxassis yoki ekspertlarni jalg'etish lozim. Chunki tergovchida olingan ma'lumotlarni tekshirish vaqtida tegishli malaka ko'nigmalarining yetishmasligi natijasida olingan ma'lumotlar yaroqsiz obyektga aylanib qolishi mumkin.

Shuningdek, yuqoridagi mualliflarning fikrlarida "qonunda nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarning" deganda aynan kimlar tushunilishi nazarda tutilmaganligi ushbu berilgan tushunchaning eng asosiy kamchiligi hisoblanadi.

<sup>15</sup> Курбатова С.М., Шкодина Т.К. Производство "следственного осмотра": некоторые процессуальные аспекты // Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ. – 2021. – № 3 (21). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/proizvodstvo-sledstvennogo-osmotra-nekotorye-protsessualnye-pravoprimenitelnye-aspekty>. – Дата обращения: 12.03.2024. Даачаев З.Б., Гаджиев А.Т., Скориков Д.Г. Осмотр места происшествия //Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире. – 2017. – №. 18-3. – С. 94-96. Гульянц А.Г. Основные направления повышения эффективности осмотра места происшествия // Дисс.... канд. юрид. наук. – М. – 2005. Чернышев М.А. Осмотр места происшествия как базовая тактическая операция //Дисс. ... канд. юрид. наук. – Курск. – 2008. Белкин А.Р. Теория доказывания. – М., 1999. – С. 354.

R.S.Belkin, N.A.Duxnova A.A.Bulbachevalar hodisa joyini ko'zdan kechirishni kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati sifatida baholab, hodisa sodir bo'lgan joyning holatini aniqlash va o'rganish, jinoyatchining izlari, ishga aloqador dalillar, voqeа mexanizmi hamda tergov qilinayotgan hodisaning boshqa holatlari to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradigan faktik ma'lumotlarni aniqlashga qaratilgan harakat sifatida izohlashgan<sup>16</sup>.

Mazkur mualliflarning hodisa sodir etilgan joyni ko'zdan kechirishni faqat jinoyatchining izlarini aniqlashga qaratilgan harakatga oid degan fikrlari munozarali hisoblanadi. Chunki hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda jinoyatchi izlari bilan bir qatorda, ishda haqiqatni aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa izlar (murdalar, hayvonlar izlari) ham aniqlanishi mumkin. Bunday tashqari, hodisa joyini ko'zdan kechirish hodisaning mexanizmi va boshqa holatlari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradigan har qanday faktik ma'lumotlarni emas, balki moddiy xarakterdagи ma'lumotlarni olishga qaratilgan.

M.R.Cho'tbayev esa, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini surishtiruvchi, tergovchi va sudlarning hodisa sodir bo'lgan joyni sinchiklab o'rganib chiqishi va bu yerdan tegishli dalil, ashyolarni topishlari va ularning jinoyatga tegishli yoki tegishli emasligini o'rganib chiqishga qaratilgan umumiy faoliyati sifatida baholaydi.

Muallifning mazkur fikrlari bilan kelishish mumkin. Darhaqiqat, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish davomida hodisa joyini to'liq o'rganish natijasida tegishli ashyolar topiladi hamda olingan ashyolarning sodir etilgan jinoyat ishiga aloqasi mavjud yoki mavjud emasligi masalasi ham hal etiladi. Shuningdek, muallif ushbu tushunchada vakolati mansabdor

<sup>16</sup> Белкин А.Р. Теория доказывания. – М., 1999. – С. 354. Духно Н.А. Осмотр места происшествия // Вестник Академии права и управления. – 2018. – № 1 (50). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/osmotr-mesta-proisshestviya>. – Дата обращения: 12.03.2024. Бульбачева А.А. Актуальные проблемы осмотра места происшествия // Труды Академии управления МВД России. – 2015. – № 2 (34). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-osmotra-mesta-proisshestviya>. – Дата обращения: 12.03.2024.

shaxslarni ko'rsatganligi holatini alohida e'tirof etish joiz. Biroq ushbu mansabdon shaxslar qatorida tergovga qadar tekshiruv organi mansabdon shaxsining mavjud emasligi munozarali hisoblanadi. Chunki Jinoyat-protsessual kodeksining 137-, 239-moddalariga muvofiq tergovga qadar tekshiruv bosqichida ham hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish mumkin.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish deganda, ish bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyning holatini aniqlash, qayd etish va o'rganish, hodisa joyida jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlarni aniqlashga qaratilgan ko'zdan kechirish tergov harakatining alohida turidir.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati bo'yicha berilgan fikrlardan kelib chiqib, ushbu tergov harakatining eng asosiy xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

**Birinchidan**, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati hisoblandi. Chunki jinoyat haqida xabar kelib tushganidan so'ng hodisa joyi tezda ko'zdan kechirilmasa, ya'ni ko'zdan kechirishni kechiktirish jinoiy hodisa sodir etilgan holat va vaziyatning o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, jinoyat haqida xabar bo'yicha jinoyat izlari hamda ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarning yo'q bo'lishi yoki yaroqsiz holatga kelishiga sabab bo'ladi.

M.R.Cho'tbayev, Sh.Sh.Suyunov va F.U.Odiljonovlar hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kechiktirib bo'lmaydigan muhim tergov harakati hisoblanishini, ma'lumotlar tezda qayd etilmasa jinoyat izlari yo'qolishi (tabiiy ravishda buzilishi yoki ataylab yo'q qilinishi) mumkinligini qayd etishgan<sup>17</sup>.

Haqiqatan ham qilmish sodir etilganidan so'ng hodisa joyi tezda ko'zdan kechirilmasa jinoyat

<sup>17</sup> Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiyligini qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / y.f.d., dots. G.Z.To'laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiyligini tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 227-bet. Suyunov Sh., Odiljonov F. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov xarakatining jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularning aybini isbotlashdagi ahamiyati//Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 60-62.

izlari yaroqsiz holga kelishi hamda jinoyatlarni "issiq izidan" ochish imkoniyati qo'ldan chiqishi mumkin.

Ayrim mualliflar to'g'ri qayd etganidek, hodisa joyiga chiqishni kechiktirish jinoiy ishdan manfaatdon bo'lgan shaxslar tomonidan ashyoviy dalillarning yo'qotilishi yoki voqealari holatining o'zgartirilib yuborilishiga olib kelishi, ob-havo – yomg'ir, qor va boshqalar ta'sirida ba'zi izlar yo'q bo'lib ketishi mumkin.<sup>18</sup>

Hodisa joyini ko'zdan kechirishni kechiktirmasdan, o'z vaqtida amalgalashish kerak. Tergovchi jinoiy hodisa sodir etilganligi to'g'risida xabar olgandan keyin darhol hodisa joyiga yetib borishi lozim. Ba'zi jinoyatlarda hodisa joyidagi holat uzoq muddat saqlanib turmaydi. Misol uchun, avtovoz transport hodisasi, baxtsiz hodisalar bo'yicha ma'lumotlarning yo'qolishi yoki yaroqsiz holatga kelishi ehtimoli yuqori hisoblanadi.

Ko'zdan kechirishning o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishi hodisa joyi holatini to'liq tekshirish va birorta ham ashyoviy dalilni nazardan chetda qoldirmaslikni ta'minlaydi<sup>19</sup>.

Shunga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdon shaxsi, surishtiruvechi, tergovchi qilmish sodir etilganligi to'g'risida xabar olishi bilan har qanday vaqt va sharoitlarda zudlik bilan o'sha joyga yetib borishi hamda ko'zdan kechirishni boshlashi talab etiladi.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksining 88-moddasiga muvofiq tungi vaqtida (kechki soat 22-00 dan ertalab soat 6-00 gacha) tergov harakatlarini olib borish isbot qilishda taqiqlangan holat hisoblanadi hamda ushbu vaqt oralig'ida tergov harakatlari o'tkazish mumkin emas.<sup>20</sup>

Biroq, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kechiktirib bo'lmaydigan tergov

<sup>18</sup> Следы на месте происшествия. Справочник следователя / Под ред. В.Ф.Статкуса. - М.: ЭКЦ МВД России, 1991. – С 53. Дачаев З.Б., Гаджиев А.Т., Скокрович Д.Г. Осмотр места происшествия // Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире. – 2017. – №. 18-3. – С. 94-96.

<sup>19</sup> Осмотр трупа со следами насилия (криминалистическая тактика). Учеб. пособие. – Домодедово, 1999. – С. 102.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 88-moddasi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 269-modda.

harakati bo‘lganligi uchun ham jinoyat izlari yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida tungi vaqtida ham o‘tkazilishi mumkin.

**Ikkinchidan**, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish uchun ikkita asos talab etiladi: a) hodisa sodir bo‘lgan joyda aynan jinoyat sodir etilganligi; b) hodisa sodir bo‘lgan joyda jinoyat izlari borligi haqida ma’lumotlarning mavjud bo‘lishi. Mazkur holatlar Jinoyat-protsessual kodeksi 137-moddasining birinchi qismida ham belgilab qo‘yilgan.

D.Mirazov, Sh.Fayziyev va M.Cho‘tbayev-larning hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish asoslari bo‘yicha fikrlari jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan bir xil tarzda bayon etilgan bo‘lib, ular ham jinoyatning aynan shu joyda sodir etilganligi hamda jinoyat izlariga asosiy e’tiborni qaratishgan<sup>21</sup>. Shuningdek, D.Mirazov, N.M.Qo‘sheyev va Sh.F.Fayziyevlar jinoyat izlarining mavjud ekanligidan dalolat beruvchi ma’lumotlar jinoyat haqidagi ariza va xabarlarda, tushuntirish xatlarida, so‘roqda berilgan ko‘rsatuvlarda aks etishi mumkinligini ham qayd etishgan<sup>22</sup>.

Mazkur mualliflarning fikrlari bilan to‘liq kelishish mumkin. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish uchun, albatta, jinoyat haqida ariza, xabar va boshqa ma’lumotlar bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, hodisa sodir bo‘lgan joyda jinoyat sodir etilganligi yoki jinoyat izlari, ashyoviy dalillar mavjud ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar ham bo‘lishi lozim.

**Uchinchidan**, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish ishni sudga qadar yuritishning istalgan bosqichida (tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini tergov qilish) amalga oshirilishi mumkin. Xususan, mazkur tergov harakati jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ham, ish

<sup>21</sup> Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 184-bet. Jinoyat-protsessual huquqi [Matn]: darslik. - Toshkent: Complex Print, 2020. – 162-bet. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiyligini qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / Yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va Yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiyligini tahriri ostida – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 227-bet.

<sup>22</sup> Qo‘sheyev N.M.Fayziyev Sh.F., Jinoyat protsessida o‘tkaziladigan tergov haraktlari.O‘quv qo‘llanma yuridik fanlar nomzodi, dotsent Z.F.Inog‘omjonovaning tahriri ostida. – TDYU nashriyoti 2007.102-104-b.

qo‘zg‘atilishidan keyin ham amalga oshiriladigan tergov harakatiga kiradi.

Jinoyat-protsessual kodeksi 137-moddasining ikkinchi qismida hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ham amalga oshirilishi belgilangan.

Kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda ko‘zdan kechirish jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin hisoblanadi.

Kechiktirib bo‘lmaydigan holatlar deganda, dalillarni topish va mustahkamlash harakatlarning kechiktirilishi dalillarning yo‘qolishi, buzilishi, o‘zgarishi, shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar tushuniladi<sup>23</sup>.

D.Mirazov ham hodisa bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish jinoyat ishi qo‘zg‘atilguniga qadar o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan tergov harakatlari toifasiga kirishini qayd etib o‘tgan bo‘lsa<sup>24</sup>, M.Cho‘tbayev fikriga ko‘ra ham kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda hodisa sodir bo‘lgan joy jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ham ko‘zdan kechirilishi mumkin. Jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ko‘zdan kechirish faqatgina surishtiruvchi va tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, sud bunday ko‘zdan kechirishni amalga oshira olmaydi. Bu sudlar tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish faoliyati amalga oshirilmasligi bilan izohlanadi<sup>25</sup>.

Jinoyat-protsessual kodeksining 137-moddasida belgilangan norma talablaridan kelib chiqib, D.Mirazov va M.Cho‘tbayevning mazkur fikrlariga to‘liq qo‘shilish mumkin. Chunki jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni ko‘rib chiqish tartibini belgilovchi normalarda ham hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tergov harakati jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ham o‘tkazilishi belgilangan.

<sup>23</sup> Балакшин В.С., Григорьев А.И. Неотложные следственные действия: понятие и перспективы правового регулирования. – Российский юридический журнал. – 2017, № 6. – 99 с.

<sup>24</sup> Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 184-bet.

<sup>25</sup> Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiyligini qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / Yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va Yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiyligini tahriri ostida – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 228-bet.

Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasiga muvofiq tergovga qadar tekshiruv bosqichida jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ko'zdan kechirish turlaridan faqatgina hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish mumkin.

Mazkur normadan ko'rish mumkinki, jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin faqat hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish mumkin hisoblanadi. Amalda esa ko'zdan kechirishning boshqa turlaridan ham foydalanishadi. Qonunchilikda esa ushbu tartibga yo'l qo'yilmaydi.

Fikrimizcha, JPKning "Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibi" deb nomlanuvchi 329-moddasi ikkinchi qismidagi "**hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish**" jumlasini "**ko'zdan kechirish**" jumlasiga almashtirish maqsadga muvofiq.

**To'rtinchidan**, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish vaqtি dalillarni qayd etishda yordamchi usullardan foydalaniladi. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksi 91-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati videoyozuv orqali qayd etilishi shart hisoblanadi.

Boshqa toifadagi jinoyatlar bo'yicha ham ushbu tergov harakatini videoyozuv orqali qayd etish mumkin. Ushbu tergov harakatini videoyozuvga qayd etishda hech qanday cheklovlar belgilanmagan.

Ayrim mualliflar ham hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonini videoyozuvda qayd etish mumkinligini, o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan holatlarda ushbu talabning majburiyi ekanligini qayd etishgan<sup>26</sup>.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish videoyozuv orqali qayd etilsa yozib olish jarayoni

<sup>26</sup> Pulatov B. The procedure for using the results of operational investigative activities as evidence // ProAcademy. – 2018. – T. 1. – №. 3. – C. 1-5. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 184-bet. Muminov M., Jo'rboeva R. Tergov harakatlarini videokonferentsaloqa rejimida o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari//Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – T. 2. – №. 12 Special Issue. – C. 172-177.

to'liq bo'lishi kerak. Chunki qayd etilgan videoyozuv hodisa sodir bo'lganjoyni tekshirishda qo'shimcha imkoniyat yaratishi lozim. Xususan, videoyozuvda ko'zdan kechiriladigan obyekt joylashgan hududga kirish joyi, kirish qismi va joyning keyingi qismlarida mavjud bo'lgan narsalar, ulardagi izlar, tekshirilayotgan joydagи jihozlar, ularning joylashuvi, ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar va izlar maxsus texnik imkoniyatlar yordamida qayd etilishi zarur.

**Beshinchidan**, ushbu tergov harakatini bir vaqtning o'zida bir nechta surishtiruvchi yoki tergovchilar tomonidan amalga oshirish mumkinligi. Katta maydonlarni va binolarni ko'zdan kechirish bir necha surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin<sup>27</sup>.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati obyekti katta maydonlar va binolar bo'lgan hollarda ko'zdan kechirish bir necha surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan amalga oshirilishi hamda ularning har biri kamida ikki nafar xolis ishtirokida ko'zdan kechirishi lozim<sup>28</sup>. M.Cho'tbayevning mazkur fikrlari jinoyat-protsessual qonunchilik normalari talablaridan kelib chiqib bayon etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu sababli, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni amalga oshirayotgan har bir surishtiruvchi yoki tergovchining har birida kamida ikki nafar xolis bo'lishi hamda ko'zdan kechirish ularning ishtirokida amalga oshirilishi lozim. Jinoyat-protsessual kodeksining 352-moddasi bo'yicha ham ko'zdan kechirish, shu jumladan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kamida ikki nafar xolis ishtirokida amalga oshiriladi.

Agarda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni bir necha surishtiruvchi, tergovchi yoki tergovchi va u rahbarlik qilayotgan surishtiruvchilar bir paytning o'zida turli xonalarda yoki bir-biridan ancha uzoq joylarda o'tkazayotgan bo'lsalar, har bir tergovchi va

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 269-modda.

<sup>28</sup> Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / y.f.d., dots. G.Z.To'laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 228-bet.



surishtiruvchi huzurida doimo kamida ikki nafar xolis ishtirok etishi lozim<sup>29</sup>.

Bunday holatlarda hodisa joyi turli sektorlarga bo'lib chiqiladi hamda tegishli tartibda ko'zdan kechiriladi. Rasmiylashtirilgan barcha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomalari taqsimotdan kelib chiqqan holda ketma-ketlikda umumlashtiriladi.

**Oltinchidan**, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish natijasida aniqlangan narsalar, hujjatlar va izlarni olishning alohida tartibi belgilangan. Hodisa sodir bo'lgan joydan olingen narsalar, hujjatlar va izlar xolislar ishtirokida o'raladi va muhrlanadi. Shuningdek, hajmi katta bo'lgan narsalar olinmaydi va muhrlanmaydi, biroq, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi ushbu narsalarni saqlash choralarini ko'rishi lozim.

Ayrim mualliflar ham hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda aniqlangan va ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsani, hujjatlarni va izlarni olib, ularni o'rash va muhrlashni, olish

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 352-moddasi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 269-modda.

imkonи bo'lмаган кatta hajmdagi narsalarni saqlash choralar ko'riliшини та'kidlaydi<sup>30</sup>.

Ko'rib turganimizdek, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bir muncha murakkab xususiyatga ega, chunki bir vaqtning o'zida joyni ko'zdan kechirish bilan birga narsalar va izlarning joylashuvi va boshqa holatlarga qarab, ushbu joyda ko'zdan kechirish boshlangunga qadar bo'lib o'tgan voqealar qanday boshlanganligi, qay yo'sinda rivojlanganligi, hodisa yuz berganidan keyin qanday harakatlar sodir bo'lganligi haqida tasavvur qilib ko'rish, tusmollar tuzish va ularni xayolan tekshirish kerak. Shu bilan birga, ko'zdan kechirish jarayonida boshqa manbalarda olingen ma'lumotlar bilan hodisa sodir bo'lgan joydan olingen ma'lumotlarni taqqoslash ham talab etiladi. Ko'zdan kechirish jarayoni va natijalari

<sup>30</sup> Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / y.f.d., dots. G.Z.To'laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 228-bet. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M.A.Rajabova tahriri ostida (To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 185-bet.

mantiqiy izchillikda va tushunarli tarzda bayonnomada qayd etilishi kerak.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining alohida turi hisoblanadi.

2. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda olimlar o'rtaida turli qarashlar mavjudligidan kelib chiqib, hodisa joyiga nisbatan quyidagi mualliflik ta'rifi berildi:

Hodisa joyi – bu hudud, suv maydoni, yer maydoni, suv yuzasi, suv osti muhiti, yer osti tabiiy tuzilishi yoki sun'iy inshoot, uning ichida noqonuniy harakat (harakatsizlik) yoki uning zararli oqibatlari sodir bo'lgan yoxud tergov qilinayotgan hodisaga aloqador bo'lgan izlar mavjud bo'lgan joy.

3. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish deganda, ish bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyning holatini aniqlash, qayd etish va o'rghanish, hodisa joyida jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlarni aniqlashga qaratilgan ko'zdan kechirish tergov harakatining alohida turidir.

4. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi asoslantirildi:

a) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati ekanligi;

b) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish uchun aniq asoslarning talab etilishi;

d) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish ishni sudga qadar yuritishning istalgan bosqichida (tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini tergov qilish) amalga oshirilishi mumkinligi;

e) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish vaqtida dalillarni qayd etishda yordamchi usullardan foydalaniishi, videoyozuvdan qayd etilishi shart bo'lgan holatlarning mavjudligi;

f) ushbu tergov harakatini bir vaqtning o'zida bir nechta surishtiruvchi yoki tergovchilar tomonidan amalga oshirish mumkinligi;

g) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish natijasida aniqlangan narsalar, hujjatlar va izlarni olishning alohida tartibi belgilanganligi.

5. Tergovga qadar tekshiruv bosqichida dalillarni to'plash va qayd etish sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida Jinoyat-protsessual kodeksi 329-moddasining ikkinchi qismidagi "hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish" jumlasini "ko'zdan kechirish" jumlasiga almashtirish maqsadga muvofiq.

## ADABIYOTLAR

1. Abdullayev R.K. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning kriminalistik ta'minotini takomillashtish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2023. – 5-bet.

2. [http://www.kalinovsky-k.narod.ru/p/krat\\_kurs/11-1.htm](http://www.kalinovsky-k.narod.ru/p/krat_kurs/11-1.htm)

3. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish: O'quv-amaliy qo'llanma/General-mayor Sh.T.Ikramov umumiyl tahririda. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 79 b. Sharafutdinov A.O. Ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi: O'quv qo'llanma. Toshkent 2013. 19-bet. Baynazov J.Sh. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatining o'ziga xos xususiyatlari //Science promotion. – 2023. – t. 4. – №. 1. – S. 209-215.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 269-modda.

5. Рассейкин Д.П. Осмотр места происшествия и трупа при расследовании убийств. – Саратов, 1967. – С. 69. Тактика следственных действий. – Саратов, 2000. – С. 28. Водяницкий В.П. К вопросу о понятии места происшествия // Вопросы криминалистики и судебной экспертизы. – Саратов, 1976. – Вып. 1. – С. 47.

6. Дулов А.В., Нестеренко П.Д. Тактика следственных действий. – Минск, 1971. – С. 109.

7. А.Н. Васильев. Осмотр места происшествия. – М., 1960. – С. 7. Криминалистика. – М.,

1971. – С. 289. Хаметов Р.Б. О плюральном характере места происшествия // Вестн. Сарат. гос. академии права. 2000. № 3 (22). С. 32-33.
8. Белкин Р.С., Лифшиц Е.М. Тактика следственных действий. – М., 1997. – С. 52.
9. Иванов Л.А. Следственный осмотр при расследовании транспортных происшествий. – Саратов, 1993. – С. 7.
10. Колмаков В.П. Следственный осмотр. – Юридическая литература. – 1969. – С. 30.
11. Степанов В.В. О понятии места происшествия // Теория и практика криминалистики и судебной экспертизы. – Саратов, 2004. – Вып. 12.
12. Юридический энциклопедический словарь. – М., 1987. – С. 281.
13. Фролов В.В., Курбанов М.В. Актуальные проблемы осмотра места происшествия // Аллея науки. – 2018. – Т. 1. – №. 4. – С. 682-685.
14. Далинин А.В., Аристов С.В. Понятие осмотра места происшествия как разновидности следственного осмотра // Социология и право. – 2019. – № 4 (46). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-osmotra-mesta-proisshhestviya-kak-raznovidnosti-sledstvennogo-osmotra>. – Дата обращения: 12.03.2024.
15. Курбатова С.М., Шкодина Т.К. Производство “следственного осмотра”: некоторые процессуальные правоприменительные аспекты // Социально-экономический и гуманистический журнал Красноярского ГАУ. – 2021. №3 (21). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/proizvodstvo-sledstvennogo-osmotra-nekotorye-protsessualnye-pravoprimenitelnye-aspekyt>. – Дата обращения: 12.03.2024. Дацаев З.Б., Гаджиев А.Т., Скориков Д.Г. Осмотр места происшествия // Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире. – 2017. – № 18-3. – С. 94-96. Гульянц А.Г. Основные направления повышения эффективности осмотра места происшествия // Дисс. ... канд. юрид. наук. – М. – 2005. Чернышев М.А. Осмотр места происшествия как базовая тактическая операция // Дисс. ... канд. юрид. наук. – Курск. – 2008.
16. Белкин А.Р. Теория доказывания. – М., 1999. – С. 354. Духно Н.А. Осмотр места происшествия // Вестник Академии права и управления. – 2018. – № 1 (50). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/osmotr-mesta-proisshhestviya>. – Дата обращения: 12.03.2024. Бульбачева А.А. Актуальные проблемы осмотра места происшествия // Труды Академии управления МВД России. – 2015. – № 2 (34). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-osmotra-mesta-proisshhestviya>. – Дата обращения: 12.03.2024.
17. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / y.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 227-bet. Suyunov Sh., Odiljonov F. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tergov xarakatining jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularning aybini isbotlashdagi ahamiyati// Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – № 9. – С. 60-62.
18. Следы на месте происшествия. Справочник следователя / Под ред. В.Ф.Статкуса. – М.: ЭКЦ МВД России, 1991. – С 53.
19. Осмотр трупа со следами насилия (криминалистическая тактика). Учеб. пособие. – Домодедово, 1999. – С. 102.
20. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 88-moddasi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 269-modda.
21. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2021. – 184-bet. Jinoyat-protsessual huquqi [Matn]: darslik. - Toshkent: Complex Print, 2020. – 162-bet. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / y.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 227-bet.
22. Qo‘sheyev N.M.Fayziev Sh.F. Jinoyat protsessida o‘tkaziladigan tergov harakatlari. O‘quv

qo‘llanma yuridik fanlar nomzodi, dotsent Z.F.Inog‘omjonovaning tahriri ostida. – TDYU nashriyoti 2007.102-104 b

23. Балакшин В.С., Григорьев А.И. Неотложные следственные действия: понятие и перспективы правового регулирования. – Российский юридический журнал. – 2017, № 6. – 99 с.

24. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M.A.Rajabova tahriri ostida (To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 184-bet.

25. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiyligini qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiyligini tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 228-bet.

26. Pulatov B. The procedure for using the results of operational investigative activities as evidence // ProAcademy. – 2018. – T. 1. – №. 3. – C. 1-5. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 184-bet. Muminov M., Jo‘rboeva R. Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – T. 2. – №. 12 Special Issue. – S. 172-177.

27. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 269-modda.

28. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiyligini qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiyligini tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 228-bet.

29. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 352-moddasi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 269-modda.

30. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiyligini qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va y.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiyligini tahriri ostida – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 228-bet. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To‘ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 185-bet.

## ANNOTATSIYA

# JINOYAT ISHLARI BO'YICHA EKSPERT XULOSASINING TARKIBIY TUZILISHI TAHLILI

**ESHNAZAROV**  
*Murodqosim Xamzayevich,  
O'zbekiston Respublikasi Huquqni  
muhofaza qilish akademiyasi  
mustaqil izlanuvchisi*

Maqolada jinoyat ishlarini yuritishda ekspert xulosasining tarkibiy tuzilishiga oid masalalar, xususan jinoyat-protsessual qonunchilikimizda ekspert xulosasining tuzilishiga qo'yilgan talablar va ekspert xulosasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy va xorijiy olimlarning mazkur masalaga oid ilmiy qarashlari tanqidiy jihatdan tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik normalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ekspert xulosasi, ekspert xulosasining tuzilishi, ekspert, ekspertlar komissiyasi, ekspertiza.

## АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы вопросы, касающиеся структуры экспертного заключения при ведении уголовных дел, в частности требования к структуре экспертного заключения в уголовно-процессуальном законодательстве и особенности формирования экспертного заключения. Критически проанализированы научные взгляды отечественных и зарубежных ученых по данному вопросу, а также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию действующих правовых норм Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** экспертное заключение, структура экспертного заключения, эксперт, экспертная комиссия, экспертиза.

## ANNOTATION

The article analyzes issues related to the structure of the expert report in criminal cases, in particular, the requirements for the structure of the expert report in criminal procedure legislation and the peculiarities of the formation of an expert report. In addition, the scientific views of domestic and foreign scientists on this issue were critically analyzed, and proposals and recommendations were developed to improve the current legal norms of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** expert report, structure of the expert report, expert, commission of experts, forensic science.

Ekspertiza xulosasi jinoyat ishlarini hal qilishda muhim protsessual hujjat bo'lib, bunda ekspertiza tadqiqoti natijasida ekspertning tegishli sohalardagi maxsus bilimidan foydalangan holda, ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda yoki ajrimda ish bo'yicha ekspert oldiga qo'yilgan savollarga uning bergen javobi aks etgan protsessual hujjat hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonunchilik bo'yicha ekspert xulosasi dalil manbayi bo'lib, rasmiy hujjat sifatida jinoyat ishini mazmunan hal etishga qaratilgan protsessual qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

A.N.Petruxina protsessual hujjat sifatida ekspert xulosasining to'g'ri rasmiylashtirilishi uning obyektivligi va ishonchligining kafolati bo'lib, uni rasmiylashtirish va ijro etish qoidalarini buzish ekspertiza natijalarini shubha ostiga qo'yishini qayd etgan bo'lsa<sup>1</sup>, V.A.Prituzova esa ushbu hujjatni to'g'ri rasmiylashtirishni ekspert tadqiqoti natijalarini baholash imkoniyati bilan bog'lab, ekspert xulosasining daliliy qiymatini belgilab berishini ta'kidlagan<sup>2</sup>.

Mazkur fikrlar bilan kelishgan holda aytish mumkinki, fikrimizcha, har qanday protsessual hujjatning to'g'ri rasmiylashtirilishi uning yuridik kuchini belgilab beradi hamda unga qo'yilgan dastlabki talablardan biri sifatida ish bo'yicha qonuniy va asosli qaror qabul qilishga xizmat qiladi.

Ekspertiza xulosasi sud ekspertizasini o'tkazishning oxirgi bosqichi hisoblanadi. T.V.Averyanova qayd etganidek, ish bo'yicha ekspert oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha yakuniy xulosa chiqarish maqsadida ekspertlarning ashyoviy dalillarni to'plash, har bir ish holati yuzasidan shaxsiy xulosa chiqarishga qaratilgan kompleks usullardan foydalanishida

<sup>1</sup> Петрухина А.Н. Заключение эксперта и его оценка в уголовном процессе. 12.00.09 – уголовный процесс. Автографат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 2012. – С. 60.

<sup>2</sup> Притузова В.А. Заключение эксперта как доказательство в советском уголовном процессе. – М.: Госиздат, 1959. – С. 69.

namoyon bo'ladigan hamda bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan hujjat<sup>3</sup>.

Ko'rib turganimizdek, mazkur fikrda ekspert xulosasi umumiy ma'noda bayon etilgan bo'lib, aynan ekspert xulosasining qanday qismlardan iborat ekanligi, unga qo'yilgan talablar bayon etilmagan. Shuningdek, ekspertiza natijasida biz ashyoviy dalillardan tashqari, yozma va elektron dalillarni ham tekshirishimiz mumkin. Bu holat ham yuqoridagi fikrda bayon etilmagan.

I.I. Goryanov to'g'ri qayd etganidek, ekspert xulosasining boshqa turdag'i dalillardan ajralib turuvchi jihatish bo'yicha faoliyat yuritayotgan shaxs oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha chiqarilgan asosli xulosalar ekspert tomonidan tuzilishi va mustahkamlanishi hisoblanadi<sup>4</sup>.

Biz ham mazkur fikr bilan kelishgan holda shuni aytishimiz mumkinki, ekspert xulosasining dalil manbayi va rasmiy protsessual hujjat sifatidagi maqomi uning tegishli tarkibiy qismlardan iborat bo'lishini hamda uni rasmiylashtirishga bo'lgan talablarni belgilashni taqozo etadi. Chunki jinoyat ishi doirasida tayinlangan sud ekspertizasi tekshiruv natijasida ekspert tomonidan tadqiqot o'tkazib bo'linganidan so'ng xulosa tuziladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlarida ekspert xulosasi va unda aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida" 2010-yil 1-iyundagi O'RQ-249-son Qonunining 23-moddasida sud ekspertining xulosasiga qo'yilgan talablar belgilangan. Xususan, ekspertiza xulosasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) sud ekspertizasi o'tkazilgan vaqt va joy;
- 2) tayinlangan sud ekspertizasini o'tkazish asosi;
- 3) tegishli ekspertizani tayinlangan organ va mansabdar shaxs haqidagi ma'lumotlar;
- 4) sud eksperti hamda sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar. Bunda sud ekspertining familiyasi, ismi, otasin-

<sup>3</sup> Аверьянова Т.В. Интеграция и дифференциация научных знаний как источники и основы новых методов судебной экспертизы. – М.: Академия МВД России, 1994. – С. 16.

<sup>4</sup> Горянов И.И. Судебная экспертиза в современном уголовном судопроизводстве: правовое регулирование и правоприменительная практика: Автографат дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: РГБ, 2006. – С. 15.

ing ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, agarda mavjud bo'lsa ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, uning egallab turgan lavozimi;

5) bila turib noto'g'ri xulosa bergenligi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun sud eksperti jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi;

6) sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar;

7) sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari;

8) sud ekspertizasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar;

9) qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va natijalari, shuningdek, bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi;

10) tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;

11) ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar ko'rsatilishi lozim<sup>5</sup>.

Ekspertiza xulosasida ko'rsatiladigan mazkur ma'lumotlar Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasida ham belgilab qo'yilgan. Shuningdek, ushbu moddada ekspert yoki ekspertlar komissiyasi ekspert tekshiruvlarini o'tkazib bo'lganidan keyin ekspert yoki ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzilishi ham qayd etilgan<sup>6</sup>.

Ko'rib turganimizdek, amaldagi qonunchilik hujjatlarda ekspert xulosasiga qo'yilgan talablar hamda unda ko'rsatiladigan ma'lumotlar belgilangan bo'lsa-da, ekspert xulosasining aynan qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligi belgilab qo'yilmagan. Soha mualliflari ham ekspert xulosasining tarkibiy qismlari bo'yicha turli xil fikrlarni ilgari surishadi.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida" 2010-yil 1-iyundagi O'RQ-249-son Qonunining 23-moddasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 22-son, 173-modda.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son;

Xususan, A. X. G'ofurjonov ekspert xulosasining ish bo'yicha dalil turlaridan biri hisoblanishi hamda xulosaning kirish, tadqiqot va yakuniy qismlardan iborat ekanligini qayd etgan<sup>7</sup>. Mazkur muallifning ekspert xulosasining ish bo'yicha dalil turlaridan biri sifatidagi fikrlari bilan to'liq kelishish mumkin. Chunki ekspert xulosasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga muvofiq to'g'ridan to'g'ri dalil manbayi hisoblanadi. Biroq, A. X. G'ofurjonovning ekspert xulosasining 3 qismdan iborat ekanligi haqidagi fikrlari bilan to'liq kelishib bo'lmaydi. Chunki ayrim jinoyat ishlari bo'yicha ekspert xulosasi fotojadvallardan iborat bo'lgan ko'rgazma materiallarni ham o'z ichiga oladi.

V.A.Prituzova va A.R.Shlyaxov kabi mualliflar ham tizimli ravishda ekspert xulosasini uch, ya'ni kirish, tadqiqot qismi va xulosa qismiga ajratish bilan bir qatorda, ko'p obyektlari sud-tibbiy, traseologik va ballistik ekspertizalarni o'tkazishda tadqiqot qismida maxsus bo'limlarni ("ashyoviy dalillar va qiyosiy materiallarni tekshirish", "tahlil va qiyosiy tadqiqot", "tadqiqot natijalarini baholash") ajratib ko'rsatish mumkinligini alohida ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

Mazkur mualliflarning fikrlari bilan to'liq kelishib bo'lmaydi, chunki ashayoviy dalillar va qiyosiy materiallarni tekshirish hamda tahlil va qiyosiy tadqiqot o'tkazish qismlari xulosaning tadqiqot qismining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ularni ekspert xulosasining alohida qismi sifatida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq emas.

Y.K.Orlov ham ekspert xulosasi uch qismdan – kirish, tadqiqot va xulosalardan iborat ekanligini, ba'zida esa, to'rtinchchi qism ekspert xulosasini sintez qilish ham mavjud ekanligini qayd etadi<sup>9</sup>. E.R. Rossiyskaya ham Y.K.Orlovnning fikrlariga o'xshash g'oyani ilgari surib, ekspert xulosasi

<sup>7</sup> G'ofurjonov A. X. Ekspert xulosasini baholash va undan foydalanan masalalari. "O'zbekiston sud-ekspertizasi ilmiy jurnali. 2022 №2 (5). 81-bet.

<sup>8</sup> Шляхов А.Р. Теория и практика криминалистической экспертизы. Сборник 9-10. М.: Госюризат, 1962. – С. 426. Притузова В.А. Заключение эксперта как доказательство в советском уголовном процессе. М.: Госюризат, 1959. – С. 70.

<sup>9</sup> Орлов Ю.К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. – М.: Институт повышения квалификации Российской федерального центра судебной экспертизы. – 2005. – С. 123.

ning tarkibiy qismlari kirish, tadqiqot qismlari va xulosa qismlardan iborat ekanligini, agar ekspertiza murakkab bo'lsa yoki uning davomida murakkab tadqiqotlar o'tkazilsa tadqiqot qismi sintez deb ataladigan qism bilan tugashini, ushbu qismda ekspertlar o'tkazilgan tadqiqot natijasida xulosa chiqarishlarini, berilgan savolga umumiy javobni shakllantirish uchun alohida olingan ma'lumotlarni umumlashtirishlarini ta'kidlaydi<sup>10</sup>.

Bir guruh mualliflar ekspertiza natijalari va ekspertning taqdim etilgan obyektlar bilan o'tkazgan tadqiqotlari ekspert xulosasi shaklida rasmiylashtirilishini hamda ekspert xulosasining quyidagi qismlardan iborat ekanligini qayd etishadi:

- ekspertiza xulosalarining kirish qismi;
- ekspertiza xulosalarining tadqiqot qismi;
- ekspertning yakuniy xulosalari;
- ko'rgazma materiallar (fotojadvallar)<sup>11</sup>.

Mazkur mualliflar tomonidan ekspert xulosasining tarkibiy qismlari bo'yicha bildirilgan fikrlar nisbatan tugal bo'lib, ekspert xulosasi kirish, tadqiqot va xulosa qismlardan tashqari fotojadvallardan iborat bo'lgan materiallar qismini ham o'z ichiga oladi. Biroq ushbu mualliflarning ekspertiza natijalarining ekspert xulosasi shaklida rasmiylashtirilishi bo'yicha fikrlari bilan to'liq kelishib bo'lmaydi. Chunki ekspert har doim ham tayinlangan ekspertiza natijasi bo'yicha xulosa bermasligi mumkin. Xususan, ekspert ayrim holatlarda (qo'yilgan savollarni maxsus bilimlar asosida hal qilish mumkin bo'lmasa, ekspert unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoki materiallarning ekspertiza tadqiqoti uchun yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga ishonch hosil qilsa) ekspertiza tadqiqotlari natijasi bo'yicha "xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslatirilgan hujjat" tuzadi. Bu esa, tayinlangan barcha ekspertiza bo'yicha xulosa tuzishni istisno etadi.

I.R. Astanov to'g'ri qayd etganidek, ekspert-

10 Россинская Е.Р. Судебная экспертиза в гражданском, арбитражном, административном и уголовном процессе. – М.: Норма, 2005. – С. 232.

11 Mualliflar jamoasi. Sud-ekspertizasi xulosasining xolisligi, ilmiy asoslanganligi va qonuniyligini baholash bo'yicha misollarni kiritgan holda turli sohalardagi sud ekspertizalari xulosalari aks etgan elektron o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertizasi markazi. – Т.: – 20-bet.

ning tadqiqoti uchun lozim bo'lgan holatlarni aniqlashtirishga oid ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilmasligi ekspertiza xulosasini berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, ekspertiza tadqiqotining to'xtatilishiga, ayrim holatlarda hatto xulosa berishning imkoniyatini cheklab qo'yishga olib keladi<sup>12</sup>. Shunga o'xhash fikrlarni A.X. G'ofurjonov ham ilgari surgan bo'lib, ekspert oldiga qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasa, xulosa berishning imkoniyati yo'qligi to'g'risida asoslatirilgan hujjat tuzish lozimligini qayd etadi.<sup>13</sup>

Mazkur mualliflarning fikrlari bilan kelishgan holda aytish mumkinki, ish bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni to'liq va har tomonlama tekshirish va sifatli ekspertiza xulosasini olish uchun ekspertga tadqiqot obyektlarini o'z vaqtida yetkazib berish talab etiladi.

Ekspert xulosasining tarkibiy qismlarini tahsil etadigan bo'lsak, xulosaning kirish qismida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1) ekspertiza o'tkazilgan joy va vaqt (ekspertizaning qachon va qayerda o'tkazilganligi). Bu ekspertiza muddatini belgilashda, ayrim holatlarda ish qaysi hududda yuritilayotganligini aniqlashga yordam beradi;

2) ekspertiza o'tkazish uchun asoslar. Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasida ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart bo'lgan holat belgilangan bo'lib, ekspert xulosasida aynan qaysi asosga ko'ra ekspertiza o'tkazilganligi ko'rsatiladi;

3) ekspertiza tergov harakati o'tkazishni tayinlagan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar. Bunda mansabdar shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi va unvoni haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi;

4) ekspertiza o'tkazish topshirilgan ekspertiza muassasasining nomi, ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning mutaxassisligi, ta'lim darajasi, ish staji, ilmiy darajasi, lavozimi ko'rsatiladi;

<sup>12</sup> Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning zamonaviy shakllari. "O'zbekiston sud-ekspertizasi ilmiy jurnali. 2021 №1 (2). 6-bet.

<sup>13</sup> G'ofurjonov A. X. Ekspert xulosasini baholash va undan foydalanish masalalari. "O'zbekiston sud-ekspertizasi ilmiy jurnali. 2022. – № 2 (5). 85-86-bet.

5) ekspertning jinoiy javobgarlik haqida (bila turib yolg'on xulosa berishi, xulosa berishni rad etishi yoki xulosa berishdan bo'yin tovashi hamda surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilishi) ogohlantirilganligi;

6) ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida ekspert oldiga qo'yilgan savollar. Ya'ni tayinlangan har bir ekspertiza bo'yicha ekspert oldiga hal etishi lozim bo'lgan savollar qo'yildi.

7) ekspertiza tadqiqoti uchun taqdim etilgan obyektlar va materiallar. Ekspertizaga yuborilayotgan ashyoviy (yozma, raqamli) dalillar va boshqa obyektlar yoki ekspertning xulosasini asoslash uchun lozim bo'lgan ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin. Mazkur obyektlar va materiallar ham xulosaning kirish qismida ko'rsatiladi.

8) ekspertiza o'tkazishda ishtirok etayotgan shaxslar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh va boshqa shaxslar) haqidagi ma'lumot. Jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi ekspertiza o'tkazilayotganda ishtirok etish huquqiga ega hisoblanadi<sup>14</sup>.

Ekspert xulosasining kirish qismida ko'rsatiladigan mazkur holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlarida ham mavjud bo'lib, faqat ularda xulosada beriladigan ma'lumotlarning aynan xulosaning qaysi qismida ko'rsatilishi belgilanmaganligini qayd etish joiz. Mazkur ko'rsatib o'tilgan holatlar ekspert xulosasining kirish qismida ko'rsatiladi.

Ayrim mualliflar ekspert xulosasining kirish qismida tergovchi tomonidan berilgan qaysi savollar ekspert maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqqanligi holati ham ko'rsatilishini qayd etishadi<sup>15</sup>.

Fikrimizcha ham, ekspert qo'yilgan ayrim savollarga javob bergen holda, ba'zi savollarga javob bera olmasligi (maxsus bilimi yetishmasligi, taqdim etilgan obyektlarning tekshirish uchun

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 179-moddasi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son;

<sup>15</sup> Бычков В.В. Назначение судебной экспертизы как право дознователя и следователя. // Российский следователь. – 2014. – № 5. – С. 4; Комиссарова Я.В. Концептуальные основы профессиональной деятельности эксперта в уголовном судопроизводстве: автореф. дис. ... докт. юрид. наук. – М., 2013. – С. 215.

yaroqsizligi yoki xulosa berishga yetarli emasligi) mumkin. Bunday holatlarda ham tegishli ekspertiza xulosasi tuziladi. Shunday holatlarda ekspertga qo'yilgan qaysi savollar ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chetga chiqqan bo'lsa, ushbu savollar xulosaning kirish qismida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ekspertiza birlamchi ekspertiza xulosasini tekshirish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tayinlangan bo'lsa, birlamchi ekspertizani kim va qaysi savollar bo'yicha o'tkazganligi, agarida birlamchi ekspertiza xulosasida xatoliklar mavjud bo'lsa, ushbu xatoliklar nimadan iborat ekanligi ham ekspert xulosasining kirish qismida ko'rsatilishi lozim.

Mazkur holatlarning ekspert xulosasida ko'rsatilishi amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilmagan. Shunga ko'ra, Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasi hamda "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning 23-moddasiga ekspertiza xulosasida ko'rsatiladigan ma'lumotlar sifatida quyidagi holatlarni ham kiritish maqsadga muvofiq:

– ekspertga qo'yilgan savollar bo'yicha ekspertning maxsus bilimlari barcha savollarga javob berish uchun yetarli bo'lmasa, qaysi savollar ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chetga chiqqanligi;

– ish bo'yicha birlamchi ekspertiza o'tkazilgan holatlarda, birlamchi ekspertizani kim va qaysi savollar bo'yicha o'tkazganligi ekspert xulosasining kirish qismida ko'rsatilishi lozim.

Ekspert xulosasining ikkinchi tarkibiy qismi xulosaning tadqiqot qismi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda ekspert xulosasining tadqiqot qismida ko'rsatiladigan holatlar alohida belgilab qo'yilmagan.

Ayrim mualliflar ekspert xulosasining tadqiqot qismida ko'rsatiladigan ma'lumotlarning tayinlangan ekspertiza turiga bog'liq ekanligini qayd etib, tadqiqot jarayonida aniqlanadigan barcha holatlar, qiyosiy tadqiqot uslublari hamda ulardan olingan natijalar bayon qilinishini ta'kidlashadi<sup>16</sup>. I.B.Burkov va A.N.Petruxina kabi mualliflar esa ekspert xulosasining asosiy qismini uning tadqiqot qismi tashkil etishini, unda ekspert tekshiruvi jarayoni va uning asosida

<sup>16</sup> Kriminalistika. Mualliflar jamoasi. Darslik. T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. 111-bet.

olingen natijalar, qo'llaniladigan tadqiqot usullari va ularning tavsifi, tadqiqot davomidagi tadqiqot harakatlarining tartibi, ilmiy-texnik vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar aks etishi lozimligini qayd etishgan<sup>17</sup>.

Fikrimizcha ham, ekspert xulosasining tadqiqot qismida tekshiruv natijalari va mohiyati, tadqiqot olib borishda qo'llangan usullar ko'rsatiladi. Bunda tadqiqot olib borish jarayoni va har bir harakat natijasida aniqlangan holatlar tergovga qadar tekshiruvni amalgaga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya tomonidan ortiqcha savollarni yuzaga keltirmasligi uchun to'liq va tushunarli tarzda bayon etilishi lozim. Xulosaning mazkur qismida ekspert tomonidan tadqiqot obyektni ko'zdan kechirish jarayoni, ya'ni ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, olingen namunalar, tadqiqot olib borishda qo'llanilgan usullar va texnik vositalar bayon etiladi.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasi hamda "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning 23-moddasida ham ekspertizaning qaysi tadqiqot usullari asosida o'tkazilganligi, ya'ni ekspertiza o'tkazishda qo'llanilgan usullar, tekshirishlarning mazmuni va natijalari xulosada ko'rsatilishi nazarda tutilgan. Demak, mazkur ma'lumotlar xulosaning tadqiqot qismida ko'rsatiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadqiqot olib borishda har bir ekspertiza usuli va texnik vositalarni qo'llash talab qilingan holatlar va vaziyatlarga alohida e'tibor berish, ularni qo'llash tartibi va shartlariga rioya qilish lozim. Chunki ular ekspertiza natijasida xulosa chiqarish va bu xulosani baholashga bevosita ta'sir qiladi.

Xulosaning tadqiqot qismida ashyoviy dalillar bilan amalgaga oshirilgan barcha harakatlar, ularni namuna sifatida olish, saqlash, ular miqdori to'liq bayon qilinishi lozim. Mazkur tahhlili va qiyosiy tadqiqotni o'tkazib, ekspert vaziyatga ilmiy baho beradi. Ekspert nafaqat olingen natijalarni izohlab borishi, balki ularga ilmiy tushuntirish

17 Бурков И.В., Мурзиков А.В. Заключение эксперта как вид доказательств. – Владимир: «Транзит-Икс», 2001. – С. 46. Петрухина А.Н. Заключение эксперта и его оценка в уголовном процессе. 12.00.09 – уголовный процесс. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – М., 2012. С.73.

berishi o'z harakatlari izchilligining aynan shu tartibini tanlaganining sababini bayon etishi, o'z xulosasini asoslab berishi zarur<sup>18</sup>.

Shuningdek, ekspert xulosasining tadqiqot qismida olib borilgan tadqiqot mazmunining bayoni aks etishini ta'minlash lozim. Bunday holatda ekspert unga topshirilgan obyektlarni tekshirgani, ushbu obyektlarning ishonchlilagini, qaysi ilmiy qoidalar asosida tadqiqot o'tkazilgani, fanning zamonaviy imkoniyatlarini o'zida aks ettirgan usullar qo'llanilganini hamda ular olingen xulosalarning ishonchlilagini ta'minlagani, oraliq va yakuniy ekspert xulosalarining ishonchlilagini, ularning mantiqan tadqiqotning borishi va natijalaridan kelib chiqishini aniqlashi lozim bo'lgan sud tomonidan tadqiqot mazmunining bayoni ijobji baholanishiga olib kelishi mumkin<sup>19</sup>.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda ekspertiza alohida xususiyatlarga ega bo'lgan obyektlarni (barmoq izlari, qon izlari, ovozning, soch tolasi, so'lak va boshqalarning) kimga tegishli ekanligini aniqlash maqsadida ham o'tkazilishi mumkin. Bunday holatlarda ushbu obyektlarning aynan kimga tegishli ekanligi ham xulosaning tadqiqot qismida ko'rsatilishi lozim. V.M.Lebedeva ham ushbu masalaga to'xtalib, agarda olib borilayotgan tekshiruv individual obyektlarni tadqiq qilish bilan bog'liq, ya'ni ovoz, barmoq, qon izlari va boshqa ashyolarning kimga tegishli ekanligini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, bular ham ekspert xulosasining tadqiqot qismida to'liq aks etishi lozimligini qayd etган<sup>20</sup>.

Agarda ekspertiza o'tkazish jarayoni borishi yoki undagi eng muhim harakatlar kompyuter vositalari orqali yoki boshqa texnik vositalardan foydalanib amalgaga oshirilgan bo'lsa, unda xulosaga mazkur ma'lumotlar va ularni saqlovchi vositalar ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, dastlabki ekspertiza xulosasi

<sup>18</sup> Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanan protsessual va kriminalistik jihatlari. dokt. diss. – Toshkent. 2018 yil. 84 b.

<sup>19</sup> Педенчук А.К. Проблемы обеспечения достоверности заключения судебного эксперта. – М.: Юрид. лит. – 1992. – С. 56; Корухов Ю., Орлов Ю., Эджубов Л. Оценка достоверности заключения эксперта // Социалистическая законность. – Москва, 1991. – № 2. – С. 45-47.

<sup>20</sup> Лебедева В.М. Научно-практический комментарий к Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации – М.: Торг. корп. «Дашков и К», 2003. – С. 409.

asoslantirilmasa, uning to'g'rilingiga shubha tug'ilsa, xulosaga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilsa yoki ekspertizani o'tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertizasi tayinlanadi<sup>21</sup>.

Ish holatidan kelib chiqib, ish bo'yicha qayta ekspertiza o'tkazilayotgan bo'lsa, xulosaning tadqiqot qismida oldingi tekshiruv va hozirgi tadqiqotda qo'llanilgan qaysi tekshiruv usullari va natijalari farq qilishi ko'rsatilib, qayta ekspertizani o'tkazgan ekspert oldingi ekspertning xatosi nimadan iborat ekanligini, uning yuzaga kelishi sabablarini hamda o'zining harakatlarini nega to'g'ri deb baholashi asos va sababini ko'rsatib borishi lozim.

Xulosaning uchinchi qismida ekspert oldiga qo'yilgan savollarga tadqiqot natijasida olgan javobi bayon etiladi. Bu holat ekspert xulosasiga qo'yilgan talablarda (Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasi va "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning 23-moddasi) ham aks etgan.

Ayrim mualliflar to'g'ri qayd etganidek, ekspert xulosasining yakuniy qismida ekspertning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasidan kelib chiqqan va uning oldiga qo'yilgan savollarga ilmiy asoslangan javoblari aks etadi<sup>22</sup>. Mazkur mualliflarning fikrlari bilan kelishgan holda aytish mumkinki, ekspert xulosasining yakunlovchi xulosa qismida qaror yoki ajrimda ekspert oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha uning javoblari aks etadi.

Shuningdek, tadqiqotda aniqlangan natijalarini to'liq aks ettirish talab qilinsa, ekspert o'zining tashabbusiga ko'ra aniqlagan holatlarni, ya'ni ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida" 2010-yil 1-iyundagi O'RQ-249-son Qonunining 18-moddasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 22-son, 173-modda.

<sup>22</sup> Орлов Ю.К. Заключение эксперта как источник выводного знания в судебном доказывании (уголовно-процессуальные, криминалистические и логико-гносеологические проблемы): автореф. дисс. ... д-ра юрид. наук. М., 1985. – С. 3. Зайцев Р.В. Криминалистические экспертизы как средство получения и проверки доказательств по уголовным делам: автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2008. – С. 23. Петрухина А.Н. Заключение эксперта и его оценка в уголовном процессе. 12.00.09 – уголовный процесс. – Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – М., 2012. – С. 82.

ajrimda ekspert oldiga qo'yilmagan savollarga ham maxsus bilimlari doirasidan kelib chiqib, javob bergan taqdirda ularni ham ekspert xulosasining yakunlovchi xulosa qismida bayon etishi lozim. Mazkur harakat ekspert tashabbusida namoyon bo'lib, bu tashabbus – jinoyat-protsessual kategoriya bo'lib, unga asosan ekspert o'zi aniqlagan ma'lumotlarni to'liq ifodalab berish maqsadida tergovchi tomonidan berilgan savollar doirasidan chiqishga, ya'ni mazkur savollardan tashqari bo'lgan va ish uchun ahamiyatli holatlarni kiritishga haqli<sup>23</sup>.

Ekspert tomonidan berilgan javoblar mazmun jihatidan qo'yilgan savollarga mos kelishi talab qilinadi. Berilgan javoblar aniq va tushunarli bayon qilingan bo'lishi, ularni turli xil sharhlash imkonini bermasligi yoki shubhali mazmunda bo'lmasligi zarur.

Ekspert xulosasining to'rtinchı qismi turli ko'rgazmali materiallar (fotojadvallar)dan iborat bo'ladi. Amaldagi qonunchilikimiz bo'yicha ham ekspert xulosasi va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar xulosaning tarkibiy qismi ekanligi belgilangan. Ayrim mualliflar ekspert xulosasiga tegishli ko'rgazmali-tasviriy materiallar ilova qilinishini qayd etib, ular ham ekspert xulosasining tarkibiy qismi sifatida alohida-alohida tekshirilishini, bir xil nomdag'i belgililar taqqoslangandan keyin mavjud mos kelishlar va farqlanishlar ajratilishi hamda jamlangan holda baholanishini ta'kidlashgan<sup>24</sup>.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilik bo'yicha ekspert xulosasida huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlar, shuningdek, ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilishi mumkin<sup>25</sup>. Mazkur holatlarning ekspertiza xulosasida ko'rsatilishi jinoyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Yuqorida tahlil natijalaridan kelib chiqib, jinoyat ishlari bo'yicha ekspert xulosasining

<sup>23</sup> Мельник С.Л. Актуальные вопросы экспертизной инициативы: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Челябинск, 2005. – С. 13.

<sup>24</sup> Kriminalistika. Mualliflar jamoasi. Darslik. T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. 185-bet.

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida" 2010-yil 1-iyundagi O'RQ-249-son Qonunining 23-moddasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 22-son, 173-modda.

tarkibiy tuzilishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Amaldagi qonunchilik hujjatlarida ekspertriza xulosasiga qo‘yilgan umumiylablar belgilangan bo‘lsa-da, ekspert xulosasining aynan qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligi belgilanmagan. Amaldagi qonunchilik hujjatlaridagi umumiylar qoidalar hamda sud ekspertizasi faoliyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlardan kelib chiqib, ekspert xulosasi quyidagi qismlardan iborat:

- ekspertiza xulosasining kirish qismi;
- ekspertiza xulosasining tadqiqot qismi;
- ekspertning yakuniy xulosalar;
- ko‘rgazma materiallar (fotojadvallar).

2. Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasisi hamda “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunning 23-moddasiga ekspertiza xulosasida ko‘rsatiladigan ma’lumotlar sifatida quyidagi holatlarni ham kiritish maqsadga muvofiq:

– ekspertga qo‘yilgan savollar bo‘yicha ekspertning maxsus bilimlari barcha savollarga javob berish uchun yetarli bo‘lmasa, qaysi savollar ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chetga chiqqanligi;

- ish bo‘yicha birlamchi ekspertiza o‘tkazilgan

holatlarda, birlamchi ekspertizani kim va qaysi savollar bo‘yicha o‘tkazganligi.

3. Ekspert xulosasiga oid amaldagi qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish va ekspert xulosasining tadqiqot qismida ko‘rsatiladigan ma’lumotlarning ishonchlilagini ta’minlash maqsadida ekspert xulosasida ko‘rsatiladigan ma’lumotlar sifatida “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunning 23-moddasini quyidagi mazmundagi yangi qismlar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“Olib borilayotgan tekshiruv individual obyektlarni tadqiq qilish bilan bog‘liq, barmoq izlarining, qon izlarining, ovozning, soch tolasi, so‘lak va boshqa ashyolarning kimga tegishli ekanligini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, bunday obyektlarning aynan kimga tegishli ekanligi ekspert xulosasining tadqiqot qismida to‘liq aks etishi lozim.

Ish bo‘yicha qayta ekspertiza tayinlangan holatda, oldingi tekshiruv va hozirgi tadqiqotda qo‘llanilgan qaysi tekshiruv usullari va natijalari farq qilishi, qayta ekspertizani o‘tkazgan ekspert oldingi ekspertning xatosi nimadan iborat ekanligini, uning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan holatlarni hamda o‘zining harakatlarini nima sababdan to‘g‘ri deb baholashi sababini ko‘rsatib borishi lozim”.



**ADABIYOTLAR**

1. Петрухина А.Н. Заключение эксперта и его оценка в уголовном процессе. 12.00.09 – уголовный процесс. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. юрид. наук. – Москва, 2012. – С. 60.
2. Притузова В.А. Заключение эксперта как доказательство в советском уголовном процессе. – М.: Госюризdat, 1959. – С. 69.
3. Аверьянова Т.В. Интеграция и дифференциация научных знаний как источники и основы новых методов судебной экспертизы. – М.: Академия МВД России, 1994. – С. 16.
4. Горянов И.И. Судебная экспертиза в современном уголовном судопроизводстве: правовое регулирование и правоприменительная практика: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: РГБ, 2006. – С. 15.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida” 2010-yil 1-iyundagi O‘RQ-249-son Qonunining 23-moddasi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 22-son, 173-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son;
7. G‘ofurjonov A. X. Ekspert xulosasini baholash va undan foydalanish masalalari. “O‘zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnal. 2022 №2 (5). 81-bet.
8. Шляхов А.Р. Теория и практика криминалистической экспертизы. Сборник 9-10. – М.: Госюризdat, 1962. – С. 426.
9. Притузова В.А. Заключение эксперта как доказательство в советском уголовном процессе. – М.: Госюризdat, 1959. – С. 70.
10. Орлов Ю.К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. – М.: Институт повышения квалификации Российской федерального центра судебной экспертизы, 2005. – С. 123.

**АННОТАЦИЯ**

# ПРЕДМЕТ, ОБЪЕКТЫ И ЗАДАЧИ ПОЧЕРКОВЕДЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

**ИЛЬЯСОВА**

*Назира Каҳрамановна,  
главный эксперт,*

*Республиканский Центр судебной  
экспертизы имени Х.Сулаймановой  
при Министерстве юстиции  
Республики Узбекистан*

Судебное почерковедение изучает закономерности формирования, устойчивости и изменения почерка, что не является беспредельным и во всяком случае носит явно выраженный служебный характер и подчинено определенной цели. В криминалистике исследование почерка подчинено выяснению возможностей идентификации по почерку пишущего, определению условий письма и состояния пишущего, принадлежности рукописи лицам мужского либо женского пола и другим задачам, возникающим в следственно-судебной практике.

**Ключевые слова:** рукописные заметки, цифровые знаки, рукописи, подпись, текст, краткая заметка.

**ANNOTATSIYA**

Sud xatshunoslik ekspertizasi qo'lyozmaning shakllanish, barqarorlik va o'zgarishlar qonuniyatlarini o'rganadi, u cheksiz bo'lmanan va har qanday holatda ham aniq ifodalangan xizmat xarakteriga ega bo'lib, muayyan maqsadga bo'ysundiriladi. Sud xatshunoslik ekspertizasida qo'lyozmani o'rganish qo'lyozma bo'yicha yozuvchini aniqlash imkoniyatlarini aniqlashtirish, yozuv shartlari va yozuvchining holatini, qo'lyozma erkak yoki ayol shaxsga tegishli ekanligini aniqlashga va qo'lyozmalarda yuzaga keladigan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

**Kalit so'zlar:** qo'lyozma yozuvlar, raqamli belgilar, qo'lyozmalar, imzo, matn, qisqacha eslatma.

**ANNOTATION**

Forensic handwriting studies the patterns of formation, stability and changes in handwriting, which is not unlimited and in any case has a clearly expressed service character and is subordinated to a specific purpose. In forensic science, the study of handwriting is subordinated to clarifying the possibilities of identifying the writer by the handwriting, determining the conditions of writing and the state of the writer, whether the manuscript belongs to male or female persons, and other tasks that arise in investigative and judicial practice.

**Key words:** handwritten notes, digital signs, manuscripts, signature, text, short note.

Почерковедческая экспертиза относится к так называемым традиционным криминалистическим экспертизам. Она наиболее распространена в следственной и судебной практике, поскольку может быть назначена по самым различным категориям уголовных, административных и гражданских дел, в том числе хозяйственных, если при их расследовании и судебном разбирательстве возникает необходимость установить факты (фактические обстоятельства), связанные с исследованием рукописей.

Установление таких фактов путем решения соответствующих почерковедческих задач составляет предмет почерковедческой экспертизы.

Подлежащие исследованию рукописи могут составлять содержание различных документов: договоров, актов, заявлений, квитанций, накладных, завещаний, платежных и пенсионных поручений, ведомостей, свидетельств о браке, таможенных документов и т.д. Они могут быть выполнены на обычном (бумага) и необычном (ткань, кожзаменитель, картон, стена, дерево, тело человека) материале, обычным (перьевая, шариковая ручка, карандаш) или необычным (кисть, гвоздь, заостренная палочка, спичка и т.д.) пишущим прибором.

Непосредственным объектом почерковедческой экспертизы является содержащаяся в рукописи конкретная почерковая реализация, называемая исследуемым объектом. Он может быть в виде текста, краткой записи и подписи. Если содержательная сторона текста и краткой записи зафиксирована с помощью буквенных обозначений (скорописных, стилизованных, печатных), эти объекты называются буквенными, если с помощью цифр (римских, арабских) – цифровыми; исследуемый текст или запись, содержащие одновременно буквенные и цифровые обозначения, называется смешанным.

Подписи выполнены от имени существующих, а также вымышленных и неустановленных лиц. В своем составе подписи могут содержать только буквы (буквенные), только штрихи, не образующие буквы (штриховые), либо буквы и штрихи (буквенно-штриховые).

По объему тексты подразделяются на большие, средние и малые. Текст большого объема обычно составляет 1 страницу стандартного листа, среднего – от 1/2 страницы до 10 слов или от 2/3 до 1/3, малого – от 4 до 10 слов или менее 2/3 стандартного листа цифровых обозначений. Рукопись, содержащая 1-4 слова или 1-7 цифр, относится к самостоятельно му объекту – краткой записи. Тексты малого объема, краткие записи и подписи называются малообъемными почерковыми объектами. Если помимо малого объема для рукописи характерны простота и необычные условия ее выполнения, такие объекты именуются малоинформационными.



### **Задачи почерковедческой экспертизы.**

Задачи, решаемые экспертом-почерковедом, подразделяются на 3 основные группы: идентификационные, диагностические, классификационные.

Идентификационные задачи составляют основной объем при проведении почерковедческих исследований. Их решение предполагает установление факта:

индивидуальной идентификации – наличия или отсутствия тождества конкретного исполнителя рукописи, подписи;

выполнения одним и тем же либо разными лицами нескольких различных текстов, под-

писей, отдельных фрагментов текста, текста и краткой записи (например, дописки), текста и подписи.

При постановке идентификационных задач вопросы эксперту могут быть сформулированы примерно следующим образом:

*Кем выполнен текст письма, начинающийся и заканчивающийся словами «Уважаемый товарищ директор...», «...чего-нибудь не случилось?»; П., С. или другим лицом?*

*Кем выполнена подпись от имени Т., расположенная в завещании от 12.02.12 г., – самим Т. или другим лицом?*

*Кем выполнена рукописная запись «Иванов Олег Михайлович», расположенная в завещании от его имени от 12.02.12 г., – самим И. или другим лицом?*

Если требуется установить факт выполнения одним или разными лицами различных рукописей либо фрагментов одной и той же рукописи, вопросы формулируют примерно в такой форме:

*Одним или разными лицами выполнены 2 письма, соответственно начинающиеся и заканчивающиеся словами: «Уважаемый товарищ директор...» и «...чего-нибудь не вышло»; «Довожу до Вашего сведения...» и «...все сообщенное мной верно»?*

*Одним или разными лицами выполнены основной текст расписки от 27 ноября 2009 г. на сумму 500 000 сумов и заключительная запись «Указанную сумму обязуюсь вернуть*

*полностью к 1 июля 2010 г.»?*

*Одним или разными лицами выполнены основной текст расходного ордера и дописанные слова и цифры?*

*Одним ли лицом выполнены подписи от имени вымышленного лица Ходжаева А.А., расположенные в графах 8-10 ведомости на получение зарплаты за май 2012 г.?*

В соответствии с методикой судебно-почерковедческой экспертизы задача установления факта выполнения нескольких рукописей одним и тем же либо разными лицами решается экспертом, даже если такой вопрос специально не поставлен.

Задачи установления групповой принадлежности лица, исполнившего рукопись, в качестве самостоятельных перед экспертом ставятся редко. В идентификационном процессе они решаются на этапе, предшествующем индивидуальной идентификации. Иногда возможно исключить предполагаемое лицо из числа исполнителей исследуемой рукописи только по групповым характеристикам почерка (степени выработанности, степени совершенства системы движений).

**Решение диагностических задач** направлено на установление условий, в которых выполнялась исследуемая рукопись, и состояния исполнителя – обычных или необычных.

В зависимости от степени выраженности диагностических признаков возможно установление:



факта наличия или отсутствия необычности письма;

характера необычности – постоянный или временный;

группы естественных (не связанных с намеренным изменением) либо искусственных (связанных с ним) факторов необычности письма;

группы естественных внутренних необычных факторов (стресс, болезнь, алкогольное опьянение, возрастные изменения), внешних необычных факторов (необычные поза, материал письма либо пишущий прибор; выполнение рукописи без очков, влияние холодовых нагрузок);

группы искусственных факторов (подражание печатному шрифту, прописям, маловыработанному почерку, почерку или подписи другого лица, изменение общих либо общих и частных признаков; выполнение подписи с намеренным искажением (автоподлог) или замена пишущей руки, так называемое компетентное изменение).

Каждая из названных диагностических задач может быть поставлена перед экспертом в отношении любого почеркового объекта наряду с идентификационной либо отдельно, самостоятельно.


**Вопросы диагностического характера могут быть сформулированы следующим образом:**

*Не выполнен ли текст письма, начинающегося словами «Привет... пишу из известного тебе места...», намеренно измененным почерком?*

*Выполнена ли подпись от имени В.П. в завещании от 23.10.12 г. с подражанием его несомненной подписи?*

*Не выполнена ли подпись от имени О.М. в договоре купли-продажи квартиры от 05.01.04 г. самим О.М. с намеренным искажением своей подписи (с автоподлогом)?*

*Выполнена ли подпись от имени Л.В. в долговой расписке от 15.12.91 г. в состоянии алкогольного опьянения?*



**Классификационные задачи** связаны с установлением принадлежности почерка исполнителя к группе почерков, свойственных лицам определенного пола, возраста либо типа почерков в соответствии с принятой научной классификацией (высоко- или маловыработанные, с совершенной или несовершенной системой движений).

В настоящее время решаются такие классификационные задачи, как установление пола исполнителя текста большого и среднего объема, выполненного в обычных (неизмененных) условиях. В рамках классификационной задачи могут быть поставлены вопросы: являются ли почерки 2-х лиц сходными; не дописаны ли слова, цифры к данному тексту другим лицом и т.д.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Xalilov A. va boshq. Zamnaviy sud ekspertizasining imkoniyatlaridan to'liq foydalish bo'yicha amaliy qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2023. – 560 b.
2. Zakurlayev A.K., Xasanov Sh.X. Sud-xatshunoslik ekspertizasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi RSEM, 2017. – 556 b.
3. Винберг Л.А., Шванкова М.В. Печерковедческая экспертиза. – Волгоград, 1977.
4. Орлова В.Ф. Судебно-печерковедческая диагностика. Учебное пособие. – Москва, 2006.

# O'PKALAR PNEVMOKONIOZI: SUD-TIBBIY EKSPERT GISTOLOG AMALIYOTIDAGI HOLAT

XASANOVA

*Dilshoda Yunusovna,  
KAMALOV*

*Sherzod Shukuraliyevich,  
Respublika sud-tibbiy ekspertiza  
ilmiy-amaliy markazi  
Toshkent viloyati filiali*

## ANNOTATSIYA

Pnevmonokonioz (lotincha pneumon – o'pka va konia – chang) – uzoq muddat davomida sanoat changi bilan nafas olish natijasida kelib chiquvchi va fibroz jarayoni rivojlanishi bilan xarakterlanuvchi (qaytmas va tuzalmas) o'pka kasalliklari guruhidir.

**Kalit so'zlar:** sanoat changi, pnevmonokonioz, silikoz, pnevmoskleroz, yurak-o'pka yetishmovchiligi.

## АННОТАЦИЯ

Пневмокониозы (от лат. pneumon – легкое и konia – пыль) – группа заболеваний легких (необратимых и неизлечимых), вызываемых длительным вдыханием производственной пыли и характеризующихся развитием фиброзного процесса.

**Ключевые слова:** производственная пыль, пневмокониоз, силикоз, пневмосклероз, сердечно-легочная недостаточность.

## ANNOTATION

Pneumoconiosis (from the Latin pneumon – lung and konia – dust) is a group of lung diseases (irreversible and incurable), caused by prolonged inhalation of industrial dust and characterized by the development of a fibrotic process, refers to occupational diseases.

**Key words:** industrial dust, pneumoconiosis, silicosis, pneumosclerosis, cardiopulmonary failure.

Pnevmoniozlar kasb kasalligi hisoblanib, tog'-kon, ko'mir, mashinasozlik va sanoatning bir qancha boshqa tarmoqlari ishchilarida uchraydi. Sanoat changi bu ishlab chiqarish jarayonida qattiq moddadan hosil bo'luvchi o'ta mayda zarrachalar bo'lib, ular havoga chiqqandan so'ng muayyan vaqt davomida muallaq holatda qoladi. Sanoat changi zarralari kattaligiga ko'ra ko'rindigan (10 mkm.dan kattaroq), mikroskopik (0,25-10 mkm) va elektron mikroskopda ko'rinvuchi ultramikroskopik (0,25 mkm.dan kichik) turlarga bo'linadi. Bulardan xavfisi 5 mkm.dan kichik zarralari bo'lib, ular o'pka parenximasining chuqur bo'limlarigacha kirib boradi. Chang zarralari erishi natijasida qo'zg'atuvchi, toksik va gistopatogen ta'sirlaydi hamda o'pkalarda avval yallig'lanish – pnevmomonit, keyinchalik biriktiruvchi to'qima, ya'ni pnevmoskleroz rivojlanishiga olib keluvchi kimyoviy birikmalar hosil qiladi [1; 714-b.].

Etiologiyasiga ko'ra 6 guruh pnevmoniozlar farqlanadi: 1. Silikoz – kvarts ( $SiO_2$ ) changi bilan nafas olish natijasida rivojlanadi. 2. Silikatoz – kremniy dioksidini boshqa elementlar bilan kompleksda saqlovchi silikatlarning changi bilan nafas olish natijasida rivojlanadi (asbestoz, talkoz, kaolinoz, nefelinoz, sementli, slyuda pnevmonioz va boshqalar). 3. Metallokonioz – metall changlari ta'sirida rivojlanadi (alyuminoz, sideroz). 4. Karbokonioz – ko'mir changi bilan nafas olish natijasida kelib chiqadi (antrakoz, grafitoz, qora qurum pnevmoniozi va boshqalar). 5. Aralash chang ta'sirida rivojlanadi (elektr payvandchi, "gazorezchik", "shlifovalshik"lar pnevmoniozi). 6. O'simlik (paxta, g'alla changlari) yoki hayvonot kelib chiqishiga ega changlar, ularga adsorbsiyalangan mikroorganizmlar va ularning metabolik mahsulotlarini o'z ichiga olgan chang bilan nafas olish natijasida rivojlanadi [2; 132-b.].

Eng ko'p tarqalgan va og'ir kechuvchi pnevmonioz turi – silikoz bo'lib, o'pkalarda diffuz biriktiruvchi to'qimaning o'sishi va o'ziga xos tugunchalarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Silikoz rivojlanishi chang zarrasining to'qima bilan o'zaro ta'siri natijasidagi kimyoviy, fizik va immun jarayonlar bilan bog'liq. Tarkibida ko'p miqdorda erkin dioksid kremniy saqlovchi chang ta'sirida silikoz qisqa mehnat stajida rivojlanishi (10 yildan kam), chang bilan kontakt to'xtatilgandan so'ng ham pnevmofibroz jarayoni progressi davom etishi kuzatiladi. Kam miqdorda erkin dioksid kremniy saqlovchi (10% kamroq) chang ta'sirida silikozning interstitsial va mayda tugunchali shakli uchraydi, ular kamroq va sekinroq rivojlanadi [3; 28-b.].

Pnevmoniozlar surunkali kasallik bo'lib, ko'pincha asta-sekin rivojlanadi. Kasallik kechishi mehnat sharoiti (ish joyida havoning changlanish darajasi, chang tarkibi, changning ta'sir davomiyligi), hamroh kasalliklar mavjudligi (ayniqsa nafas a'zolari, jumladan sil kasalligi, yurak qon tomir kasalliklari), organizmning individual sezuvchanligiga bog'liq. Pnevmonioz turiga qarab klinikasi ham turlicha bo'ladi, ammo ularning umumiyligi belgilari bor, o'zgarishlar asosan nafas olish va yurak-qon tomir tizimi a'zolarida kuzatiladi. Fibroz jarayoni rivojlanish darajasiga ko'ra kasallikning bir necha bosqichlari farqlanadi. Eng avval ko'krak qafasida og'riq, yo'tal bezovta qiladi, keyinchalik o'pka yetishmovchiligi belgilari paydo bo'ladi, vaqt o'tib bularga yurak yetishmovchiligi belgilari qo'shiladi. Ko'p hollarda nafas yo'llari shilliq qavatlari o'zgarishi (giperstrofiya yoki atrofiya), oshqozon va me'da osti bezi faoliyatining buzilishi, moddalar almashinuvni buzilishi kuzatiladi.


Pnevmoniozdan vafot etganlarning seksiyasida avvalambor o'pkalar emfizemasi va o'pka yurak ko'zga tashlanadi. Plevra bo'shliqlari qalin spaykalar bilan obliteratsiyalangan, o'pka hajmi kattalashgan, zich, havoliligi kamaygan, og'ir, oraliq to'qimada diffuz sklerozli bo'ladi. Silikozda o'pkako'plab mayda, o'rta, yirik kulrang yoki qora rangli tugunchalar bilan qoplangan bo'lib, mikroskopiyada bu tugunchalar o'ziga xos qavatma-qavat kontsentrik joylashgan kollagen tolalar tutamlaridan tashkil topganligi ko'rindi. Ko'mir konlari ishchilarida o'pkalar qora rangda,

pastki sohalari emfizema hisobiga ochroq rangda bo'ladi. Silikozlarda silikotik kavernalar rivojlanishi mumkin. Pnevmoniozlardan emfizema doimo kuzatiladi, ko'pincha bullyoz bo'ladi, silikoz va asbestozlarda emfizema yuqori sohalarni, antrakoz va alyuminozlarda pastki sohalarni egallaydi. Bronxlarda og'ir sklerotik o'zgarishlar rivojlangan, bo'shilqlari toraygan, devorlari qalinishgan, ko'plab bronxoektazar kuzatiladi. Pnevmoniozdan vafot etganlarning limfa tugunlaridan ko'pincha ko'krak bo'shlig'i va bo'yin, ba'zida qorin bo'shlig'i limfa tugunlarida sklerotik o'zgarishlar aniqlanadi [4; 117-b.]. O'pka-yurak pnevmokoniozdan vafot etganlarning aksariyatida – 80% holatlarda uchraydi, bunda o'ng qorincha qalinligi 1,5 sm.gacha yetishi mumkin. [5; 424-b.]. Pnevmoniozdagi o'lim sababi yurak-o'pka yetishmovchiligi hisoblanadi.

Sud tibbiy ekspertiza amaliyotida ham pnevmokonioz holatlari uchraydi, ulardan birini misol tariqasida keltiramiz. Erkak kishi, 53 yosh, Toshkent viloyati Angren shahridan, o'z yashash xonadonida vafot etgan. Dastlabki sud tibbiy tashxis: Asosiy: ikki tomonlama o'pkalar pnevmokoniozi (silikoz). O'tkir yurak ishemik kasalligi, yurak chap qorinchasi mushaklarining delyatatsiyasi, yirik qontomirlarvatoj tomirlarning sklerozi. Yurak mushaklarining notejis qon bilan ta'minlanishi. Ichki a'zolar to'laqonligi. Asosiy kasallik asorati: o'pka va miya shishi, o'tkir yurak-qon tomir va nafas yetishmasligi. Hamroh kasallik: xafaqon kasalligi. Tibbiy hujjatlar bo'yicha AG-2, risk-4, stenokardiya zo'riqish davri, astenonevrotik sindrom, bo'yin va bel umurtqalari osteoxondrozi, ikki tomonlama adgeziv otit, siyidik tosh kasalligi, oshqozon osti bezi va o't pufagi yallig'lanishi, gastroenterokolit, jigar yog'li gepatozi, pnevmoskleroz.


Gistologik tekshiruvda quyidagilar aniqlandi: bosh miyaning moddasida – notejis to'laqonlik, perivaskulyar, peritsellyulyar shish, nevronlarning distrofik o'zgarishlari, notejis perivaskulyar, peritsellyulyar glial elementlarning to'planishi, submeningial sohalarda onda-sonda, guruh senil-amiloid pilakchalar. Yurakda – to'laqonlik, epikardda mayda o'choqli qon quyilishi va diapedezlar, miokardda arteriyalarning sklerozi, oraliq to'qimada shish, kardiomiotsitlarning gipertrofiyasi, o'choqlarda o'tkir fragmentatsiyasi,

yirik o'choqli, o'choqli, mayda o'choqli, perivaskulyar va o'choqli oraliq kardioskleroz. O'pkalarda to'laqonlik, yirik o'choqlarda o'tkir emfizema, bronxiolalar kengaygan, ayrimlari siqilgan shilliq qavat epiteliylarining fokal ko'chishi, ko'plab yirik, o'rtal, mayda silikoz tugunchalari. Tuguncha markazida kontsentrik, nokontsentrik joylashgan biriktiruvchi to'qima tolalari, atrofida makrofag (koniofag), gistiotsitlar bilan (1-rasm). Jigarda – notejis to'laqonlik, sinusoid shish, gepatotsitlarning distrofik o'zgarishlari, gidropik distrofiya o'choqlari ustunchalarning diskompleksatsiyasi bilan. Portal yo'llar stromasi skleroz va limfo-leykotsitli infiltratlar hisobiga kengaygan. Buyraklarda – to'laqonlik, arteriyalar sklerozi, oraliq to'qimada shish, egri-bugri kanalchalar epiteliylarining distrofik o'zgarishlari, ayrim koptokchalarda mezangial hujayralar proliferatsiyasi, leykotsitlar bilan infiltratsiyasi, kapsula qalinishuvi va hujayralari proliferatsiyasi, atrof stromasida



diffuz leykotsit, limfotsitli infiltratlar, guruh koptokchalalar sklerozi. Me'da osti bezida – to'laqonlik, mayda o'choqli, perivaskulyar diapedezlar, stromada shish.

Shunday qilib gistologik tekshiruvda quyidagilar aniqlandi: surunkali yurak ishemik kasalligi, kardiomiotsitlarning gipoksik distrofiyasi, gipertrofiyasi, o'tkir fragmentatsiya o'choqlari; o'pkalarda tugunchali silikoz, alveolalarda yirik o'choqlarda o'tkir emfizema; buyraklarda o'choqli surunkali glomerulonefrit; bosh miyada shish, nevronlarning surunkali gipoksik distrofik o'zgarishlari.

**1-rasm.**

*Tipik silikotik tugunchalar kollagen. tolalarning konzentrik joylashishi bilan (bo'yash gematoksilin-eozin bilan, x100).*

**Xulosa.** Pnevmonioz mehnatga layoqatli yoshdag'i ishchilarning kasbiy kasallanishi, erta invalidlanishi va o'limi bilan bog'liq. Pnevmoniozlar profilaktikasi asosini changlanish darajasini kamaytirish va nafas olish a'zolarini chang ta'siridan individual himoya vositalarini qo'llashga yo'naltirilgan chora tadbirlar tashkil qiladi. Tibbiy tadbirlardan – dastlabki va davriy tibbiy ko'riklar, shuningdek, mehnat va dam olish tartibini ratsional tashkil qilish, yetarlicha oqsil va vitaminlarga boy ovqatlarni iste'mol qilish, sport va nafas gimnastikasi, chiniqtiruvchi turli suv muolajalari bilan shug'ullanish, chekishdan voz kechish kabilar ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR**

1. Струков А.И., Серов В.В. Патологическая анатомия. Учебник. – Москва: Издательская группа “Геотар-Медиа, 2015.
2. Черняев А.Л., Самсонова М.В. Общая и частная патология легких./ В кн. Чучалин А.Г. (ред.). Респираторная медицина. – Москва, 2007. Т.1. – С. 131-135.
3. Самихова А.М. Пневмокониоз и пути их профилактики. – Медицинский журнал западного Казахстана №2 (30) 2011. – С. 28-29.
4. Лошилов Ю. А. Патологическая анатомия пневмокониоза. – Пулмонология 2; 2007 с. <http://pulmonology.ru>
5. Движков П. П. Пневмокониоз (этиология, патологическая анатомия, патогенез). – М.: Медицина, 1965.

# TOLALI MATERIALLAR VA ULARDAN TAYYORLANGAN BUYUMLAR KRIMINALISTIK EKSPERTIZASINING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

**SAMADOVA**

*Farangez Zayniddinovna,*

*X. Sulaymonova nomidagi*

*Respublika sud ekspertiza*

*markazining Materiallar, ashyolar va  
buyumlar kriminalistik ekspertizasi  
laboratoriyasi eksperti*

**KARIMOVA**

*Dilnoza Tavakkaljonovna,*

*X. Sulaymonova nomidagi*

*Respublika sud ekspertiza*

*markazining Materiallar, ashyolar va  
buyumlar kriminalistik ekspertizasi  
laboratoriyasi eksperti*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar kriminalistik ekspertizasining o‘tkazilishi va zamonaviy asbob-uskunalar orqali tolalarning bir-biridan farqini ajrata olish imkoniyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, o‘zaro ta’sirlashish fakti (O‘TF), mikrozarra, umumiy bir tur, guruh.

## АННОТАЦИЯ

В статье приведены сведения о проведении судебно-медицинской экспертизы волокнистых материалов и изделий из них и возможности различения волокон друг от друга с использованием современного оборудования.

**Ключевые слова:** волокнистые материалы и изделия из них, факт взаимодействия (УТАФ), микрочастицы, общий вид, группа.

## ANNOTATION

This article provides information on the implementation of forensic examination of fibrous materials and articles made from them and the possibilities of distinguishing fibers from each other using modern equipment.

**Key words:** fibrous materials and articles made from them, fact of interaction (OTAF), microparticles, general type, group.

To'qimachilik tolalaridan tayyorlangan mahsulotlar va boshqa tolali materiallar har bir inson turmushining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi esa (kiyim, choyshablar va boshqalar) doimiy (kundalik) foydalaniladigan buyumlar qatoriga kiradi. Tolali materiallardan tayyorlangan mahsulotlar texnikada ham keng qo'llaniladi. Zo'rlash (nomusga tegish), qotillik va avtohalokatlar to'g'risidagi jinoiy ishlarni tergov qilishda, kiyim va o'rganilayotgan hodisa muhitining turli buyum-elementlarida qoluvchi to'qimachilik tolalarining qatlamlı mikro izlarni tadqiq qilishda juda muhim o'rın tutadi.

Maxsus ekspertiza bilimlari asosida tergov qilinayotgan voqealarni bilan tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlar va ularning qoldiqlari o'rtasidagi o'zaro sababiy bog'liqligini ko'rsatuvchi faktlarni aniqlash tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarning kriminalistik ekspertizasining **predmeti** hisoblanadi.

Ekspertiza predmeti jinoyat qurollari yoki transport vositalari (TV) qismlarining jabrlanuvchining kiyimi qismlari bilan o'zaro ta'sirlashish fakti (O'TF) hisoblanadi. Bunday hollarda, aniqlash vazifasi iz hosil qiluvchi obyektlarning yuzasidagi izlar, neft mahsulotlari (NM) va yonilg'i-moylash materiallari (YMM), lok-bo'yoq qoplamlari (LBQ), tuproq va o'simlik qoldiqlari aks ettiruvchi izlarni ekspertiza tadqiqotlari olingen ma'lumotlardan foydalanilgan holda kompleks tarzda bajariladi.

Jinoyatchi kiyimi tomonidan qoldirilgan (to'siqni oshib o'tish, TVda, boshqa shaxsning kiyimida va sh.k.) deb taxmin qilingan izlardagi alohida tolalarni tadqiq qilish jarayonida, jinoyatchining kiyimi qaysi obyektlar bilan ta'sirlashgani haqida axborot olinadi, ya'ni ekspertiza yordamida kiyim predmetlari yoki ikki komplekti (to'plami), yoki ikkita tadqiqot obyektining o'zaro ta'sirlashish fakti (O'TF) aniqlanishi mumkin.

Tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlarning ekspertizasini o'tkazish chog'ida bajariladigan vazifalar turli-tumandir.

Gumon qilinuvchining kiyimida

jabrlanuvchining kiyimi tolalari tarkibiga kiruvchi tolalar bilan bir xil bo'lgan mikrozarralarning mavjudligi, shuningdek, ushbu tolalarning lokalizatsiyasi (bir joyda topilishi) gumon qilinuvchining taxminini inkor etishga, jabrlanuvchining ko'rsatmalarini tasdiqlashga va shu kabilar uchun foydalanilishi mumkin.



Ekspertlik tadqiqotining **vazifalaridan** biri tolalar (qismlar)ning bir butunlikka tegishli ekanligini aniqlash hisoblanadi: kiyim predmetining uning to'plami (komplekti)ga (qo'lqoplar – bir juftlikka tegishli ekanligi, kamarning kurtkaga, mato parchasining – muayyan matoga, ipi bilan uzilgan tugmaning – muayyan kiyimga) tegishli ekanligi.

Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar ekspertizasining **obyekti** quyidagilar hisoblanadi: iplar, yigirilgan iplar, matolar, kiyim, noto'qima materiallar, arqonlar, tizimcha (kanop ip) (yoki to'qilgan), bog'ichlar, yondirilgan kiyim qoldiqlari va shu kabilar. Tolali tabiatga ega bo'lgan matolar 2 xil – tabiiy va kimyoviy tolalar bo'ladi:

Tabiiy tolalarga paxta, zig'ir, kanop, jun, ipak kiradi. Paxta tabiiy material bo'lishiga qaramay, u ushbu toifadagi boshqa matolardan ma'lum farqlarga ega. Birinchi farq yonish tabiatida. Paxta yondirilganda kuygan qog'oz hidini chiqaradi, yonadi va oq tutun chiqaradi. U kuchli sariq olov bilan yonadi. Ikki barmog'ingiz bilan tayoqchani bosganingizda, u yerda kuldan boshqa hech narsani ko'rmaysiz, chunki bu tabiiy tola. Zig'ir paxta bilan deyarli bir xil yonadi, lekin undan ham yomonroq yonadi. Junning yonishi sekinroq, bu jarayon davomida u yorilib, qorong'i to'pga aylanishi mumkin. Tegilganda u yonmaydi. Kuygan junning hidi kuygan sochni eslatadi. Ipak jun kabi yonadi va o'ziga xos hidga ega. Kuyishdan tashqari, paxtaning boshqa tabiiy matolardan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud: sof paxta issiq va teginish uchun yumshoq bo'lib, qo'lda siqilganda juda ko'p g'ijimlar paydo bo'ladi. Zig'ir matosi ham juda g'ijimlangan. Tashqi ko'rinishida material paxtadan farqli o'laroq, porloq va silliq ko'rindan. Biroq u yanada yomonroq bo'ladi. Mato qattiq va sovuq his qiladi. Jun, paxtadan farqli o'laroq, umuman burishmaydi. Ipak teginish uchun juda yoqimli, issiq, yumshoq va plastik material, amalda burishmaydi.

Kimyoviy tolalar — tabiiy va sintetik poli-

merlardan olinadigan tolalar. Dastlabki xomashyoga qarab sintetik (sintetik polimerlardan olinadigan, mas., poliamid, poliakrilonitril tolalar) va sun'iy (tabiiy polimerlardan, mas., sellyuloza va uning efirlaridan olinadigan tolalar) turlarga bo'linadi. Anorganik birikmalardan olinadigan tolalar (shisha, bazalt, kvars tolalari) kiradi. Kimyoviy tolalar pishiq, g'ijimlanmaydi, yorug'lik, namlik, zamburug'lar, bakteriyalar, kimyoviy moddalar va issiq ta'siriga chidamli. Kimyoviy tolalar eritilganda va qizdirilganda parchalanmasdan suyuqlanadi.



Tadqiqot qilish maqsadida aniqlangan tolali materiallarni gumon qilinuvchilardan oldin taqqoslash uchun namunalar bilan birga ekspertizaga yuborish lozim.

Hozirgi vaqtida tolali materiallarning kriminalistik ekspertizasi doirasida quydagilarni aniqlash mumkin:

- to'qimachilik tolalari mikrozarralarining umumiyligi bir tur va guruhga umumiyligi tegishliligini;
- tashuvchi predmetlarda to'qimachilik tolalarining aniqlangan mikrozarralarining lokalizatsiyasi va uning tekshirilayotgan hodisa vaziyatiga mosligini;
- to'qimachilik tolalari izlari (mikroizlari) bo'yicha kiyim to'plamining O'TFni;
- qotillik quroli bilan kiyim to'plami O'TF yoki to'qimachilik tolalari mikroizlarining boshqa mikroizlar bilan birgalikdagi (moy, LBM zarralari) bo'yicha TVning O'TFni;
- yondirish oqibatida kiyim predmetlari yoki tolali obyektlarning qolgan qoldiqlariga qarab ularning dastlabki ko'rinishi va maqsadli mo'ljalangan maqsadini;

– mayda qismlar (mato fragmenti, ipi bilan uzilgan tugma)ga qarab butun qism (alohida mato parchasi, kiyim qismi), alohida qismlarga qarab kiyim to'plamini.

Tolali materiallarning kriminalistik ekspertizasi bo'yicha tadqiqotlar uslub va uslubiy tavsiyalarga muvofiq holda o'tkaziladi.

Zamonaviy ilmiy-texnik baza (MRV SP mikrospektrofotometrli LEIKA DMR XA va "Olympus SZX10" rusumli (126 marta kattalashtirilgan, halqali diod lampali yoritkichli) stereoskopik mikroskoplar hamda «FOSTER FREEMAN» firmasining Fx5 kabi tolalarni izlash asbobi) bilan jihozlangan markaz tadqiqot obyektlarini buzmasdan, o'zgartirmasdan, alohida olingen yakka tolalarning tadqiqotini muvaffaqiyatli va to'laqonli o'tkazishga imkon beradi. Yuqori sezgir asboblarning qo'llanilishi ekspertlarga yanada yuqoriroq ilmiy-asoslangan darajadagi vazifalarini bajarishga yordam beradi: ya'ni nafaqat differensial vazifalarini, balki identifikatsion vazifalarini ham bajarishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtida to'qimachilik tolalari tadqiqotining namunaviy uslubi va sxemasi ishlab chiqilgan. Mazkur sxema asosida, tegishli tasnif tomonidan ko'zda tutilgan, hajmi tadqiqot davomida belgilangan chegaragacha torayuvchi aniq tasniflangan ko'plab bo'yalgan to'qimachilik tolalarining bosqichma-bosqich ajralish qoidasi yotadi. Markaz xodimlari tomonidan tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlarning kompleks ekspertiza tadqiqoti uslublari ishlab chiqilgan. Birinchi bosqichda mazkur uslub tola va boshqa materiallar (moddalar)ni aniqlash va ajratishni, ularning tur (guruh)ga umumiyligini aniqlash maqsadida iz hosil qiluvchi obyektning materiali (moddasi) bilan taqqoslash tadqiqotini ko'zda tutadi. Ekspertiza tadqiqotining yakuniy bosqichida aniqlangan belgilarning baholanishi o'tkaziladi, ya'ni har xil turdag'i (guruuhlar) tolalari va boshqa zarralarning tarqalishi, qatlamlili izlarning barqarorligi, aniq predmedlarning o'zaro ta'siri belgilarning aks etishini hisobga olgan holda baholanadi. Obyektlarning o'zaro ta'sirining umumiyligini va xususiy belgilarini aniqlagan ekspert, tegishli masalani hal etish uchun ularning ahamiyati va yetarlilikini belgilaydi.

Ekspertizani zamonaviy imkoniyatlarga

muvofiq holda bajarish uchun quyidagi savollarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– tashuvchi obyekt ko'rsatiladi (hodisa ishtirokchilarining kiyimlari predmedlari, pichoqlar va jinoyatning boshqa qurollari, TV, jabrlanuvchilar va gumon qilinuvchilarining tirnoqlari kesmalari, mikrozarralar aks ettirilgan daktioplyonka), ustida to'qimachilik tolalarining begona mikrotolalarning qoldiqlari mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, ular gumon qilinuvchi yoki jabrlanuvchi kiyim predmetlari ... (kiyim qismlari ko'rsatiladi) tarkibiga kiruvchi tolalarga tur (guruh) bo'yicha umumiyligini mansubliligi bormi?

– agar gumon qilinuvchi yoki jabrlanuvchi kiyim predmetlarida umumiyligini tur va guruhga tegishliligi bo'yicha to'qimachilik tolalari mikrotolalarining qoldiqlari ko'rinishidagi o'zaro ta'sir izlari mavjud bo'lsa, unda: kiyim to'plamlari ... (kiyim predmetlari va ularning aniq bir shaxslarga tegishliligi ko'rsatiladi) o'zaro aloqada bo'lganmi;

– ... aniqlangan qismning butun elementi ish bo'yicha izlanayotgan holatning butun elementi tarkibiga kirganmi (joy yoki tegishliligi ko'rsatiladi);

– ... dan hosil bo'lgan kulda (olingo joy ko'rsatiladi) to'qimachilik materiallari, tikuvchilik mahsulotlari, kiyim fragmentlarining qoldiqlari mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, ular qaysi kiyimga tegishli va nima uchun mo'ljallangan.

Tolalar mikrozarralarining biror-bir obyektda qatlamlanishiga lokalizatsiyasi to'g'risida savol qo'yilishi mumkin, ammo bunda ashyoviy dalillar qadoqlash (joylash) qoidalariга muvofiq holda qadoqlanishi zarur.

O'TF bo'yicha savolni quyidagilarga nisbatan qo'yish tavsiya etilmaydi:

– hodisa sodir bo'lgandan so'ng uzoq vaqtadan keyin olingen kiyim to'plamlariga nisbatan, chunki ular ehtimol yuvilgan bo'lishi yoki kimiyoiy tozalashdan o'tgan bo'lishi mumkin;

– qon bilan kuchli ifloslangan, mog'or bosgan kiyimlarga nisbatan;

– gumon qilinuvchi jinoyat sodir etilgan vaqtida qaysi kiyimda bo'lganligi fakti no'malum bo'lgan kiyim to'plamlari;

– rangi va tola tarkibi bir xil bo'lgan kiyim to'plamlari (maxsus ish kiyimlari, harbiy kiyimlar);

– oq paxtadan tayyorlangan ichki kiyimlar va viskozali to'shak choyshablari predmetlari (to'shak jildi, yostiq jildi, odeyal jildi).

Kiyimning istalgan predmetida aniqlangan tolalarning mikrozarralari bo'yicha ekspertiza rivojlanishining zamonaviy bosqichida, to'qimachilik tolalarining begona mikrozarralarini tadqiq qilish davomida tola turlarining har biri kiyimning qaysi predmetiga tegishliligi masalasini hal etishning qariyb imkon yo'q. Bu bir qator sabablar bilan tushuntiriladi: birinchidan, kiyimdag'i qavatlangan tolalar turli kiyim predmetlari va tolali obyektlar bilan ko'plab tasodifiy aloqa mobaynida hosil bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, tadqiq qilinayotgan kiyimga o'r ganilayotgan hodisadan avval, shu vaqtida yoki undan so'ng tolali mikrozarralarning tushish tartibini (hodisasini) aniqlashning qariyb imkon yo'q. Shu tufayli, agar guman qilinuvchi yoki uning kiyimi bo'lman holatda, jabrlanuvchining kiyimidagi begona tolalar mikrozarralarining tur (guruh)ga tegishliligini aniqlash mantiqan noto'g'ri bo'ladi. Mikropreparatlar ko'rinishidagi begona tolalarni suv-glitserinli muhitda uzoq vaqt davomida saqlash, ularni keyingi taqqoslash (nisbiy) tadqiqotlari uchun yaroqsiz holga keltiradi.

Tolali tabiatga ega obyektlar tasnifini bilish tergov uchun har bir holatda ulardan qaysi biri ashyoviy dalil bo'lib xizmat qila olishini aniqlash, ekspertlik tadqiqotining bevosita obyektlarini ajratish, ish bo'yicha izlanayotgan jinoyat hodisasining moddiy holati elementini aniqlashga katta yordam beradi.

Ashyoviy dalillar olinganda mazkur turdag'i ekspertiza uchun belgilangan maxsus tavsiyalarga amal qilish zarur:

- jabrlanuvchi (shu jumladan murda)ning kiyimini tergovchi ishni tergov qilishni boshlagan zahoti olishi zarur;

- guman qilinuvchining kiyimi to'liq to'plamda olinadi;

- olinish, tekshirish va qadoqlash chog'ida jabrlanuvchi va guman qilinuvchi kiyimlarining predmetlarining bir-biriga tegishiga, shuningdek, ashyoviy dalilni olish, tekshirish va qadoqlashni amalga oshirayotgan shaxslarning kiyimlariga tegishiga yo'l qo'yimasligi lozim. Shuningdek, bitta shaxsga qarashli kiyimning alohida

predmetlarining o'zaro bir-biriga tegishining oldini olish zarur;

- kiyimning har bir qismini yaltiroq yuzali zinch qog'ozga, kalkaga, sellofan yoki polietilen plyonka yoki paketlarga qadoqlash lozim;

- agar ish holatlari bo'yicha tolalarning begona mikrotolalari dastlabki lokalizatsiyasini aniqlash zarur bo'lsa, unda kiyimning har bir predmetini ikki varaq qog'oz orasiga joylab, so'ngra ehtiyojkorlik bilan joylash zarur;

- tolalarning yo'qolishiga olib keluvchi silkitish, tozalash, yuvish va boshqa harakatlarga yo'l qo'ymaslik lozim;

- kiyim olinishi bilan bir vaqtida jabrlanuvchi (shu jumladan murda), guman qilinuvchining tironqlari namunalari olinishi lozim;

- pichoq va qotillik qurollari tekshiruv va ekspertizaga yo'llash davomida tolali obyektlar (kiyim, dasturxon, lattalar va sh.k.)ga tegishi mumkin emas;

- tolalar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan predmetlar (sovuv quroq, TVning ajraluvchi qismlari va boshqalar)ni shunday qadoqlash lozimki, bunda ushbu tolalar tashish vaqtida yo'q bo'lmasligi kerak.

Tolali obyektlarni taqqoslash tadqiqotlari maqsadidagi vazifalarni bajarish davomida barcha ashyoviy dalillar birinchi navbatda mikrotolalar bo'yicha ekspertizaga yo'llanishi zarur, chunki sud-tibbiy ekspertizasi o'tkazilganidan so'ng tolalar yo'qolishi yoki kiyimning taqqoslanuvchi predmetlari bir-biriga tegishi mumkin, bu esa ekspertlar oldiga qo'yilgan vazifaning noto'g'ri bajarilishi va noxolis xulosa chiqarilishiga olib keladi.

Tolali materiallar va kiyimlarning yoqilishidan qolgan qoldiqlarni olishda, ayniqsa alohida ehtiyojkorlik zarur bo'ladi.

Mo'rt obyektlarning mumkin qadar butunligi saqlanishini ta'minlash maqsadida alanga yoki pechka ichidagi kul, yonish qoldiqlarini titkilash, undan kulning alohida qismlarini olish, yonmay qolgan kiyim qismlarini, metall furniturani olish tavsiya etilmaydi. Yong'in o'chog'i kurak yoki xokandoz yordamida imkon qadar ehtiyojlik bilan butunligicha qattiq idishga olib o'tiladi;

- Yonilg'i-moylash materiallari (YMM) va neft mahsulotlari (NM) izlarini aniqlash bo'yicha ekspertiza bir vaqtida tayinlanganda, tolali

materiallar yoqilishidan qolgan qoldiqlar solingen idish gazli faza uchib ketishining oldini olish maqsadida zich yopiluvchi polietilen qopga joylanadi;

– Voqeja joyini ko'zdan kechirish va ashyoviy dalillarni olish bo'yicha bayonnomalarning nusxalarini bat afsil bayon qilingan holda yo'llash. Tadqiq qilinayotgan obyektlarning kelib chiqishi, saqlanishi va foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar ekspert ekspertizani to'g'ri tashkil qilishi va o'tkazishi, natijalarni baholash va ishonchli xulosalarni shakllantirishi uchun zarur bo'ladi.

O'TF bo'yicha masalani hal etish davomida jabrlanuvchi yoki gumon qilinuvchi kiyimining jinoyat sodir etilgan vaqtidan boshlab ekspertizaga yo'llashga bo'lgan vaqtida saqlanish sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi. Ekspert tekshirish uchun taqdim etilgan kiyimlar kiyilgani yoki yo'qligi, u tozalanganligi, yuvilganligini, kimyoviy tozalangani yoki saqlanishda bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi zarur.

Tolali materiallar ekspertizasining samaradorligi yuqoridagi qoidalarga amal qilgan holda ko'p jihatdan tergov organlari xodimlarining tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi.



Tolali tabiatga ega bo'lgan obyektlarning kriminalistik ekspertizasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni aniqlashtirish zarur bo'lgan hollarda yoki mazkur ekspertizani tayinlashda boshqa qiyinchiliklar, ekspertga topshiriq berish, uni o'tkazish uchun materiallarni taqdim etish tartibi bo'yicha batafsil maslahatni RSEMda olish mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Xalilov A. va boshq. Zamonaviy sud ekspertizasining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2023. – 560 b.
2. Zamonaviy ekspertiza imkoniyatlari. Sud ekspertizaning imkoniyatlari va uni tayinlash to'g'risida uslubiy qo'llanma. – T.: RSEM, 2015.
3. Кацнельсон М.Ю., Балаев Г.А. Полимерные материалы. Справочник. «Химия». – Ленинград, 1991.
4. Сысоев Э.В., Селезнев А.В., Бурцева Е.В., Рак И.П., Криминалистическое исследование материалов, веществ и изделий: учебное пособие. – Т.: ТГТУ, 2007.

# XALQARO TARTIBOTNING BUZILISHI – GLOBAL KONFLIKTLAR ASOSI SIFATIDA

**RAVSHANOV**  
*Fazliddin Ravshanovich,  
siyosiy fanlar doktori*

## ANNOTATSIYA

Uchinchi jahon urushi ehtimoli har doim xalqaro munosabatlarda, ayniqsa jahon kuchlari o'rtaqidagi ziddiyatlarning kuchayishi sharoitida jiddiy tahliddir. Tarixiy misollar shuni ko'rsatadiki, xalqaro mojarolar keng ko'lamlı qurolli to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada bugun jahon siyosiy maydonida yuz berayotgan nizolar, ularning tarixiy asoslari va katta urushga aylanib ketish ehtimollari tahlil qilingan. Maqolada uchinchi jahon urushiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan eng muhim nuqtalarini aniqlash sabablarini ochishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** mafkura, uchinchi jahon urushi, xalqaro munosabatlari, ziddiyat, xalqaro mojarolar, qurolli to'qnashuvlar, geosiyosat, iqtisodiyot, terrorizm, kiberhujum.

## АННОТАЦИЯ

Возможность третьей мировой войны всегда представляет серьезную угрозу в международных отношениях, особенно в условиях нарастания конфликтов между мировыми державами. Исторические примеры показывают, что международные конфликты могут привести к крупномасштабным вооруженным конфликтам. В статье анализируются конфликты, происходящие сегодня на мировой политической арене, их историческая основа и возможность перерастания в большую войну. Предпринята попытка раскрыть причины определения наиболее важных моментов, которые могут стать причиной третьей мировой войны.

**Ключевые слова:** идеология, третья мировая война, международные отношения, конфликты, вооруженные столкновения, geopolитика, экономика, терроризм, кибератака.

## ANNOTATION

The possibility of a Third World War always poses a serious threat in international relations, especially in the context of increasing conflicts between world powers. Historical examples show that international conflicts can lead to large-scale armed conflicts. This article analyzes the conflicts taking place today in the world political arena, their historical basis and the possibility of escalating into a major war. The article attempts to reveal the reasons for determining the most important points that could cause the Third World war.

**Key words:** ideology, World War III, international relations, conflicts, armed clashes, geopolitics, economics, terrorism, cyber-attack.

Gogenberglarning Sarayevoda oddiy serb gimnazisti tomonidan otib o'ldirilishi bir necha o'nlab million insonlarning qirilib ketishiga olib kelgan birinchi jahon urushining boshlanishiga sabab bo'lishini hech kim kutmagan edi. Ikkinchisi jahon urushi ham 1939-yil 1-sentabrda xuddi shunday bir arzimas voqeadan, ya'ni bir necha polyak mayxo'rularining Gleyvis radiostansiyasida qilgan to'polonini jazolash bahonasida boshlanib ketgandi.

Hozirgi vaqtda ham dunyo mamlakatlari mana shunday urushlar shamolini his qilib yashamoqda, to'g'rirog'i dunyoning turli nuqtalarida borgan sari ko'payib, olovlanayotgan qurolli to'qnashuvlarning qaysi biri Uchinchi jahon urushiga sabab bo'lishi dunyo xalqlarining asosiy xavotirlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Uchinchi jahon urushi boshlanadigan bo'lsa u yadroviy to'qnashuvlar bilan yuz berishi va buning oqibatida yuz millionlab, balki milliardlab insonlarning qirilib ketishiga olib kelishini bugun hamma juda yaxshi tushunadi. Shunga qaramay, uning oldini olish o'mniga dunyo siyosiy maydonlarida uning yuz berishiga ishonch ortib bormoqda va zo'r berib bunga tayyorgarlik ko'rilmoxda. Achinarlisi, bir qator kuchli davlatlar bu urushda kim kim tomonida turib urushishi haqida bosh qotirmoqdalarki, bu xalqaro munosabatlarda qudratga ega bo'lgan siyosiy markazlarning boshqaruvi tizimida mutlaqo layoqatsiz va kaltabin amaldorlar faoliyat olib borayotgani hamda ularning xattiharakatlari butun dunyonи halokatga olib borishi mumkinligidan darak beradi.

Uchinchi jahon urushiga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablardan biri 1947-yildan buyon hal bo'lmay kelayotgan Hindiston va Pokistonning hudud borasidagi nizolaridir. Kashmir hududining tegishliligi yuzasidan bu ikki yadroviy qurolli mamlakatlar o'rtasida hanuzga qadar davom etayotgan kelishmovchiliklar osongina jahon urushini keltirib chiqarishi mumkin. Albatta, har ikki tomonning tarafдорлари bu urushga aralashishlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va savdo munosabatlari nuqtayi nazaridan majburiyatni keltirib chiqaradi. Bu jihatdan Pokiston Xitoy va Hindiston esa AQSH ko'magidan foydalanishiga urinadi. Xitoy va AQSH kelishmovchiliklari esa hozirgi vaqtlardayoq iqtisodiy munosabatlari nuqtayi nazaridan dunyo muvozanatiga tahdid so-

**Kirish (Introduction).** Uchinchi jahon urushi hozircha nazariy tushuncha bo'lib, Birinchi va Ikkinchisi jahon urushlariga o'xshash faraziy global mojaroni anglatib turibdi. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlar bugungi zamonda uni ehtimoliy senariy sifatida tasavvur qilishga olib kelmoqda. Chunki hozirgi dunyodagi geosiyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy taranglik tufayli uning yuzaga kelish ehtimolini butunlay inkor etib bo'lmaydi.

Jahon siyosiy maydonida geosiyosiy tarangliklar yuqori darajaga ko'tarildi. Yirik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, ayniqsa, oldindan aytilib bo'lmaydigan holatlar yoki inqirozlar yuzaga kelsa, xalqaro mojarolarga olib kelishi mumkin. Shunday nizolar fonda harbiy mojarolar rivojlanmoqda. Mintaqaviy mojarolar yoki qurolli to'qnashuvlar katta kuchlar ishtirokidagi keng ko'lamli harbiy operatsiyalarga aylanishi mumkin. Yadro qurollarining tarqalishi va turli davlatlar tomonidan ularga egalik qilishga intilishning kuchayib borishi, ayni vaqtda yadro qurollarini qo'llashga bahona bo'luchchi mojarolarning ortishi bunday urush xavfini tobora oshirmoqda. Terrorizm va kiberhujumlarning global tus olishi esa davlatlar o'rtasidagi keskinlikni va harbiy mojarolar ehtimolining kuchayishiga hissa qo'shayapti. Mojarolarning oldini olish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi bo'lgan diplomatiya, xalqaro huquq va yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi bitimlar kabi turli xalqaro institutlar va mexanizmlarning ta'siri borgan sari o'z kuchini yo'qotmoqda.

O'tgan tarix dunyo xalqlarining eng qonli to'qnashuvlari kutilmaganda, arzimagan sabablardan boshlanib ketishi mumkinligini bir necha bor isbotlagan. 1914-yilning 28-iyunida avstro-venger ersgersogi Frans Ferdinand va uning xotini gersoginya Sofiya

layotgan eng katta nizolardan biri bo'lib turibdi. Ayni vaqtida Hindiston yetarli darajada barqaror xalqaro munosabatlarga ega bo'lsa-da, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda bu regionda Xitooning ustuvor bo'lishini istamaydi va uning Pokistonni qo'llab-quvvatlashi ham Hindiston manfaatlariga mos tushmaydi. Pokiston-Xitoy iqtisodiy munosabatlarining chuqurlashib borishi oxir-oqibatda Hindiston-Pokiston harbiy to'qnashuvlarini borgan sari yaqinlashtirmoqda[1]. Tabiiyki, Hindiston-Pokiston to'qnashuvi yuz beradigan bo'lsa, musulmon dunyosi Pokistonni himoya qilishga o'tadi. Bu esa sivilizatsiyalar to'qnashuvlarini keltirib chiqaradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili** (*Literature review*). Uchinchi jahon urushiga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablardan boshqa biri esa Rossiya bilan bog'liqidir. Rossiya-Ukraina urushi fonida bu mamlakat hozirgi vaqtida dunyoning yarmi bilan ziddiyatlarda yashamoqda. Bu ziddiyatlarning tug'ilishi va kuchayib borishi turli davrlar va masalalarni o'z ichiga oladi. Umumlashtirgan holda aytish mumkinki, o'tgan ikki asrdan buyon Rossiyaning hududiy kengligi, iqtisodiy resurslari va boyliklari, turli davrlarda hukmronlik qilgan g'oyalari (imperializm, kommunizm, mamlakat butunligi va xavfsizligi), texnologik (ayniqsa harbiy sohada) rivojlanishi, mustaqilligi global G'arb siyosatiga mos tushmay keladi [2]. Boshqacha aytganda, AQSH va G'arb Rossiya va uning ortida turgan butun Sharqni o'z xohishlariga bo'yundirishga urinadi, lekin bunda Rossiya manfaatlarini inobatga olishga majburligi, ya'ni bu mintaqada G'arb yetakchiligiga imkon yo'qligi barcha nizolarning asosiy masalasi bo'lib kelmoqda.

O'rni kelganda aytish kerakki, G'arb deyarli besh yuz yildan buyon Rossiya-Sharq mamlakati va yovvoyi tabiatli xalq sifatida qarab, uning mintaqadagi yetakchilagini yo'q qilish va ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy qaram hududga aylantirish ustida kurash olib boradi. Bu o'rinda Yevropa davlatlarining Rossiya turli davrlarda amalga oshirgan hujumlari deyarli bir xil nom – "Sharqqa yurish" degan atama bilan bog'liqligini eslash kifoya. Shunga ko'ra aytish mumkinki, Rossiya mansublik asoslariga ko'ra azaldan Sharq xalqi hisoblanadi. Faqat keyingi asrlarda Petr I ning yevropalashtirish siyosati bosimida milliy genofondda g'arbliklar ulushi ko'payib

bordi va ular albatta o'zlarini G'arbning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilishlari ustida kurashdilar. Boshqacha aytganda, g'arb bilan aralashgan avlod g'arbliklar ularni o'zlariniki deb bilishlari va teng ko'rishlari, sharqliklar esa ularni g'arblik deb bilishlari va o'zlaridan ustun ko'rishlari ustida kurashdilar. Bu mudhish xato edi. Rossiya-Ukraina urushi shuncha asrlik kurashlardan keyin ham Yevropa xalqlari Rossiyani Sharq va qancha yevropalashmasin bu xalqni sharqlik deb bilishini ko'rsatib qo'ydi. Sharq va sharqlik YIning kattakatta minbarlarida, eng yuksak lavozimlarda o'tirgan amaldorlar tilidan baralla takrorlandi. Rossiya esa haqiqatan sharqliklar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Chunki, sharqliklar Rossiyani Sharq mamlakati va xalqini azaliy sharqliklar deb bilishadi. Nazarimizda buni butun Rossiya anglab olishi kerak bo'lgan davr yetib keldi.

Ukraina nizolarning markazida bo'lgan ushbu mintaqqa aslida "G'arb va Sharq sivilizatsiyasining to'qnashuv maydoni"ga aylanib bo'ldi [3]. 1991-yilda nihoyasiga yetdi deb qaralgan sovuq urush munosabatlari, afsuski, G'arb va Sharqqa xos madaniy munosabatlarni birlashtira olmadи. Sovuq urush davridan go'yoki g'alaba bilan chiqqan G'arb tafakkuri barcha chegaralari ochilib ketgan Yevroosiyo hududida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va hatto huquqiy hukmronlikni o'rnatishning barcha usullarini ishga soldi va bu bilan aslida mintaqqa xalqlari, ayniqsa Rossiyaga ular manfaatlari bilan hisoblashmasligini oshkora namoyish qildi.

AQSH, Yevropa Ittifoqi va ularning ittifoqdoshlari sobiq ittifoq tanazzulidan keyin o'zlarini butun dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va huquqiy yetakchilari sifatida ko'ra boshlagandilar. Siyosatlariga qarshi turgan mamlakatlarni turli-tuman shakllarda ayovsiz jazolash, bu jarayonlarda har qanday diplomatik munosabatlar, tinch yo'l bilan kelishuvlar, ikki tomonlama manfaatli munosabatlarni chetga surib qo'yish go'yoki g'oliblik haqqidek, bepisand munosabatlar amaliy jarayonlarga aylandi [4]. Bu namoyishkorona yurish oxir oqibatda Rossiyaning keskin qarshi turishiga olib keldi. Chunki, birlashgan yevropachilik bosimi uning g'arbiy chegaralarida joylashgan qator davlatlarning NATO harbiy ittifoqiga kiritilishigacha borib yetdi. Oqibatda esa, ayni vaqtida Rossiya-Ukraina

urushi fonida global G'arb va global Sharq uchunchi jahon urushi darvozasida turibdi, deyish mumkin.

AQSH va Xitoy xalqaro munosabatlaridagi kelishmovchiliklar uchinchi jahon urushining yana bir sabablaridan biri bo'lishi mumkin [5]. Keyingi 30 yil davomida Xitoy iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'sishi va borgan sari ko'p mintaqalarga kirib borishi AQSH va Yevropa iqtisodiy va aytish mumkinki, iqtisodiyot orqali siyosiy gegemonligiga katta zarba berdi.

Ushbu o'rinda aytish lozimki, aslida ikkinchi jahon urushidan keyin ham dunyoni bo'lib olishga urunishlar tugamagan edi. Bu urushda mag'lub bo'lganlar ham, g'olib bo'lganlar ham keyingi davr siyosatida har qanday yuz berishi mumkin bo'lgan nizolarga qarshi qulay imkoniyatlarga egalik qilish yo'lidan bordilar. Garchi keyingi kurashlar iqtisodiy va informatsion kurashlar yo'nalishida rivojlangan bo'lsa-da, siyosiy mavqeli mamlakatlar va ittifoqlar o'z raqiblarining nozik nuqtalari sifatida hanuzga qadar hududlarni e'tirof etib keldilar. Shu ma'noda AQSH iqtisodiy ta'sir hududi borgan sari kattalashayotgan va jahon siyosatida nufuzi ortib borayotgan Xitoya qarshi Janubiy Koreya va Tayvanni o'z ta'sir hududi sifatida tutib keladi. Boshqacha aytganda, Xitoyning yaxlit iqtisodiy ta'sir hududiga nomuvofiq bo'lib turgan bu nuqtalar AQSH uchun Xitoyni tiyib turishning so'nggi chorasi bo'lib qolmoqda. Keyingi vaqtarda Xitoy va Tayvan o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi aslida kattalashib borayotgan AQSH-Xitoy nizolarini namoyon etadi va bu oxir-oqibatda uchinchi jahon urushining boshlanish nuqtalaridan biri bo'lishi mumkin. Xitoy va Tayvan o'rtasida yuz berishi mumkin bo'lgan qurolli to'qnashuvlar har ikki mamlakat tarafдорлari o'rtasidagi katta urushlarga sabab bo'lishi ehtimoli yo'q emas.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Uchinchi jahon urushini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan hududlar qatoriga bugun Yaqin Sharq mamlakatlari ham qo'shildi deyish mumkin. AQSH va Eron o'rtasidagi xalqaro munosabatlar keyingi 50 yil davomida kelishmovchiliklarning oshib borishi natijasida o'zining eng xavfli yuqori nuqtasiga yetib bormoqda [6]. AQSH o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab Eron nazoratida bo'lgan neft mahsulotlari savdosiga ustidan o'z hukmronligini o'rnatish

uchun kurashib keladi. Bu kurashlarda u ko'plab choralarini qo'llab ko'rmoqda. Eron aholisini o'z hukumatiga qarshi ko'tarish, Eron qo'shnilarini iqtisodiy va harbiy salohiyat nuqtayi nazaridan raqobatchilar sifatida unga qarshi qayrash, Eron xalqaro savdo aloqalariga (xususan neft mahsulotlariga nisbatan) jahon bozorida taqiqlar o'rnatishga urinish, Eron siyosiy yetakchilarini jismoniy yo'q qilishga urinish (Qosim Sulaymoniy timsolida) kabilar AQSH maqsadlarining yaqqol dalilidir. Jahon jandarmi da'vogriga qarshi kurashlarda Eron ham ortda qolayotgani yo'q. Uning uranni boyitish borasida olib borayotgan harakatlari jahon ommaviy axborot vositalariga berayotgan bayonotlarida Eronni nisbatan arzon atom elektr energiyasi bilan ta'minlashga intilish maqsadlarini ifodalasa-da, AQSH va G'arb bu harakatni aslida yadro quroliga ega bo'lishga intilish sifatida izohlamoqda. AQSH va Eron o'rtasida harbiy to'qnashuvlar yuzaga keladigan bo'lsa, Eron Hurmuz bo'g'ozini to'sib, bu yerdan jahon bozoriga o'tadigan neft mahsulotlari (30 foiz) yo'lini to'sish bilan javob qaytarishi, bu esa jahon neft mahsulotlari bozorida katta tanazzulni keltirib chiqarishi bilan tahdid qilib keladi. Ekspertlarning fikricha, bu jahon savdosiga ta'sir qiladi, qolaversa Saudiya Arabistoni, Misr, Yaman va Suriyaning mahsulotlariga suyanuvchi ko'plab Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti va bu mintaqada joylashtirilgan NATO qo'shinlarini og'ir zarbaga yo'liqtiradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, Eron va Saudiya Arabistoni ko'p vaqtlardan buyon neft mahsulotlari savdosida mintqa yetakchiligiga da'vogrik qilib va boshqa ko'plab masalalarda nizolashib keladi. Bu kelishmovchiliklar yakunining ehtimolli to'qnashuv holatida Saudiya Arabistoni AQSHga, Eron esa Xitoy va Rossiyaga suyanishi hozirgi vaqtida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari, Eron va Isroil nizolari ham Yaqin Sharq mintaqasini uchinchi jahon urushi o'chog'iga aylantirishi mumkin. Isroil uzoq vaqtlardan buyon mintqa siyosati, iqtisodiyoti, savdo munosabatlarini nazorat qilishda AQSH va Yevropa Ittifoqi qamchisi vazifasini bajarib kelmoqda. Eron esa bu mintaqada AQSH va G'arb gegemonligini istamaydi. Bunga qarshi Eron G'azo, Suriya va Livanda vujudga kelgan antiisroil harakatlarini qo'llab-quvvatlab keladi. Bunga qarshi esa Isroil mazkur hududlardagi

Eron qarshilik kuchlariga tinimsiz zARBalar beradi, shuningdek, AQSH ko'rsatmalariga ko'ra bir qator Eron rahbarlari, harbiy boshliqlari va olimlarini jismonan yo'qotishga urunishlari bilan Eronni o'zining doimiy dushmaniga aylantirib bo'ldi [7]. Xullas, Eronning yadro quroliga ega bo'lishi, uni o'z ta'sir doiralarida joylashtirishga urunishi va Isroiilning Eron yoki uning ta'sir doirasida bo'lgan hududlarga hujumi, bu nizoga har ikki tomon tarafdarlarining aralashuvi katta urush kelib chiqishini istisno etmaydi.

#### Tahlil va natijalar (Analysis and results).

1947-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarori bilan Isroiilga Falastin yerlarining 52 foizi olib berilgan, qolgan 46 foizi falastinliklarga va 2 foizi neytral Iyerusalim hududlariga ajratilgan edi. Isroiilning 1967-yildan buyon tinimsiz ravishda Falastin yerlarini o'zlashtirib borishi va bosib olgan yerlaridan mahalliy xalqni yo'qotishga urunishi oqibatida falastinliklar Isroiil genotsidiga uchradi va BMT rezolyusiyasida qayd etilgan o'z yerlarining (46+2 %) deyarli uchdan ikki qismini yo'qotib bo'ldi. Falastinning ko'p sonli murojaatlari aslida AQSHning tobe xalqaro tuzilmasiga aylanib bo'lgan BMT yarim asrdan buyon ko'z yumib keladi. Bu esa ko'p sonli to'qnashuvlar fonida Falastinni Isroiilning abadiy dushmaniga aylantirdi. Ayni vaqtida G'azodagi Isroiil-Hamas urushi to'qnashuvlarning global lashuviga zamin hozirlamoqda. Isroiilning BMT murojaatlari va talablarini tinglamayotgani, uni tashkilot sifatida mensimagani, uning rahbarlariganisbatanhaqoratlimunosabatbildirishi butun dunyoda antisemit munosabatlarning o'sishiga olib kelmoqda. Shu tarzda bu o'rinda ham oxir-oqibatda Sharq va G'arb sivilizatsiyalari to'qnashuvi namoyon bo'lmoqda. Isroiilning G'azodagi qirg'inlariga qarshi dunyoning ko'plab mamlakatlarida namoyishlar bo'lib o'tmoqda. Ammo bu uning o'z pozitsiyasini o'zgartirishiga sabab bo'lmayapti va bu holat hududda uchinchi jahon urushi o'chog'ini olovlanmoqda.

Ma'lumki, 1955-yilda Koreya yarimorolining ikkiga bo'linishi o'z vaqtida kapitalistik va sotsialistik kuchlar to'qnashuvining oqibati bo'lgan edi. Bir xalqning ikki mamlakatga bo'linishi bu aslida kapitalistik va kommunistik g'oyalar urushining yadroviy nizolarga aylanib ketishining oldini olish maqsadida nizolarni vaqtincha muzlatishni ifodalardi. Buni ushbu

ikki hududga keltirilgan yadroviy quollar talab etgandi. O'tgan asrning 90-yillarda Sovet Ittifoqi va jahon kommunistik ideologiyasining barham topishi Qo'shma Shtatlar va G'arb qarashlariga ko'ra xuddi Germaniya kabi ikki Koreyani birlashtirishi kerak edi. Ammo bunday bo'lmadi, o'tgan davr mobaynida yadroviy va ballistik quollar ishlab chiqarishni o'zlashtirgan Shimoliy Koreya Qo'shma Shtatlar, birlashgan G'arb va ularning Shimoliy Koreya atrofidagi tarafdarlarining barcha bosimlariga qarshi turib keldi va dunyoning yadro yoki uchinchi jahon urushi o'choqlari qatoriga qo'shildi[8].

Afrika qit'asining markazida joylashgan Kongo Demokratik Respublikasi, unga qo'shni Uganda, Ruanda va Burundi davlatlari o'rtasida 30 yillardan beri davom etib kelayotgan nizolar jahon urushini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablardan yana biri hisoblanadi [9]. Bu mintaqada jahon siyosatida mavqeli mamlakatlar manfaatlari to'qnashuvi vujudga keltirgan harbiy harakatlar, ocharchilik, pandemiya oqibatida hozirga qadar millionlab insonlar halok bo'ldi, millionlab insonlar uysiz, manzilsiz qochqinlarga aylandilar. Bu kelajak xalqaro urushlarining yangi shaklini sinab ko'rishga o'xshab ketmoqda. Ya'ni xalqaro urushlar yuz berganda ayrim mamlakatlar va xalqlar urushsiz ochlik, nochorlik va kasalliklar oqibatida qirilib ketishi ehtimoli yo'q emas.

Afrika qit'asida Jazoir va Marokash hudud masalalarida doimiy nizolashib keladi. Mazkur nizolarning ildizi ularning mustamlaka davrlariga borib taqaladi. 1963-yildan buyon ular mutazam ravishda bir-birlarining territoriyalarini bosib olishga intilib kelishadi. Har ikki tomon qurollanishga katta pul sarflash bilan birga mahalliy va xorijlik yollanma jangarilar vositasida kurash olib boradilar[10]. Bu kabi proksi shakldagi urushlarda esa xalqaro taqiqlangan quollar qo'llanilishi ehtimoli yanada oshadi va bu holatga e'tibor qaratilmaganda yaqin kelajakda mana shunday jangari guruhlar yalpi strategik quollardan foydalanishga o'tishi va bu global to'qnashuvlarga sabab bo'lishini inkor etib bo'lmaydi. Mazkur qit'ada Misr va Efiopiyaning suv resurslari borasida davom etib kelayotgan nizolari [11] ham dunyo urushlariga aylana olishi mumkin bo'lgan nizolar qatoriga kiradi.

Bundan tashqari Rossiya-Gruziya, Ozarboyjon-Armaniston, Kipr yuzasidan

Turkiya-Gretsiya, Dnestrbo'yи hududi tufayli Rossiya-Moldova, Kaliningrad yuzasidan Rossiya-Yevropa Ittifoqi hududiy nizolarining xohlagan biri uchinchi jahon urushiga sabab bo'la oladi. Chunki bugungi to'qnashuvlar global munosabatlarning ham ajralmas qismi bo'lib qoldi. Ya'ni muayyan ikki mamlakat nizosi qisqa vaqtida guruhlashgan davlatlar urushlariga aylanmoqda va shu asosda kelajak urushlarda qarama-qarshi turuvchi koalitsiyalarga birlashish yuz bermoqda.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, bir necha o'n yil ilgari yaqin kelajakda uchinchi jahon urushi bo'lishi mumkinmi, degan savolni tasdiqlovchi javoblarga asos topish ancha mushkul edi. Hozir esa bunday javoblarga asos nihoyatda ko'payib va reallashib bormoqda. Bugun o'ta noziklashib qolgan tinchlik iplarini oddiy ichimlik suvi muammolari uzub yuborishi mumkin. Bugun bu ipni energiya resurslari, oziq-ovqat, irqchilik, millatchilik, terrorizm,

moliyaviy, iqtisodiy, savdo, yollanma mehnat, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, harbiy, madaniy, e'tiqod, g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy, hududiy-ijtimoiy va boshqa xohlagan masalada kelib chiqadigan nizolar nafaqat uzib yuborishi, balki jahon fojiasiga aylantirishi mumkin. Bugun diplomatik qadriyatlar, munosabatlar yuksak minbarlarda turib qo'pol tarzda buzilayapti, xalqaro qabul qilingan me'yorlar oshkora oyoqosti etilayapti, iqtisodiy, moliyaviy resurslar qurol o'rnida qo'llanilayapti, jamiyatlarni aldashning turli shakldagi axborot manbalari rivojlanmoda, ma'naviyatni mensimaslik madaniy an'anaga aylangan, terroristik, g'ayriaxloqiy guruhlar e'tirof talab qilishmoqda, yolg'on, tuhmat, ko'zbo'yamachilik, korrupsiya hatto eng yuqori idora subyektlari uyalmaydigan xarakterga aylanmoqda. Xullas, dunyo xalqlarining bir tomonidan g'azabini, ikkinchi tomonidan asabini kemirayotgan sabablar shunchalik xilma-xilki, bularning ham qaysidir biri uchunchi jahon urushi olovini yoqib yuborishi ehtimoli yo'q emas.

## ADABIYOTLAR

1. Зарипов М.Р. Место Китая в индо-пакистанском конфликте в 21 веке // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2019. – № 11-5.
2. Бжезинский З. Буюк шахмат таҳтаси. – Т.: Trast and Support, 2023. -304 б
3. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. — М.: Изд-во «АСТ», 2003. – 603 с.
4. Нуреев Р., Латов Ю. Когда и почему разошлись пути развития России и Западной Европы. – Мир России. – 2011. – № 4. – С. 24-59.
5. Лукин А. Американо-китайский конфликт в свете истории международных отношений. – Режим доступа: <https://www.imemo.ru/publications/periodical/meimo/archive/2022/1-t-66/>
6. Американо-иранские отношения. – Режим доступа: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
7. Израильско-иранские отношения. – Режим доступа: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
8. Американо-северокорейские отношения. – Режим доступа: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
9. Денисова Т., Костелянец С. Демократическая Республика Конго: политическая нестабильность и фактор Руанды. – Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. – 2023 Vol. 23 No. 1 37-47.
10. Алжиро-марокканские отношения. – Режим доступа: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
11. Соколов Л. Египетско-эфиопские отношения в контексте разногласий по строительству и эксплуатации плотины «возрождение». – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/egipetsko-efiopskie-otnosheniya-v-kontekste-raznoglasiy-po-stroitelstvu-i-ekspluatatsii-plotiny vozrozhdenie>.

# O'ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVINI NOMARKAZLASH- TIRISHDA MAHALLIY VAKILLIK INSTITUTI VAKOLAT VA FUNKSIYALARINING OPTIMALLASHUVI

**ISABAYEV**

*Maqsad,  
siyosiy fanlar bo'yicha  
falsafa doktori,*

*Yoshlar muammolarini o'r ganish va  
istiqbolli kadrlarni tayyorlash  
instituti mustaqil izlanuvchisi*

## ANNOTATSIYA

O'zbekiston mahalliy vakillik organlariga doir tarixiy jarayonlar tahlil etilib, amaldagi mahalliy vakillik organlarining tizimini isloh qilish bo'yicha uning rivojlanish davri alohida bosqichlarda bayon etilgan. Mahalliy hokimiyat organlarini mustahkamlashga qaratilgan vazifalar, markaziy va mahalliy davlat hokimiyyati organlarining ushbu yo'nalishdagi funksiyalari tahlil etilgan. Shuningdek, islohotlarning yangi bosqichida O'zbekistonda mahalliy boshqaruvni nomarkazlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilganligi misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy davlat hokimiyyati organları, vakillik organı, mahalliy vakillik organlarining tizimi, boshqaruvni nomarkazlashtirish, vakolatlarning optimallashuvi, funksiyalar.

## АННОТАЦИЯ

Автор анализирует исторические процессы местных представительных органов Узбекистана, а также описывает этапы развития системы местных представительных органов. Анализируются задачи, направленные на усиление органов местного самоуправления, функции органов центрального и местного самоуправления в этом направлении. Также на примерах освещена реализация мер по децентрализации местного управления в Узбекистане на новом этапе реформ.

**Ключевые слова:** местные органы государственной власти, представительный орган, система местных представительных органов, децентрализация управления, оптимизация полномочий, функций.

## ANNOTATION

The historical processes of the local representative bodies of Uzbekistan are analyzed, and the development period of the system of local representative bodies is described in separate stages. Tasks aimed at strengthening local government bodies, functions of central and local government bodies in this direction are analyzed. Also, the implementation of measures for the decentralization of local administration in Uzbekistan at the new stage of reforms is highlighted through examples.

**Key words:** local state authorities, representative body, system of local representative bodies, management decentralization, optimization of powers, functions.

**Kirish.** O'zbekiston davlatchilik tarixiga nazar tashlasak, xalqimizning davlat va jamoat ishlari doimiy ishtirot etib kelganligiga guvoh bo'lamiz. Fuqarolar o'zi saylab qo'ygan vakillari orqali mazkur jarayonlarda faol bo'lgan. Tabiiyki, vakillik organlari davlat organlari tizimida muhim rol o'ynagan. Buni rivojlangan davlatlar tajribasida ham ko'rish mumkin. Vakillik organlari fuqarolarning to'g'ridan to'g'ri, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylangan deputatlari orqali aholi manfaatlarini ko'zlab ish yuritish va uning nomidan qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'ladi. Bunga tarixiy jarayonlarni tahlil etish orqali amin bo'lamiz. Xususan, Sohibqiron Amir Temur, Nizomulmulk, Abdurazzoq Samarqandiy, Yusuf Xos Xojib, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa bir qator tarixchi allomalar har ishni kengashgan holda hal etish lozimligini e'tirof etishgan.

**Asosiy qism.** Amir Temur "Tuzuklar"ida kengashib ish yuritish to'g'risida qimmatli fikrlar uchraydi. Xususan, asarda shunday deyiladi: "Sayyidlar, ulamo-yu mashoyix, oqil-u donolar, tarixchilarini e'tiborli kishilar hisoblab, hurmatini joyiga qo'ydim. Ular bilan fikrashadim. Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa-da, aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmox lozim. Davlat ishlaringning 9 ulushini kengash, tadbir va mashvarat bilan, qolgan bir ulushini qilich bilan hal qildim"[1].

Nizomulmulk esa o'zining "Siyosatnoma" asarida "Agar podshoh biror ishni amalgalashmoqchi yoki qandaydir zaruratni hal etmoqchi bo'lsa, u, albatta, dono keksalar va ulug'lar bilan mashvarat va kengash qilishi lozim. Har birlari o'z fikrlarini aytib, podshoh ra'yini bilan solishtirib, bir-birlarining fikrlarini eshitib va har taraflama o'ylab, keyin o'rtada ma'qullangan fikrni tanlaydilar. Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va doim shunday yo'l tutish kerak", deb ta'kidlaydi.[2]

Hirotda tug'ilib ijod qilgan Jaloluddin Is'hoq o'g'li Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiy ham

"Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn" asarida "Shohrux Mirzo davlat arboblarini hozir qilib, dunyo ishlari ular bilan maslahatlashish, degan amr taqazosicha, mashvarat qur'asini o'rtaga soldi. Har kim o'z farosat-idrokiga yarasha mamlakat ishlari borasida qaysi so'zni davlat farovonligi uchun durust topgan bo'lsa, arzga yetkazadi"[3] – degan fikrni bildirib o'tadi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub tarixiy, adabiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy asar hisoblangan "Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim")da ham o'sha davrdagi davlat boshqaruvi va jamiyatdagi siyosiy tizim haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Jumladan, asarda davlat boshlig'inining idora qilish usuli haqida shunday deyiladi: "Agar o'tmishtagi ajdodlarga nazar solguday bo'lsang, ular el-yurt tadbirin o'ylashgan. Bugun ham ezgu deb atalgan har qanday odam ezgularga bosh bo'ladi. Boshliq bilimli va dono bo'lsa, atrofiga o'ziga o'xshaganlarni yig'adi"[4].

Mahmudxo'ja Behbudiy ham siyosiy qarashlarini o'zining asarlarida bayon etadi. Misol uchun, 1905-yili nashr etilgan "Kitobi muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" ("Umumiy jug'rofiyadan saylamma kitob") asarida davlatni idora etish usullarini uchga bo'ladi: 1. Idorayi mustaqalla. 2. Idorayi mashruta. 3. Idorayi jumhuriyat. Shulardan ikkinchisi "millat majlisining chilon(a'zo)lari mashvarat ila mamlakatdorlik ishlariq'a aralashadur. Podshoh bu majlis amrig'a tobe'dur. Majlis ma'buson(deputatlar)ning royi bo'limguncha katta ishlarni boshlanmog'iga amr va hukum qilolmaydur. Xulosa, imperato'r sohib ihtiyyor bo'lmay, durustroq ishlarg'a qonun va nizomlarni chiqarilmog'iga butun el majlisig'a tobe' bo'lib turadur"[5].

Vatanimiz hududida sobiq totalitar tuzumga qadar barcha qarorlar aholi yoki uning vakillari bilan kengashib qabul qilinganligini kuzatamiz. Sobiq sovet davrida esa vakillar haqiqatdan ham xalqning chinakam vakiliga aylanmagan, markazning buyruqlarini so'zsiz bajaruvchi rolni o'ynab kelgan.

Mustaqillik davridan boshlab fuqarolarning xalqchil boshqaruv, inson haq-huquqlarini kafolatlovchi va odilona mintaqaviy siyosat yuritila boshlandi. Davlat hokimiysi tizimida amalga oshirilayotgan hokimiyatlar bo'linishi prinsipini vertikala darajada quyi hokimiyat

organlariga tafbiq etish va markaziy davlat organlari vakolatlarini quyi organlarga berib borish siyosatini yanada izchil davom ettirish nuqtayi nazaridan mahalliy Kengashlarning o'zaro munosabatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini takomillashtirish O'zbekiston ittifoq tarkibida turgan davrdanoq boshlangan bo'lib, buni mustaqillik uchun qo'yilgan qadamlardan desak bo'ladi. 1989-yil 20-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston SSR xalq deputatlari mahalliy Sovetlari deputatlari saylovi haqida"gi qonun[6] asosida o'tkazilgan saylov natijasida xalq deputatlari mahalliy sovetlarning tashkil bo'lganligi bu borada qilingan dastlabki amaliy ishlardan edi. Qonunda ayrim masalalar O'zbekiston tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilangan.

1990-yil 18-fevralda O'zbekistonda mazkur qonun bo'yicha mahalliy sovetlarga saylov bo'lib o'tdi. Nomzodlar yuqorida partiya, davlat apparati tomonidan belgilanmay, saylovchilar tomonidan ko'rsatilgan birinchi saylov bo'ldi. 1990-yildan boshlab, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini, tuzilishi va ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bular orasida 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qonun bilan mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ – hokimlik va hokim lavozimi ta'sis etilib, uning vakillik organlariga ham boshchilik qilishi belgilab qo'yildi. Mazkur qonunda birinchi marta qonun me'yorlari darajasida mahalliy davlat organlari vakillik hokimiyati va ijro hokimiyatiga bo'linishi mustahkamlandi.

Mahalliy hokimiyat organlarining vakillik va ijro hokimiyati organlariga bo'linishi hokimiyatchilikning taqsimlanishi borasidagi muhim qadamedi. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida, hokimiyat bo'linish prinsipi konstitutsiyaviy qonunchilik darajasida mustahkamlanib, O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun

chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilishi belgilangan edi. 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi qonunda (*mazkur qonun 1992-yil 8-dekabrda o'z kuchni yo'qotgan*) shu masala mantiqan davom ettirildi va mahalliy hokimiyatning ikki turi huquqiy mustahkamlandi. 1993-yil 2-sentabrda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi[7] boshqaruvining barcha pog'onalar uchun yagonaligi, vakillik hokimiyati faoliyatining qonuniy asoslari mustahkamlab qo'yildi. Biroq, bu bilan hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining quyi bo'g'inda amalga oshirilishiga qaratilgan islohotlar to'xtab qolmadı.

Amaldagi mahalliy vakillik organlarining tizimi 5 bosqichda o'tkazilgan islohotlar natijasida vujudga keldi va uning rivojlanish davri takomillashib bordi:

*Birinchi bosqich* – XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan 1991-yil 1-sentabrgacha, ya'ni respublikamiz mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davr. Bu davrda saylov o'tkazish tartiblariga kiritilgan o'zgartirishlar amalga oshirilgan. Islohotning birinchi bosqichga xos muhim xususiyati, uni O'zbekiston Respublikasi hali ittifoq tarkibida turganida o'tkazilganidir;

*Ikkinci bosqich* – 1991-yil 1-sentabrdan 1992-yil 8-dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida qayd qilingan hokimiyatning bo'linish prinsipi hayotga tatbiq qilina boshlandi. Respublikada ijro hokimiyatini mustahkamlash, ahamiyatini oshirish maqsadida Toshkent shahrida hokim lavozimi joriy qilindi. 1992-yil 4-yanvarda "Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi esa, mahalliy hokimiyatni amalga oshiruvchi ikki mustaqil davlat organlarini qonunan mustahkamladi. Xalq deputatlari Kengashlari mahalliy vakillik organlari, hokimlar ijro hokimiyatining organi deb e'tirof etildi;

*Uchinchi bosqich* – 1992-yil 8-dekabrda Respublikaning birinchi mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan boshlanadi[8]. Shuningdek, 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston

Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi qonun, 1994-yil 5-mayda O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu bosqichda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, vakolatlari va faoliyatining iqtisodiy moliyaviy asoslari belgilandi;

*To 'rtinchi bosqich* – 2000-yildan 2016-yilga qadar davom etib, bu davrda ayrim yangi qonun hujjatlari qabul qilinganidan tashqari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mavjud konstitutsiyaviy huquqiy asoslari takomillashtirildi. Bu davrda mahalliy vakilik organlarni ijro hokimiyati ustidan nazorat funksiyasini ta'minlovchi va kuchaytiruvchi 2007-yil 11-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni, 2014-yil 16-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (32-, 78-, 93-, 98-, 103- va 117-moddalariga)"gi qonuni qabul qilindi.

*To 'rtinchi bosqich* – 2016-yildan hozirga qadar davrni o‘z ichiga olib, Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi davrni boshlab berdi. Mazkur bosqichda davlat boshqaruvini tizimini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish masalasiga e’tibor qaratilib kelindi. Ayniqsa, 2017–2022-yillarda respublikani rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[9], 2022–2026-yillarda Taraqqiyot strategiyasi[10]da ushbu soha ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Davlat boshqaruv tizimini ma’muriy isloq qilishning tasdiqlangan asosiy yo‘nalishlari va vazifalari orasida davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirishning ahamiyati belgilandi.

Tadqiqotchi A.Umarov ta’kidlashicha, 2016-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davrda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan islohotlar O'zbekistonda siyosiy markazsizlashtirish masalasida mavjud status-kvoni saqlab qolgan holda ma’muriy va fiskal markazsizlashtirishni puxtalik bilan amalga oshirishga harakat qilayotganini ko‘rsatadi[11]. Uning fikricha, mahalliy hokimiyat organlarini mustahkamlashga

qaratilgan quyidagi ikki vazifalarni qayd etish lozim:

1. Hududlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, mahalliy budgetlar daromad bazasining o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va mahalliy davlat hokimiyati organlarining viloyat, shahar va tumanlar darajasida ustuvor xarajatlarni shakllantirish bo‘yicha vakolatlarini oshirish.

2. Qarorlar qabul qilish vakolatlarini markaziy hokimiyatdan mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘tkazish va ularning viloyatlar, shaharlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mas’uliyatini oshirish.

Shu o‘rinda, 2017-yil avgust oyidan boshlab viloyatni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi tizimining yo‘lga qo‘yilishi, mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantirishda mahalliy hokimiyatlarning mas’uliyatini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarining qabul qilinishi[12], 2018-yil yakunida mahalliy davlat hokimiyati organlari ham respublika budgetidan bir qator budget tashkilotlarini mahalliy moliyalashtirishga o‘tkazildi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mustaqil faoliyatini faollashtirish maqsadida mahalliy deputatlar faoliyatiga tashkiliy-texnik va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi alohida kotibiyatlarni shakllantirish to‘g‘risida qaror[13] qabul qilindi.

Shu bilan birga, markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ushbu yo‘nalishdagi funksiyalarini farqlash zarur. Nomarkazlashtirish konsepsiyasiga ko‘ra, markaziy hukumatlar odatda harbiy va moliyaviy kabi strategik tarmoqlar ustidan nazoratni saqlab qoladi va mahalliy hokimiyatlarga faqat asosan hududiy masalalarga doir faoliyatlarni tartibga solishni topshirishlari mumkin.

Islohotlarning yangi bosqichida O'zbekistonda mahalliy boshqaruvni nomarkazlashtirish bo‘yicha bir qator amaliy choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 33 ta vakolat va funksiyalar markaziy boshqaruv organlaridan mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘tkazilishi natijada mahalliy hokimliklarning mustaqil qaror qabul qilish darajasi oshishiga erishilgan. Shuningdek, davlat miqyosidagi qarorlar qabul qilishda

mahalliy hokimliklarning ishtirokini ta'minlash qonuniy asoslar bilan mustahkamlanmoqda. Tuman va shahar hokimliklari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash tizimi joriy etilishi natijasida mahalliy budgetlarning ixtiyorida qolayotgan mablag'lar miqdori so'nggi yetti yilda 27 baravarga oshib, 10,1 trln so'mga yetdi[14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdag'i Farmoni bilan hokimlarning yer uchastkalarini ajratish bilan bog'liq bir qator vakolatlari qisqartirildi. Shuningdek, yer uchastkalarining hokimlar tomonidan olib qo'yilishiga taqiq belgilash, yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini tugatish bo'yicha vakolatlarini cheklashga doir vakolatlar optimallashib, bu bo'yicha muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish vakolati hokimlar vakolati doirasidan chiqarilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga berilishi mulkdorlar huquqlarini, ularni mulk huquqidan asossiz ravishda mahrum etishdan himoya qiladi.

Bizning fikrimizcha, hududlarning qiyofasini o'zgartirish, iqtisodiy rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, mahalliy infratuzilmalarni yaxshilash kabi masalalar ko'p jihatdan mahalliy boshqaruvning samaradorligiga, ayniqa, mahalliy vakillik hokimiyati organlari rahbarlari bo'lgan hokimlarning bilim va mahorati, ularning dunyoqarashiga bog'liq bo'lmoqda.

Mahalliy darajada hokimiyatlar bo'linish prinsipini amalga oshirish, ya'ni mahalliy ijro va vakillik organini alohida mustaqil shaxslarga topshirish masalasi uzoq yillardan buyon dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. 2017-yildan boshlab ushbu masalaga, jiddiy yondashgan holda, bosqichma-bosqich turli o'zgartirishlar amalga oshirib kelindi. Xususan, 2017-yilgacha shaharga bo'ysunuvchi tumanlarda kengashlar mavjud bo'lmasan bo'lsa, 2017-yil 29-avgustda Konstitutsianing 99-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Toshkent shahri tumanlarida ham Kengashlar ish boshladi. Ilk marotaba 2017-yilda Toshkent shahar tuman Kengashlariga saylovlarni bo'lib o'tdi. Shuningdek, "Kengash nazorati" instituti kuchaytirildi.

Mahalliy ijro organlari rahbarlari, shu jumladan, sog'liqni saqlash, adliya, ichki ishlar organlari rahbarlari va prokurorning belgilangan muddatlarda Kengashlar oldida hisobot va axborot berish tizimi yo'lga qo'yildi[15]. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi faoliyatiga tashkiliy-texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko'rsatish vazifasi hokimliklar apparatidan tegishli xalq deputatlari Kengashi kotibiyati zimmasiga o'tkazilishi[16] uning ijro hokimiyati ta'siridan holi qilishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Ammo yuqorida sanab o'tilgan amaliy va huquqiy o'zgarishlarga qaramasdan, eng asosiy muammo, ya'ni hokimning bir paytning o'zida ham ijro organi, ham Kengash raisi lavozimini egallashi, huquqiy jihatdan hal qilinmasdan kelinayotgan edi. Bu esa "hokimiyatlar bo'linishi prinsipi"ga zid bo'lish bilan birga, mahalliy darajada hokimiyatlarning bir-birini tiyib turish mexanizmining bузilishiga ham sabab bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022-yil 20-iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda "**... hokimlar bir vaqtning o'zida xalq deputatlari kengashlariga ham boshchilik qilishi haqidagi qoidani Konstitutsiyadan chiqarib tashlash vaqt keldi, deb hisoblayman**" deya ta'kidlab, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi jiddiy o'zgarishlarni konstitutsiyaga kiritish taklifini bergen edi.

Natijada, 2022-yil 27-dekabrdan, 2023-yil 11-yanvargacha qonun loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali([regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz))da hokimning bir vaqtning o'zida mahalliy ijroiya va vakillik organlariga rahbarlik qilish vakolatini bekor qilishga qaratilgan "Mahalliy vakillik organlari to'g'risida"gi qonun loyihasi e'lon qilindi. Mazkur qonun loyihasi 7 ta bob va 58 ta moddadan iborat bo'lib, unda Mahalliy vakillik organi faoliyatining iqtisodiy asosi, uning strukturasi va ular faoliyatining tashkiliy asoslari, xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari, xalq deputatlari kengashi faoliyatida qonuniylik kafolatlari, Kengash nazoratini amalga oshirishga oid qoidalar aks ettirilgan. Biroq ushbu qonun loyihasi hozirga qadar qabul qilinmadni.

Garchi shunday bo'lsa-da, 2023-yil

30-aprelda bo'lib o'tgan referendum asosida qabul qilinib, 1-maydan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bob, 120-moddasida[17] xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, mazkur moddaning uchinchi qismidagi viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish jarayonidagi vakolat va funksiyalarning quyi tizimda ham optimallashuvini tezlashtirdi. Xususan, mazkur qoida 2024-yildan viloyatlar va Toshkent shahar, 2026-yildan tuman hamda shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga tatbiq etiladigan bo'ldi[18].

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 75-maqсадида[19] mahalliy davlat hokimiyati vakillik органларини xalqning chinakam "ovozi"га aylantirish vazifasi belgilangan bo'lib, mahalliy kengashlarning qonunchilik bazasini mustahkamlash, vakolat va funksiyalarini optimallashtirish, hokimlarning mahalliy kengashga rahbarlik qilish amaliyotini to'liq bekor qilish, kengash raisining huquqiy maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari hamda javobgarlik doirasini aniq belgilash kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

2024-yil 2-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga[20] ko'ra, mahalliy Kengashlarning vakolat va funksiyalari aniqlashtirilib, ularning ro'yxati alohida ilova tarzida tasdiqlandi. Davlat va jamiyat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy vakillik organlarining rolini oshirish maqsadida 33 ta funksiya va vakolatlar xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o'tkazildi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning davlat organlarining hisobot(axborot)larini eshitishga doir ayrim vakolat va funksiyalari 10 taga birlashtirilgan holda tizimlashtirildi. Shuningdek, "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida tashkil etish yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish

bo'yicha "yo'l xaritasi" ham ishlab chiqildi.

Mazkur Prezident farmonida belgilangan maqsadlar bizga nima beradi!? Avvalo, mahalliy Kengashlar zimmasiga vazifa va funksiyalar faqatgina qonun bilan belgilanishi, ularning faoliyatiga har qanday aralashishning oldini olishga, mahalliy ijro hokimiyati bilan vazifalarning aniq chegarasini belgilashga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatiga Vazirlar Mahkamasi bilan birgalikda 2024-yilning 1-oktabriga qadar O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, vakillik institutining nazorat funksiyasi va norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish, hudud manfaatlariga oid muhim va dolzarb masalalar yuzasidan parlament yuqori palatasiga takliflar kiritish mexanizmini ishlab chiqish, eng asosiysi mahalliy Kengashlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, byurokratiyaga qarshi choralarни belgilash kabi yo'nalishlar nazarda tutilgan.

Professor, ekspert I.Bekov mazkur mahalliy davlat hokimiyatidagi jiddiy o'zgarishlar mahalliy darajada demokratianing muhim talabi bo'lmish hokimiyatlar bo'linish prinsipining amaldagi ijrosi ta'minlanishiga, joylarda ijro(hokim) va vakillik(Kengash) organlari o'rtasida, "bir-birini tiyib turish" mexanizmi ishlashiga, mahalliy kengash deputatlari o'z saylovchilarini qiyab turgan muammolar yuzasidan, ijro organiga "istihola" qilmasdan so'rov bilan murojaat qilish imkoniyatining kengayishiga, saylovchilarning Kengashlar va deputatlarga nisbatan ishonchining ortishiga, xalq manfaatlarini to'liq ta'minlashga, hokimliklar faoliyati ustidan Kengashlar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

**Xulosa.** Bizning fikrimizga ko'ra, bu o'zgarishlar davlat boshqaruvining quyi tizimida vakolatlarning optimallashtovi, funksiyalarning aniq belgilanishi va tarkibiy alohida shakllanishi mahalliy kengashlarning maqomini yanada oshirib, ijro hokimiyatining "tashqi ta'siri" dan butkul xalos qilishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda, deputatlар xalqning chinakam "ovozi"ga aylanishiga zamin hozirlaydi.

Mazkur amalgal oshirilayotgan tartib-qoidalar

natijsida mahalliy davlat hokimiyati organlari va hokimlar ayrim vakolatlaridan mahrum bo‘lmoqda. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tibbiy yordam sifatining klinik-statistik standartlariga rioxat etilishini nazorat qilish, yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligi, ularni saqlash sharoitlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish kabi vakolatlari bekor qilingan. Shuningdek, hokimlar uy-joy mulkdorlari va uy-joydan foydalanuvchilaridan kommunal xizmatlar to‘lovi va majburiy badallarni to‘lash bo‘yicha qarzlarni undirish to‘g‘risida da’volar bilan sudga murojaat qilish vakolatidan mahrum qilingan[21].

Bizningcha, bu kabi tendensiyalar davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishda hokimiyat vakolatlarining ma’lum bir qismini

Mafkura ma'naviy faoliyatning mustaqil shakli sifatida G'arbiy Yevropa mamlakatlariда XVII–XVIII asrlarda shakllangan ikki jarayon: burjua jamiyatining qaror topishi va fanning yuzaga kelishi bilan chambarchas aloqada vujudga keldi. Qator mamlakatlarda siyosiy hayot maydoniga kishilar ommasini olib chiqqan revolyutsiyalar sodir bo'lgan, ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy munosabatlarda tub o'zgarishlar boshlanib ketgan, fan nufuzi din va cherkov nufuzini siqib qo'ygan davrda kishilar ongiga ta'sir ko'rsatish orqali ularning xulq-atvoriga muayyan maqsadni ko'zlab ta'sir o'tkazish doirasida anglangan ehtiyoj paydo bo'ldi. Sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushunishgina emas, balki ushbu tushunish orqali kishilar ongini boshqarish vositasi bo'lib xizmat qilib, ularning faolligini muayyan ijtimoiy birlikka maqbul bo'lgan yo'lga solishga ehtiyoj yuzaga keldi.

"Fikrlar dunyonи boshqaradi" – fransuz ma'rifatchilarining ushbu hikmatli so'zini butun eski sotsiologiyaga epigraf qilib olsa bo'ladi.

Agar shunday bo'lsa, "fikrlar", ya'ni g'oyalar dunyoga hukmronlik qilsa, u holda, aftidan, ushbu g'oyalardan qay biri haqiqat va qay biri soxta ekanligini ajratib olish zarurga o'xshaydi[4, 61]. Chunki jamiyat birinchisiga ham, ikkinchisiga ham amal qilishi mumkin. Mafkurachilar aynan shu masala bilan shug'ullanishdi. Biroq bu yerda darhol savol tug'iladi: haqiqiy g'oyalarni soxتalaridan ajratib olish imkonini beradigan mezon qani? "Inson tabiatii" shunday mezon deb e'lон qilindi. "Inson tabiatii"ga muvofiq keluvchi g'oyalar – haqiqiy, unga zidlari – soxta. Mafkurachilar shu mavqedan turib feodal jamiyat va uning g'oyalarni qanday qilib "inson tabiatii"ga muvofiq tashkil etish borasida tavsiyalar berishdi.

G'arbda "mafcura" so'zini fransuz iqtisodchisi, faylasufi, siyosiy arbobi, "Institut" deb nomlangan nufuzli tashkilot asoschilari va rahbarlaridan biri Destyut de Trasi istifodaga kiritdi. D. de Trasi "Mafcura unsurlari" ("Элементы идеологии", 1801) kitobida mafkurani g'oyalarni ishlab chiqish, ta'riflash va yoyish bilan shug'ullanuvchi kishilar fikrlari to'g'risidagi fan sifatida belgiladi. "Institut"ning o'zi, aftidan, bugungi kunda jamoatchilik fikri shakllanishiga ta'sir ko'rsatish deb ataladigan ish bilan maxsus shug'ullangan jahonda birinchi tashkilot bo'lsa kerak. 1797-yilda Napoleon Bonapart unga a'zo etib qabul qilinganining o'zi "Institut"ning nufuzidan darak beradi. Bu paytda Napoleon o'zini tez orada davlat hokimiyati tepasiga olib kelgan yo'lda kirgandi.

Destyut de Trasi fikricha, insonning g'oyalar mohiyati nimadan iboratligini chinakam tushunish adolatli va oqilona ijtimoiy tartib o'rnatish imkonini beradi. G'oya bashariy tafakkur va idrokning muhim shakllaridan biri sifatida inson va butun jamiyat hayotida o'ynaydigan keng qamrovli rolni tushunish asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Gnoseologik jihatdan fikrlash jarayonining o'zini ham, uning tafakkur mahsulotlarini ham amalda ro'yobga chiqarishni ma'no va qadriyatlarning mavjudlik shakli bo'lgan g'oyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kishi, eng avvalo, g'oyalar orqali fikrlaydi, o'z maqsad va niyatlarini ular yordamida ta'riflaydi, g'oyalarni biron-bir tarzda gavdalantirish vositasida o'zini amalda ko'rsatadi va uni o'zgartiradi.

Mafcura masalalari XIX asrdayoq ilmiy tadqiqotlar predmeti bo'lgan. M. Veber,

E. Dyurkgeym, O. Kont, K. Manxeym, R. Merton, J. Mill, V. Pareto, T. Parsons, G. Spenser, M. Sheler hamda boshqa tadqiqotchilar asarlari da mafkura va fan, mafkura va haqiqat munosabatlari, mafkura, qadriyatlar tabiat, bilihning obyektivligi va h.k.lar ko'rib chiqiladi. Hatto, "mafkurashunoslik" atamasi ham joriy etilgandi. Mafkura atrofida "bilim sotsiologiyasi" fani (K. Manxeym) paydo bo'lib, uning ma'nosini ijtimoiy hodisalarini turli nuqtayi nazarlarni o'rganish va ularni yaxlit qilib sintezlash vositasida bilihga tayyorlash va bilihidan iborat. Shu munosabat bilan Manxeym yalpi va qisman mafkurani farqlagandi. Qisman mafkura faktlar va hodisalarning ushbu mafkura sohiblarining siyosiy va boshqa manfaatlari foydasiga ozmi-ko'pmi buzilgan in'ikosi bo'lgan g'oyalarning muayyan tizimidan iborat. Yalpi mafkura tushunchasi aholi ayrim qatlamlarining, jamiyat guruhlarining yoxud butun bir davrlarning ong tuzilmasi, fikrlash va idrok etish tipini aks ettiradi.

Shunday qilib, mafkura har qanday zamonaliviy jamiyat mavjudligining ajralmas qismi hisoblanadi. Garchi insoniyat tarixida turli g'oyalar va mafkuralarning ta'siri millat va davlatlarni, xalqlar va jamiyatlarni yo ravnaq topish va ozodlikka, yoki inqiroz va halokatga olib borganiga misollar ko'p bo'lsa-da, bugungi kunda davlat amalda mafkurasiz normal rivojlana olmaydi. Hozirgi asosiy mafkuralarning tayanch qoidalarini tavsiyflab o'tamiz.

**Liberalizm.** Liberalizm, aftidan, ma'naviy hayotning g'oyaviy jihatdan birmuncha shakllangan va o'zini mustaqil mafkura deb hisoblagan tarixan birinchi oqimi bo'lsa kerak. J. Lokk, A. Smit, Sh. Monteske bu oqimning asoschilari deb qabul qilingan. AQSH Konstitutsiyasining "otalaridan" biri T. Jefferson, ingliz faylasufi va iqtisodchisi J. Mill, amerikalik faylasuf J. Dyui, avstriyalik XX asr iqtisodchisi F. Xayek liberalizmning eng yirik vakillaridan hisoblanishadi. XIX asrda Rossiyada faylasuf va huquqshunos B.N. Chicherin liberalizmnинг taniqli vakili bo'lgandi.

Insonning individual erkinligi tushunchasi liberalizm mafkurasining o'zagi, mag'izidir. Bu – liberalollar tomonidan har qanday ijtimoiy, siyosiy, madaniy institutlarni baholashda foydalilaniladigan bosh mezon. Individual erkinlik boshqa kishilar tajovuzidan ham, davlat, hukumatning

aralashuvidan ham ishonchli darajada himoya qilinishi darkor. J. Mill individlarning “serqirra rang-barangligining” rivojlanishiga aslo to’sqinlik qilmaslik lozim, deb hisoblagandi. Buning uchun, liberallarning fikricha, hokimiyatning faoliyati shaxs erkinligi qimmatini e’tirof etadigan muayyan qonunlarga qat’yan asoslanishi darkor. Hokimiyat, shuningdek, xususiy mulkni hamda kishilarning bir-biri bilan erkin bitim tuzish huquqini hurmat qilmog‘i lozim. Liberalizmning individ erkinligi prinsipidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib chiqadigan muhim prinsipi shuki, inson o‘z hayot yo‘lini mustaqil tanlaydi, shu bois bu tanlov uchun o‘zi javobgar bo‘ladi. Boshqacha aytganda, u, eng avvalo, o‘ziga ishonmog‘i lozim. Liberallar tanlashdan qo‘rqadigan, undan qochadigan kishilar odmi, zerikarli, g‘aribona hayot kechirishga mahkumdirlar, deb ishonadilar.

Ushbu qoida zohiran qanchalik jozibali bo‘lmasin, bunday tanlov hech qachon butunlay erkin bo‘lmasligi holati bilan unchalik qovushmaydi. U doimo konkret kishilar tomonidan konkret vaziyatda amalga oshiriladi, uning ko‘plab elementlari, bir tomonidan, individga bog‘liq bo‘lmaydi, boshqa tomonidan esa, uning tanloviga ta’sir ko‘rsatadi, hatto, oldindan belgilab ham beradi. Shunday omillar qatorida kishining tug‘ilish joyi va vaqt, u tug‘ilgan oilaning ijtimoiy maqomi, farovonligi, inson tug‘ilganda unga tabiat ato etgan qobiliyat, salomatlik va h.k.lar bor.

Yaxshi, munosib, baxtiyor hayot kechirishni, yuksak maqsadlarga erishishni kim ham istamaydi? Biroq bu ozchilikka nasib etadi. Ko‘p kishilar hayoti o‘zlar o‘ylaganchalik o‘tmagani uchun emas, balki ko‘plab vaziyatlar tufayli mustaqil bo‘lmay qolishadi.

Bunday vaziyatlar orasida hech qanaqa individual, shaxsiy nazoratga bo‘ysunmaydigan tasodiflar ham bor. Mazkur omillar hech qanaqa, hatto, eng liberal yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumni ham bartaraft etishga qodir emas.

Liberalizmning boshqa muhim qoidasi – minimal davlat konsepsiysi. Uning mohiyati shundaki, iqtisodiyot davlat aralashuvidan xoli bo‘lmog‘i darkor [5, 63]. Uning boshqaruvchilik ta’sirini erkin bozor raqobatiga xalal bermaydigan eng kam darajaga keltirish lozim. Davlatni majozan iqtisodiyot huzuridagi “tungi qorovul”ga o‘xshatish bu pozitsianing obrazli ifodasi bo‘lib

oldi. Davlatning ijtimoiy sohadagi ta’siri ham eng kam darajada bo‘lmog‘i kerak. Umuman, davlat aralashuvi iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi zo‘ravonlik va vijdonsizlikni, nohalollikni bartaraft etish uchungina zarur. Liberallarga paternalistik davlat maqbul emas.

Demokratiya masalasida liberal mafkura noaniq, ziddiyatlidir. Basharti demokratiya ko‘pchilik irodasiga asoslangan tartib bo‘lsa, u individning erkinligini, ozchilikning manfaatlarini kamsitishga, cheklashga, qisqasi, liberallar ko‘pchilikning zo‘ravonligi deb ataydigan holatga olib keladi.

Shu sababli demokratiya liberallar uchun oliv qadriyat hisoblanmaydi. U individning asosiy erkinliklariga tajovuz qilmasagina, ko‘pchilikning hokimiyati chegaralarini aniq belgilab beradigan mexanizmlarga ega bo‘lgandagina maqbul hisoblanadi.

Bir qator davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatida liberalizmning amalda qo‘llanilishi uning uchun katta oqibatlar keltirdi. Bir tomonidan, liberallar o‘zlarining ayrim asosiy prinsiplaridan voz kechishga majbur bo‘lishdi. O‘tgan asrning 20–30-yillarda Angliyada davlatning ijtimoiy sohadagi rolini kuchaytiruvchi qonunlar qabul qilingani buning misolidir. Boshqa bir misol – AQSH prezidenti F.D. Ruzveltning XX asrning 30-yillarda mamlakatni og‘ir inqirozdan, iqtisodiyotni davlat tomonidan qattiq boshqarish tizimini yaratish yo‘li bilan olib chiqish imkonini bergen “yangi kursi”dir. Boshqa tomonidan esa, “farovonlik davlati”, “umumiyo rohat-farog‘at davlati”ni barpo etishga yo‘naltirilgan “sof liberal” siyosatni o‘tkazish borasidagi ko‘plab intilishlar muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Boz ustiga, liberalizmdan ko‘ngil qolishiga olib keldi.

Liberal mafkurachilar ko‘plab yillar davomida hokimiyatning qo‘llab-quvvatlashidan, ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, mamlakatning yetakchi intellektual kuchi bo‘lishini da’vo qilib kelishdi. Biroq XX asrning 90-yillarda ro‘y bergen tub iqtisodiy tanazzul va aholi ko‘pchiligi turmush darajasining keskin pasayib ketishi Yevropadagi liberallar tomonidan yuritilayotgan siyosat mamlakatlar sharoitiga mos kelmasligini namoyish etdi. Oqibatda aksar hollarda liberallar jamiyatda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni boy berishdi.

Liberalizmning libertinism singari zamonaviy shakli paydo bo'lgani jahonda liberalizm sha'niga kuchayib borayotgan tanqidga munosabat bo'ldi. Klassik liberalizm tarafдорлари davlatning muayyan darajada aralashuviga yo'll qo'yish mumkin, deb hisoblashadi. Libertinistlar hokimiyatni mutlaq ofat deb hisoblab, bu masalada anarchistlarga yaqinlashadilar.

Umuman, hozirgi liberallar, shu jumladan rossiyalik liberallar ham o'z mafkuralarini to'g'rilash, taftish qilish, uni hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy voqeqliklar bilan muvofiqlashtirish zarurligini anglamoqdalar.

**Konservativizm.** XIX asr ingliz davlat arbobi E. Byork tomonidan asos solingen deb hisoblanadigan konservativ mafkura tarafдорлари ijtimoiy hayot tarkib topgan an'analar bilan yo'g'rilgan, degan fikrdan kelib chiqishadi. Shu bois ular mavjud muassasalar, institutlarga avaylab munosabatda bo'lish uchun kurash olib borishadi, asta-sekin, o'tmisht bilan taqqoslab qilinadigan o'zgarishlarnigina qo'llab-quvvatlashadi. Yechilgan muammolarni tarixan tarkib topgan ijtimoiy qoidalar qadrini tushunadigan, davlatchilik borasida zarur tajribaga ega bo'lgan kishilar amalga oshirishi lozim.

Konservatorlarning yangilikka intiluvchi har qanday ijtimoiy, siyosiy bilimga, universal haqiqiy abstraksiyalar, prinsiplar, nazariyalar mavjud deb, qattiq turib oladigan olimlar hamda nazariyotchilarga nisbatan skeptiklarcha munosabati shundan. Chunki oqilona, yaxshi, maqbul narsalar an'analarda, mavjud qonunlarda, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy institutlar va tuzilmalarda allaqachon gavdalangan.

Konservativizmning xususiyatlardan yana biri – universal inson tabiatini mavjudligini inkor etish. Uning vakillari fikricha, kishilarning ehtiyoji, istaklari, qiziqishlari joy, vaqt va ularning hayot sharoiti bilan belgilanadi. Binobarin, kishilar mustaqil shakllana olmaydilar. Bu jarayon ijtimoiy amaliyot, ijtimoiy va siyosiy institutlar ta'siri ostida ro'y beradi.

Barcha kishilar huquq va erkinlikda teng bo'lgani bilan, qobiliyatda, salomatlikda, imkoniyatlarda teng emasligini konservatorlar yaxshi tushunishadi. Shu bois barcha sohalarda tenglikni amalga oshirishga da'vo qilayotgan demokratiyani mutlaqne'matdeh hisoblamaydilar.

Ularning fikricha, adolat qonunlarning xolis va aniq qo'llanishidan ortiq narsa emas.

Nihoyat, konservativizmning millatchilik singari xususiyatini ham ko'rsatib o'tish zarur. Konservatorlarni, shu jumladan zamonaviylarini ham, jahonda ro'y berayotgan jarayonlar, shuningdek, globallashuv ham, o'z mamlakatlaridagi ahvolga ta'sir etishiga ko'ra qiziqtiradi. Ular, milliy manfaatlar talab qilmasa, boshqa davlatlar ishiga aralashishga qarshidirlar, "yevropachalashtirish"ga o'xshash hech qanday transmilliy loyihalarga, garchi vaziyat tazyiqi ostida amalga oshirishga majbur bo'lishsa-da, vazminlik bilan munosabatda bo'lishadi.

**Plyuralizm** (lot. "rlralis" – ko'plik, xilmallik so'zidan) – ijtimoiy-siyosiy universumning ko'pligi, vositaliligi prinsipiiga asoslangan mafkura [3, 65].

Mafkurada plyuralizm mazmunan ishtirokchilar yetarli darajadagi xabardor va mafkuraviy ta'sir makoni ochiq bo'lgani holda, ijtimoiy-siyosiy muammolarni senzurasiz, to'siqlarsiz muhokama qilish imkoniyatini anglatadi. Plyuralizm ongingin asosiy vazifasi hozirgi dunyoning konfliktliligineng kam darajaga keltirish uchun asos hamda shakllarni izlashdan iborat.

Demokratik jamiyatning (gap G'arb yoki Sharq haqida borishidan qat'i nazar) allaqachon ushbu huquqlarga ega bo'lgan fuqarolari uchun bu borada aytarli muammo yo'q. Totalitar tuzum va, jumladan, sovetlardan keyingi makondagi mamlakatlar fuqarolariga kelganda, ish boshqachadir. Ular o'nlab yillar davomida ushbu huquqlardan mahrum edi yoki deyarli mahrum bo'lib kelgandi. Hokimiyat boshida turgan ishchilar sinfi, mehnatkashlardan zo'ravonlik bilan tortib olingan hokimiyatni boy berishdan cho'chigan partiya-davlat byurokratiyasi o'zgacha fikrashdan ham, siyosiy plyuralizmdan ham qo'rqardi. Nomenklatura ularning farqini yaxshi tushunmasa-da, har qanday plyuralizm, u g'oyaviy bo'ladimi yoki siyosiyimi, baribir, o'zining tortib olingan hokimiyatiga bo'lgan monopoliyaga tahdid solishini his etardi. Chunki g'oyaviy plyuralizmsiz hokimiyat kimga tegishli, u xalqqa tegishlimi, degan masalani qo'yib ham bo'lmasdi. Siyosiy plyuralizmsiz esa ushbu hokimiyatni xalqqa qaytarish uchun kurash olib borib bo'lmas edi.

Byurokratiya va uning mafkurachilari g'oyaviy va siyosiy plyuralizmni "burjuaziyaning juda xavfli ixtirosi", ilmiy aniqlikka yot bir narsa sifatida qoralash va taqiqlash maqsadida "g'oyasizlik va mafkuraviy taslimchilik" dan tortib, "siyosiy jihatdan sinflardan yuqori qo'yilishi va har qanday narsani quritishi" gacha bo'lgan jild-jild soxta dalil-isbotlarni to'qib chiqarishdi.

G'oyaviy plyuralizm yoki fikrlar xilma-xilligi kishilarning har xil fikrlashining abadiy, tabiiy shakli bo'lib, usiz insoniyat rivojlana olmaydi. Har bir sohada har bir kishi o'ziga xos noyob bo'lib, o'z bilim saviyasiga va betakror tajribaga ega; kishilarning aqliy qobiliyati ham bir xil emas, shu bois har bir muayyan lahzada biron-bir masalada har kim boshqalarning fikridan butunlay yoki nimasi bilandir ajralib turadigan o'z fikriga ega bo'ladi. Bu tabiiy o'zgacha fikrlash bo'lib, pirovard natijada insoniyatning buyuk boyligi, uning kundalik tafakkur jamg'armasi, bitmas-tuganmas bilim manbayi hosil qilinadi. Siyosiy plyuralizm – ijtimoiy jihatdan ajralgan jamiyatning, uning siyosiy munosabatlarining mahsuli, uning rivojlanishi shart. Ushbu hodisaning mohiyati turli ijtimoiy guruhlar, sinflar, qatlamlar manfaatlariidagi tafovutlarning obyektiv ravishda taqozo etilishidan, binobarin, ushbu manfaatlар va ularni siyosiy sohada ifodalash shakli rang-barangligidan iborat. Hatto, manfaatlardagi tafovutlar turli sabablarga ko'ra e'tibordan soqit qilinsa-da, ularni izhor etish va himoya qilishning rasmiy, qonun bilan e'tirof etilgan hech qanday shakllariga yo'l qo'yilmasada, sinfiy jamiyatda manfaatlар xilma-xilligini bartaraf etib bo'lmaydi.

G'oyaviy plyuralizm singari, siyosiy plyuralizm o'zining mavjudlik vaqtiga va sharoitiga ko'ra ham, predmet jihatidan ham farqlanadi, ijtimoiy hayotning turli elementlari, turli jihatlari uning mazmunini tashkil qiladi. Lekin bugina emas, balki davlat-huquqiy tafovut ham bor. Shaxsiy boylik bo'lgan g'oyaviy plyuralizm huquqiy davlatda yuridik jihatdan sudga tortilmaydi. Bugungi kunda sivilizatsiyalashgan biron ta davlatda turlicha fikrlaganlik, rasmiy fikrga mos bo'lmagan fikr uchun, ya'ni o'zgacha fikrlaganlik uchun kishi sudlanmaydi va jazoga tortilmaydi. Bunday fikr har bir kishining e'tiqodi bilan bog'liq, taqiqlanishi

yoki zo'ravonlik bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan boyligidir. O'z hokimiyatini, hatto, kishilar tafakkuriga ham o'tkazmoqchi bo'lgan partiya-davlat byurokratiyasi ushbu elementar demokratik prinsipni hech qachon tushunmagan va tan olmagandi.

Shu bilan birga, mafkuraviy hamda siyosiy plyuralizm o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqani inkor etib bo'lmaydi. Chunki bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlар juda keskin g'oyaviy bahs-munozaralarni va mafkuraviy o'zgacha fikrlashni yuzaga keltiradi, bu esa, o'z navbatida, tegishlich tarzda shakllanadigan, ifodalanadigan hamda amalga oshiriladigan siyosiy plyuralizmga olib keladi.

Tarix guvohlik berishicha, insoniyat o'z rivojlanishining turli bosqichlarida xilma-xil maqsadlarni oldiga qo'yib, ularni rang-barang vositalar, shu jumladan mafkura yordamida hal qilib kelgan. Hozirgi bosqichda mafkura har xil millat va elatlar vakillaridan iborat millionlab kishilar hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda, ijtimoiy ong shakllanishida qudratli omil bo'lmoqda. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar [4, 20].

Biroq jamiyatda mafkuraga munosabat doim ham bir xil bo'lmagan. G'arb sotsiologik fikri doirasida mafkuraga qarashlarning rivojlanishida vaqt jihatidan bir-birining o'rnini bosuvchi ikki tendensiya aniq ko'zga tashlanadi:

1. Yalpi "mafkuradan xoli qilish" konsepsiysi (XX asrning 50-yillari o'rtalari – 70-yillari boshi, qaytadan – 80-yillar o'rtalari). Mualliflar R. Aron, D. Bell, S.M. Linset, K. Popper, E. Shillz va boshqalar. Bu konsepsiyaning asosiy tezisi pozitivchilik xususiyatiga ega bo'lib, uningcha, fanning ta'siri oshib borishi mafkuraviy tizimlar ta'siri pasayishiga olib keladi. Demokratik industrial jamiyatda hokimiyatning chinakam mexanizmlari noaniq bo'lgan, turli mafkuralar hamda qadriyatlarning ma'no-mazmun chegaralari yo'qolayotgan, g'oyaviy qadriyatlar sohiblarining ijtimoiy, ma'naviy va boshqa parametrlar bo'yicha keng tarzda tabaqlanishi, mafkuraning faoliyatni boshqaruvchi qadriyat sifatidagi roli nomuayyanlashuvi bunday qarashlar rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Moddiy ishlab chiqarish texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda inson faoliyatining "obyektiv" omillari (axborot, tabiat resurslari,

ekologik va h.k.) tobora ko‘proq ahamiyat kasb eta boradi. Inson hayotining obyektivlashuvi sodir bo‘ladiki, natijada g‘oyaviy konsepsiylar qandaydir ikkinchi darajali xususiyat kasb etadi.

2. “Mafkuraga qaytish” konsepsiysi. A. Viner, J. Loj, shuningdek, “mafkuradan xoli qilish” konsepsiysi mualliflarining ko‘pchiligi ushbu konsepsiya vakillaridir. Kommunistlar va ishchilar mafkuralariga qarshi turish “mafkuraga qaytish” konsepsiysi harakatining asosiy sabablaridan biri edi. Ijtimoiy hayotni mafkuradan xoli qilish intelligensiya, ilmiy, talabalar muhitini

an’anaviy ravishda oziqlanib kelgan umummilliyl g‘oyalar va qadriyatlarda muayyan bo‘shliq paydo bo‘lishiga olib keldi. Mafkuraga qaytish omili – axborot, tabiiy resurslar, ekologiyaning ahamiyati oshishiga kelganda esa, atrof-muhitning holati hamda davlatlararo mojarolar tahdidi barcha mavjud va bir-biriga qarshi mafkuralarni yangi, gumanistik g‘oyalar hamda “umuminsoniy qadriyatlar” nomi bilan murosaga keltirishi mumkin bo‘lgan, hamma uchun “global, olamshumul” mafkurani yaratishni zarur qilib qo‘ydi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-t. – T.: “O‘ME” DIN, 2003. –525-b.; Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T.: “Sharq”, 2004. – 244-b.; Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 289-b.; Milliy g‘oya... – T.: “Akademiya”, 2007. – 185-b.; Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. – O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2021. – 303-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 292 bet.
3. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – B.60, 61, 63, 65.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2001. – B.20.

# РОЛЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ МОРАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ОБЩЕСТВА

**ЭШМУРОДОВ**

*Акбар,*

*д.п.н. (PhD), вр. и.о. доцента кафедры «Социально-политических наук» Образовательного университета «Ренессанс»*

## АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется духовно-нравственному воспитанию молодого поколения, защите его от духовных угроз, а также зарубежному опыту в этом отношении, в современную эпоху, когда проводится злонамеренная политика различных политических сил на международной арене в целях достижения стратегических планов, а проблемы бездуховности в эпоху глобализации обострились. А также приведен ряд предложений по духовно-нравственному воспитанию молодого поколения, связанных с данной проблемой.

**Ключевые слова:** глобализация, дети, молодежь, семья, родители, духовно-нравственное воспитание, духовность, духовная угроза, образовательные учреждения.

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlarning strategik rejalariga erishish yo'llidagi g'arazli siyosati hamda globallashuv davridagi ma'naviyatsizlik muammolari kuchaygan bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ma'naviy tahdidlardan asrash, va qolaversa, bu boradagi xorijiy tajribaga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, muammo bilan bog'liq yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha bir qator takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, bolalar, yoshlar, oila, ota-oná, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviyat, ma'naviy tahdid, ta'lim muassasalari.

## ANNOTATION

This article focuses on the spiritual and moral upbringing of the young generation, protecting them from spiritual threats, as well as foreign experience in this regard, in today's era, when the biased policies of various political forces in the international arena in order to achieve the strategic plans and the problems of lack of spirituality in the era of globalization have intensified. Also, a number of suggestions on spiritual and moral education of the young generation related to the problem were given.

**Key words:** globalization, children, youth, family, parents, spiritual and moral education, spirituality, spiritual threat, educational institutions.

Сегодня предвзятая политика различных политических сил на международной арене в целях достижения своих стратегических планов и бездуховность в эпоху глобализации представляют серьезную угрозу безопасности и развитию личности, общества и государства. Тот факт, что дети и молодежь являются основными объектами этих вызовов, показывает, насколько актуальна эта проблема. Их цель – разрушить духовно-нравственный мир наших детей посредством различных деструктивных идей с использованием современных информационных технологий. По этой причине сама жизнь требует новых подходов к защите детей и молодежи от негативных последствий моральных опасностей и вызовов.

Естественно, развитие и будущее любой страны напрямую зависит от эффективности государственной политики в отношении молодежи, национальной системы образования и постоянной деятельности по обеспечению моральной и нравственной безопасности в обществе. В этом плане нашим государством проводится системная работа, в том числе реализуются специальные государственные программы по присвоению наименования годам. В частности, 1998 год – объявлен годом «Семьи», 2000 год – годом «Здорового поколения», 2001 год – годом «Матери и ребенка», 2008 год – годом «Молодежи», 2010 год – годом «Совершенного поколения», 2012 – годом «Крепкой семьи», 2014 – годом «Здорового ребенка», 2016 – годом «Здоровой матери и ребенка», 2021 – годом «Поддержки молодежи и укрепления здоровья населения». 2023 год был объявлен годом «Ориентации на людей и качественного образования», а новый 2024 год назван годом «Поддержки молодежи и бизнеса».

Действительно, роль системы духовно-нравственного воспитания важна в формировании мировоззрения и сознания подрастающего молодого поколения, основанного на духовно-нравственных ценностях, и обучению

применению их в жизни, и представляет собой процесс на их основе. Духовно-нравственное воспитание состоит из слов духовность и нравственность. Духовность – (араб. - совокупность значений) - совокупность философских, правовых, научных, художественных, моральных, религиозных идей и представлений людей, тогда как мораль - совокупность действий, манер поведения, которые проявляются в отношениях людей друг к другу, семье и обществу.

Необходимо подчеркнуть, что нравственное воспитание является одной из важнейших составляющих воспитания детей, которая формируется с первых лет жизни ребенка. У него складывается соответствующее отношение к окружающим, исходя из того, что он видит и слышит каждый день. То, как взрослые ходят, действуют, оценивают ребенка и окружающих людей, оказывает большое влияние на формирование духовного образа ребенка. В связи с этим учёный-философ Э. Юсупов признает, что «человек рождается от родителей, но его нравственные качества формируются в обществе, под влиянием социальных, политических, экономических отношений» [1].

Поэтому одним из наиболее актуальных вопросов эпохи глобализации является процесс нравственного и духовного воспитания молодого поколения. В связи с углублением социального расслоения, неравным доступом к достойному труду, медицинским, социальным и другим услугам в них возникают различные негативные взгляды и подходы. Это одна из наиболее острых проблем, стоящих перед современным обществом. Поэтому одной из приоритетных обязанностей общества и государства является создание условий для взросления, духовно-нравственного воспитания молодежи, обеспечение постоянного общения с подростками и молодежью.

Учитывая важность обязательств государства по охране здоровья детей и молодежи, обеспечению их физического, умственного и духовного развития, к этой задаче необходимо подходить очень взвешенно, опираясь на научно обоснованные выводы. Потому что иногда решения, принятые «впопыхах», необдуманные мероприятия могут подорвать доверие молодого поколения в результате необдуманных

действий. В результате среди молодежи заметен моральный и правовой нигилизм. Правовой нигилизм является элементом общественного сознания, который ярко проявляется в пренебрежении правовыми нормами, неуважительном к ним отношении или отрицании.

Открыто говоря, наши дети сегодня воспитываются на насилии, грабежах богатых, преступности, фильмах о бандитах и жестоких интернет-играх. Это приводит к эрозии и разложению духовных ценностей. Для всех нас верно, что процессы духовного упадка современной молодежи не являются мифом.

Из-за отсутствия интереса к чтению и образованию среди молодежи, а также разрыва во взаимопонимании между родителями и детьми, мир телевидения и Интернета становится лучшим другом и близким собеседником подростков и молодежи. Когда-то у молодежи была зависимость от казино, игровых автоматов и азартных игр, сейчас же интернет-игры вызывают все большую зависимость. Печально, что эта зависимость происходит дома, на глазах у родителей. Мы считаем, что основная причина появления негативных заболеваний заключается в том, что подростки и молодые люди не осмысленно и эффективно организуют свое свободное время.

Воспитание молодого поколения всегда было одним из вопросов, привлекавших внимание ученых. Абу Наср Фараби не представлял для себя знающего и умного человека без морали, он говорил, что «знание и ум должны быть украшены хорошей моралью» [2]. А. Фитрат в своей работе «Семья» подчеркивает важность умственного воспитания, физического воспитания и нравственного воспитания в воспитании детей. Важнейшим из этих трех процессов является нравственное воспитание. Вы можете тренировать своего ребенка умственно и физически столько, сколько захотите, и сделать его мудрым и сильным настолько, насколько сможете. Но если нравственное воспитание не находится на должном уровне, ребенок использует свой ум и физическую силу во вред себе или окружающим. Поэтому он указывает на необходимость серьезно заниматься нравственным воспитанием ребенка, чтобы умственное и физическое воспитание ребенка не стало неэффективным [3].

В других странах духовно-нравственному воспитанию молодого поколения уделяется особое внимание, и роль системы образования в этом процессе значительна. В частности, в Китае родители стараются вложить в ребенка как можно больше, независимо от доходов семьи. Причина тому – жесткая конкуренция. Эксперты выделили восемь необычных методов, используемых китайцами в воспитании детей [4].

**1. Дети в детский сад принимаются с двухмесячного возраста.** Китайские дошкольные учреждения принимают двухмесячных малышей. Там о ребенке заботятся специальные няни. Только дети-счастливчики находятся под заботой своих бабушек. В нашей стране даже детей двух-двух с половиной лет не принимают в государственные дошкольные образовательные учреждения, потому что они «еще не достигли детсадовского возраста». Большинство наших бабушек заняты вечеринками (гап), свадьбами и не имеют времени присматривать за внуками.

**2. До трёх лет обучают счёту, рисованию и письму.** В Китае большое внимание уделяется дошкольному образованию. С полутора лет ребенка учат считать, рисовать и петь. В два с половиной года малыш поет несколько стихов и песенок, а в три года понимает различные иероглифы. Программу, которую осваивают китайские дети к трем годам, наши дети иногда не усваивают и к шести годам. Почему так? На самом деле интеллектуальный потенциал наших детей не уступает их собственному.

**3. Семилетний мальчик готовит обед.** С семи лет не считается зазорным для девочек участвовать в ремонтных работах, а для мальчиков мыть посуду и готовить обед. Приготовление обеда семилетним ребенком может показаться вам жестокостью. Однако это готовит ребенка к самостоятельной жизни.

**4. Выносливые, терпеливые мальчики.** Китайские девочки и мальчики настолько выносливы, что для них вполне естественно засыпать на своих местах, когда они очень устали. А для нас уложить детей спать ночью стало важнейшей задачей. Что касается терпения, то они не выносят даже небольшой задержки со

сном, сразу плачут. Ведь этому мы их сами на-учили.

**5. Они терпеливы.** Матери учат своих детей выдержке и терпению. Если мама пойдет за покупками в магазин, ребенок будет молча ждать ее часами. Если наших детей хоть на мгновение оставить без присмотра, они перевернут все с ног на голову.

**6. Они говорят правду.** Китайцы привыкли говорить правду. Если дочь начинает прибавлять в весе, мать говорит ей, что ей нужно похудеть. В этом случае девушка не расстраивается и начинает соблюдать диету. Наши матери заставляют своих дочерей есть как «коблобок» говоря: «Если ты съешь еще немного, ничего не случиться». Мать, которая открыто скажет о недостатки дочери, попадет в беду.

**7. Они ожидают только «отличных» оценок.** Китайские семьи ждут от своих детей только отличных оценок. Если их чадо получит четверку, в доме будут крики и беспорядки. Пока в дневнике не появится оценка пять, родители постоянно занимаются с ребенком. Среди наших родителей много тех, кто говорит: «Сойдет». «Что, ты обучаясь будешь дарить мне город?» Есть те, кто говорит, что «если ты закончишь школу, ты продолжишь дело отца».

**8. Родительская гордость.** В Китае родитель, жертвующий жизнью ради своего ребенка, как и мы твердо верит, что однажды он будет гордиться им. По их мнению, каждый человек с младенчества осознает свою силу и учится использовать ее в дальнейшем.

Если мы посмотрим на японскую систему образования в этом отношении, то увидим, что большой прогресс был достигнут за счет реформирования образовательных процессов, правовых основ и системы образования. Следует отметить, что в Японии к детям относятся очень ответственно и системе дошкольного образования уделяется большое внимание. Японцы считают, что у ребенка должна формироваться культура поведения и коммуникации, а от учащихся требуется уважать других, быть добрым к животным, благородным, бережным к природе [5].

Основная цель образования во Франции – обеспечить развитие человека во всех аспектах, подготовить его к самостоятельной

деятельности, научить учащихся предпринимательству, бизнесу и эффективности в условиях рыночных отношений и иметь соответствующую профессию. Во французских школах родной язык, литература и математика являются основными предметами, а история, география, трудовое воспитание и физическое воспитание – развивающими предметами. Первой ступенью системы образования является дошкольное образование. Этот этап еще называют «Школой матерей» [6]. Основная цель от этого – приблизить школьные условия детей к домашним условиям, сформировать с ними теплые отношения как в семье.

Немецкие педагоги считают, что не бывает не талантливого ученика. Соответственно, они стремятся открыть неизведанные стороны личности ученика, воспитать его в духе новаторства и изобретательства. «Если я думаю, то я живу!» говорит знаменитый философ Рене Декарт. В школах это изречение принимают как золотое правило. Педагоги прежде всего стремятся добиться того, чтобы у ученика было независимое мнение, даже если оно ошибочное. А образовательный процесс опирается на органическое сотрудничество родителей и учителей [7].

Соответственно, в сегодняшнее время, когда обострились конфликты интересов между международными силами, как никогда важно уделять серьезное внимание духовно-нравственному воспитанию молодого поколения, воспитывать его в духе лояльности к национальным идеалам, уважению традиций и ценностей, а также приобретение ими современных знаний и профессий. На основании вышеизложенного можно сделать следующие выводы:

во-первых, необходимо в каждом возрасте формировать такие качества, как гуманность, патриотизм, национализм, трудолюбие, направлять имеющиеся у нас и неорганизованные духовные резервы к единой цели, повышать внимание к усилению эффективности духовно-просветительской деятельности;

во-вторых, на основе международного опыта необходимо создать школы «Бабушки и дедушки» и «Отцы и матери» на дошкольном и общеобразовательном уровне образовательной системы. Например, в дошкольном учреж-

дении бабушка и дедушка могут организовать для детей демонстрацию по посадке деревьев или бабушки и дедушки могут рассказывать детям рассказы после обеда.

в-третьих, необходимо формировать в семье уважение к чтению, спорту и искусству, национальным традициям и ценностям на основе личного примера родителей в воспитании детей, оценивать каждого ребенка как уникальный капитал и создавать широкие возможности для них. Махмудходжа Бехбуди, один из лидеров движения джадидизма, известный просветитель и общественный деятель, говорил: «Если мы, туранцы, потратим свои деньги на путь науки и религии, мы будем развиваться, как европейцы, и мы приобретем престиж и процветание в себе и в нашей религии. Нет, если мы будем продолжать так, как сейчас, у нас не будет ничего, кроме нищеты для религии и мира» [8], эти слова должны стать главным девизом каждого родителя.

в-четвертых, необходимо расширить уровень включения молодежи в различные дополнительные мероприятия, в том числе в профессиональные центры, центры изучения языков, с целью формирования культуры чтения и использования информации у молодых

людей. Учить проводить свободное время осмысленно;

в-пятых, необходимо усилить государственный и общественный контроль за программами СМИ, фильмами и интернет-ресурсами, оказывающими негативное влияние на нравственное и духовное воспитание нации, в том числе молодого поколения. Например, в Китае, чтобы оградить людей от фильмов, сериалов и песен, отрицательно влияющих на национальную духовность и воспитание молодежи, действуют и борются с ними различные неправительственные, патриотические организации. На основе этого опыта необходимо создать целевые неправительственные и некоммерческие организации по вышеуказанным направлениям, которые борются с моральными вызовами в нашей стране.

В завершение нашего выступления, приведем слова Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева, о том, что «сегодня Узбекистан смело делает шаг к новому этапу своего развития», или «сегодняшний Узбекистан – это не Узбекистан вчерашнего дня.» Необходимо, чтобы каждый гражданин, проживающий в нашей стране, понимал, что он несет ответственность за духовно-нравственное воспитание подрастающего поколения, независимо от того, кем он является, и осознавал, что обеспечение моральной безопасности является национальной идеей. Потому что сегодня, не обеспечив духовную безопасность, человек, общество и государство не могут обеспечить свою безопасность.



## ЛИТЕРАТУРА

1. Yusupov E. Ma’naviy kamolot omillari. – Toshkent: Universitet, 1995. – B. 3.
2. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1996. – B.14.
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: Ma’naviyat, 2000. – B. 83.
4. <https://www.uchquduq.uz/matbuot-xizmati/yangiliklar/item/3083-bola-tarbiyasining-khitojchassakkiz-usuli>
5. <https://adolat24.uz/?p=23014>
6. <http://ww38.uz.denemetr.com/docs/768/index-94954-1.html?page=5>
7. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/talim/istedodsiz-tolib-i-ilmning-uzi-ju/>
8. <https://zarnews.uz/post/hozirgi-holimizga-davom-etsak-din-va-dunyoga-zillat-miskinatdan-boshqa-nasibamiz-bolmaydur>

# YER UCHASTKALARINI O'ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLAB OLISH OQIBATLARI VA BU SOHADA DAVLAT SIYOSATI

**BOBOKULOV**  
*Shoxnazar Ochilovich,*  
*y.f.n., dotsent, "Toshkent irrigatsiya*  
*va qishloq xo'jaligini*  
*mexanizatsiyalash muhandislari*  
*instituti"*  
*milliy tadqiqot universiteti*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish oqibatlari hamda ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosati haqida so'z yuritildi.

Shuningdek, mazkur sohaga oid normativ hujjatlarni tahlil qilish orqali fikr va mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zboshimchalik bilan egalangan yer uchastkasi, ortiqcha egallangan yer uchastkasi, o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются последствия самовольного захвата земельных участков, а также проводимая государственная политика в этой сфере.

Также были высказаны мнения и замечания по анализу нормативных документов, относящихся к данной сфере.

**Ключевые слова:** самовольно занятый земельный участок, излишне занятый земельный участок, самовольно построенное здание.

## ANNOTATION

This article examines the consequences of the unauthorized seizure of land, as well as the ongoing state policy in this area.

Opinions and comments were also expressed on the analysis of regulatory documents related to this area.

**Key words:** an unauthorized occupied land plot, an overly occupied land plot, an unauthorized building.

Mamlakatimizda yer munosabatlari sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini ishonchli tarzda himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yerga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, normativ-huquqiy hujjatlarni yerning tabiiy resurs sifatidagi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, bunda davlatning yerga doir siyosati asosiy yo'nalishlarini aniq ifodalash, fuqarolarning yer bilan bog'liq huquqlarini kafolatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 68-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir deya mustahkamlab qo'yilgan [1].

Bugungi kunda qonunchilikda uy-joyga ega bo'lish va qurishning qonuniy mexanizmlari mavjud bo'lishiga qaramasdan fuqarolar tomonidan yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish hamda noqonuniy ravishda uy-joy va boshqa binolar qurib olish holatlari mavjud [8].

Amaldagi yer qonunchiliga ko'ra, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish deganda – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli vakolatli organning qarorisiz, yer uchastkasi chegarasi joyida belgilanmasdan, yer uchastkalarining planlari (chizmalar) va tavsiflari tuzilmasdan hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatiga olinmasdan yer uchastkalarining egallab olinishi tushuniladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 60-moddasiga 2-qismida yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo'lmagan holda ulardan foydalanish

– fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravari miqdorida jarima solinishiga, ushbu moddaning 3-qismida o'zboshimchalik bilan egallab olingan, ajratilgan yer uchastkasiga tutash bo'lgan va tutash bo'lmagan yer uchastkalarida qurilish ishlarini amalga oshirish – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravari, mansabdor shaxslarga esa – uch yuz baravari miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi hamda huquqburzalikni birlinchi marta sodir etgan shaxs, agar u o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini ta'minlasa hamda o'zboshimchalik bilan egallab olishning oqibatlarini bartaraf qilsa, javobgarlikdan ozod etilishi belgilab qo'yilgan [4].

Demak, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxs yer uchastkasi qaytarilishini ta'minlasa, o'zboshimchalik bilan egallab olishni bartaraf etsa, albatta javobgarlikdan ozod etiladi.

Bundan tashqari, milliy qonunchiligidan uy-joyga ega bo'lish va qurishning qonuniy mexanizmlari belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 212-moddasiga asosan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek, imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi [3].

Amaldagi Yer kodeksining 90-moddasiga ko'ra, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo'yish (yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kimoshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish bundan mustasno), yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan ayrboshlash haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bunday bitimlarni amalga oshirishda aybdor shaxslar qonunga binoan javobgar bo'ladilar.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari ularga g'ayriqonuniy ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtida qilingan sarf-xarajatlar qoplanmagan tarzda tegishliliga

ko'ra qaytarilishi Yer kodeksining 91-moddasida belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, yer uchastkalarini foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish, shu jumladan undagi imoratlarni buzish yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar hisobidan amalga oshirilishi belgilangan [2].

Yer kodeksining 91<sup>1</sup>-moddasida o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasiga, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkasida barpo etilgan har qanday bino va inshootlarga nisbatan mulk huquqini yoki boshqa mulkiy huquqlarni belgilashga yo'l qo'yimasligi mustahkamlangan.

Shuning bilan birga, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, qurilish uchun ajratilmagan yer uchastkasida qonunga xilof qurilish obyektni barpo etgan shaxslar insofli mulkdor deb tan olinmaydi.

O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalaridagi qonunga xilof qurilish obyektlarini suv ta'minoti, oqova suv, elektr, issiqlik enyergiyasi va gaz tarmoqlariga ularash taqiqlanadi [2].

Demak, o'zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs unga mulk huquqini ololmaydi. Bu shaxs qurgan imoratini tasarruf etishga – sotish, hadya etish, ijaraga berishga, imoratga nisbatan boshqa bitimlar tuzishga haqli emas.

O'zboshimchalik bilan imorat qurish natijasida huquqlari buzilgan shaxsning yoki tegishli davlat organining da'vosi bilan bunday imorat sud qaroriga binoan imoratni qurgan shaxs tomonidan yoki uning hisobidan buzib tashlanishi belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, yer umummilliy boylikdir, xalqimizning hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida yerdan oqilona foydalanishimiz va uni asrashimiz zarur. Shu bilan birga, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganlik uchun javobgarlik muqarrar ekanligini ham unutmasligimiz kerak.

Shuningdek, yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdarligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik

asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek, bu sohada qonuniylikni mustahkamlash, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olishdan iborat.

O'zbekiston xalqining o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan taraqqiyot modeli negizida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish maqsadi ham yotadi [7].

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yilning 20-aprel kuni "Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini etirof etish bo'yicha bir martalik umudavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida"gi PF-5421-sonli farmon qabul qilingan edi.

Mazkur farmonga asosan respublikamizda minglab o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga, noqonuniy ravishda qurilgan uy-joylarga nisbatan fuqarolarning mulkiy huquqlari e'tirof etildi [5].

2024-yil 22-fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan "O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun loyihasi dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga muvofiq o'tkazilgan bir martalik umumdadvat aksiyasi doirasida 621 ming nafardan ortiq fuqarolarning o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalik huquqi e'tirof etilib, ularga kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berilgan edi. Shunga qaramasdan, bugungi kunga qadar 126 mingdan ortiq fuqarolarning ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylarga nisbatan egalikni belgilash masalasi qonuniy yechimini kutmoqda.

Bundan tashqari, ko'plab holatlarda fuqarolarning bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylarga hamda kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlariga nisbatan egalik huquqi mavjud emasligi ma'lum.

Shundan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorisiz o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida qurilgan uy-joylar, boshqa bino va inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan huquqni e'tirof etish asoslari va uning aniq tartibini belgilash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu Qonunning maqsadi o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat va quyidagilarga tatbiq etiladi:

2018-yil 1-may kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy qurban holda o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident yuridik shaxslar tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ajratilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan maydonдан ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan fuqarolarning o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish mumkin, deb topilgan holatlarga;

2021-yil 8-iyun kuniga qadar tuman (shahar) hokimlari qarori bilan qonunchilik hujjatlariga muvofiq fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident yuridik shaxslarga ajratilgan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlash masalasi o'z vaqtida ko'rib chiqilmagan yer uchastkalariga, bundan yer uchastkasida ikki yil mobaynida bino va inshoot qurilmagan yoki qurilishi boshlanmagan hamda

maqsadsiz foydalanilgan holatlar mustasno;

bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylar hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

2020-yil 9-martga qadar kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlari (yoki ularning qismlari) joylashgan yer uchastkasiga;

xususiy lashtirilgan ko'chmas mulk obyektlari, xususan, bino va inshootlar hamda yakka tartibdagi turar joylar egallagan yer uchastkasiga;

fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq mulk huquqi e'tirof etilgan bino va inshootlari hamda yakka tartibdagi uy-joylari egallagan yer uchastkasiga.

Ushbu qonunning eng ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlar e'tirof etilgan taqdirda, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

Yer uchastkasi va unda qurilgan bino va inshootga bo'lgan huquqni e'tirof etish qonunda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda faqat ijara huquqi, ularda qurilgan bino va inshootlarga mulk huquqi e'tirof etiladi. Bunda ijara muddati yakka tartibdagi uy-joylar egallagan yer uchastkalari uchun to'qson to'qqiz yil, boshqa yer uchastkalari uchun qirq to'qqiz yil etib belgilanadi [6].

Yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi va unda qurilgan bino va inshootga bo'lgan mulk huquqi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarori bilan e'tirof etiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalariga nisbatan ijara huquqi hamda ularda qurilgan uy-joy, boshqa bino va inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqi rasmiylashtilishi uchun huquqiy asoslar yaratilishiga xizmat qiladi.



## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risida"gi kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi "Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umudavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida"gi PF-5421-son Farmoni.
6. Bobokulov Sh. Yer munosabatlari doir davlat siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari. Scientific progress volume 3 | issue 2 | 2022 issn: 2181-1601.
7. Altiyev A., Bobokulov Sh., Muqumov A. Yer mulkchiligi barqarorligini huquqiy ta’minlash, uning yer islohotini amalga oshirishdagi roli va ahamiyati. Jamiat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415.
8. Bobokulov Sh. Yer – huquqiy javobgarlikning mustaqil turi sifatida. "Falsafa va huquq" jurnali. 2022/1. 138-140.

## TUIT BRIGHT FUTURE WEEK – YOSHLAR UCHUN ULKAN IMKONIYAT SIFATIDA

NASRULLAYEV

Nurbek,

*Muhammad al-Xorazmiy  
nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti  
Nurafshon filiali direktori, PhD,  
dotsent*

### ANNOTATSIYA

Maqolada haftalik qatnashchilari o'rtasida ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik va ix-tirochilikni rag'batlantirish, innovatsion faoliyini oshirish hamda yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** AT, inklyuziv raqamlashtirish, digital girls, united clean coders, cyber challenge, job, idea, invention and innovation, week.

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются меры, направленные на усвоение передовых знаний, стимулирование творчества и изобретательности, повышение инновационной активности, поддержку создания новой техники, технологий и конкурентоспособной продукции среди участников еженедельника.

**Ключевые слова:** ИТ, инклюзивная цифровизация, объединенные чистые программисты, кибервызов, работа, идея, изобретения и инновации, неделя.

### ANNOTATION

The article analyzes measures aimed at mastering advanced knowledge, stimulating creativity and ingenuity, increasing innovative activity, supporting the creation of new equipment, technologies and competitive products among the participants of the weekly.

**Key words:** IT, inclusive encryption, digital girls, united clean coders, cyber challenge, job, idea, invention and innovation, week.

8 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni saralab, nufuzli xalqaro kompaniyalar talabiga mos dastur asosida o‘qitish vazifasi qo‘yilgan.

Shuningdek, 2024-yildan “Har bir mahallada kamida ikki nafar dasturchi” loyihasi boshlanishi, AQSHlik hamkorlar bilan “Inklyuziv raqamlashtirish” loyihasi doirasida 20 ming aholi bandligi ta’minlanishi aytilgan. So‘nggi 3 yilda AT o‘quv markazlari soni 300 dan oshib, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim olib, sertifikatga ega bo‘lgan yoshlar soni 1 million 200 ming nafarni tashkil etganligi yuzasidan hisobot berilgan. O‘tgan yildan boshlab xalqaro AT-sertifikatlarga o‘qish xarajatlarini 50 foizgacha qoplab berish yo‘lga qo‘yildi. 215 ming nafar yoshlar xalqaro onlayn kurslarni bitirib, sertifikat olganligi qayd etilgan.

Yuqoridagilarni davom ettirgan holda, kelgusi yildan boshlab, har yili 5 ming nafar iqtidorli yoshlarni saralash, o‘qitish hamda xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash tizimi joriy etilishi, Xorazm viloyatida “Al-Xorazmiy vorislari” loyihasida o‘qitish boshlanishi, umuman, AT sohasida 300 ming nafar yoshlarni xalqaro kompaniyalar talabiga mos dasturlar asosida tayyorlash va ish bilan ta’minlash kabi bir qator muhim va ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Mana shunday tadbirlardan biri hisoblangan sovrin jamg‘armasi 1.2 mlrd so‘mni tashkil etadigan “TUIT Bright Future Week” haftaligiga start berildi. Haftalik davomidagi tadbirlar 2024-yilning 20–25-may kunlari oralig‘ida tashkil etildi. Mazkur haftalik Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda uning hududiy filiallari, AT kompaniyalar hamda tegishli soha korxonalarini bilan hamkorlikda talabalar va doktorantlarning o‘quv, ilmiy va innovatsion faoliyatlarini rivojlanishiga uchun tashkil etildi.

Haftalik qatnashchilar o‘rtasida ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, ijodkorlik va ixtirochilikni rag‘batlanish, innovatsion faollikni oshirish hamda yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Haftalik doirasida tashkil etilgan tadbirlar – “Follow up Conferences” tadbiri doirasida seminar-trening

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 20-dekabr kuni tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgan edi.

Zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Joriy yilning o‘zida ta’lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo‘jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi AT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib kelganligi, yil yakuni bilan sohada xizmatlar hajmi 10 trillion so‘m bo‘lishi, eksporti esa 300 million dollardan oshishi kutilayotganligi, bu ko‘rsatkich Toshkent, Samarqand, Andijon viloyatlarida yuqori sur’atlarda o‘sib, Surxondaryo ham ilk bor IT xizmatlar eksportini yo‘lga qo‘yib, 1 million dollardan oshirganligi, hududlarda 20 mingdan ortiq yoshlar mustaqil shug‘ullanib, xalqaro onlayn platformalar orqali yaratgan mahsulotini chetga sotganligi haqida ma’lumot berilgan.

Yig‘ilishda soha rivojiga qo‘srimcha sharoitlar yaratilishi belgilanib, unga ko‘ra:

- AT kompaniyalarini hududlardagi bo‘sh turgan binolarga bir yil muddatga bepul joylashtirish;
- iqtidorli dasturchilarga bir yil ichida bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan kompyuter va texnikalar berish;
- 50 dan ortiq AT mutaxassisni ishli qilgan kompaniyalarning bir yil davomidagi ish haqi xarajatining 15 foizgacha qismini qoplab berish;
- eksportchi korxonalarga chetdan ekspert jalb qilish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish xarajatlarining 50 foizini kompensatsiya qilish vazifalari belgilab berilgan.

Umuman, shunday yangi imkoniyatlar hisobiga, 2024-yilda AT xizmatlari hajmini 2 barobar oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Bunga erishish uchun, avvalo, chet tili va texnologiyalarni biladigan kadrlar zarur. Shu bois Raqamli texnologiyalar vazirligiga kelgusi yilda

(2024-yil 21-22-may), "TUIT Digital Girls" hakaton (2024-yil 20-24-may), "UNICORN" startap loyihalar tanlovi (2024-yil 20-24-may), "My Future Job" trening haftaligi (2024-yil 20-24-may), "200 nafar iqtidorli talaba" tanlovi (2024-yil aprel - oktabr), CTF Cyber Challenge musobaqasi (2024-yil 21-22-may), TUIT Cyber Games musobaqasi (2024-yil 23-24-may), United Clean Coders musobaqasi (2024-yil 22-23-may), "3i: idea, invention and innovation" talabalar ishlamalari va g'oyalari ko'rgazmasi (2024-yil 24-may)da ishtirok etgan qatnashchilarining o'z yo'naliishlari bo'yicha loyihalari, natijalarini baholash va g'oliblarni aniqlash uchun tegishli soha mutaxassislaridan iborat komissiyalar tuzildi.

"TUIT Bright Future Week" haftaligi doirasidagi tadbirlardan ko'zlangan maqsad va asosiy yo'naliishlar:

2024-yil 20-23-may kunlari universitetda talabalarning mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, ularning bandligiga ko'maklashish, talabalarning kelajakda kasbiy faoliyatiga yanada qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida "My future job" trening haftaligi tashkil etildi. Haftalikda "Coursera", "Plug&Play", "EPAM systems", "EeDen LLC", "Silk Road Professionals", "Gcore", "MAAB Innovation" kabi yirik xorijiy kompaniyalar mutaxassislari tomonidan hozirgi kunda AT sohasidagi zamonaviy va dolzarb kasblari, xorijiy korxonalarda faoliyat yuritishning afzal jihatlari, AT sohasida zarur ko'nikmalar va dunyo mehnat bozorida AT mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi;

"United Clean Coders" hakatonida O'zbekiston Respublikasi hududidagi bir qancha oliy ta'lim muassasalarining talabalaridan 96 ishtirokchi 32 ta jamoa bo'lib qatnashishmoqda. Hakatonning yo'naliishlari:

Ijtimoiy sohalarda (ta'lim, tibbiyot va h.k.) raqamli texnologiyalar yo'naliishi;

Tadbirkorlik va moliyaviy texnologiyalar yo'naliishi;

Raqamli qishloq xo'jaligi yo'naliishi.

Loyihalarni ishlab chiqish va baholashda "Clean code" tamoyillariga alohida e'tibor beriladi;

"TUIT Digital Girls" – mamlakatimiz rivojlanishi uchun ustuvor bo'lgan sohalarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ilmiy yechim izlab topishda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash hamda raqamli texnologiyalarni tatbiq etgan holda ularning yechimlarini taklif etishda ayollarning faol ishtirokini ta'minlash, yangi innovatsion AT mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishlari uchun ularning tashabbuslari va takliflariga e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadida o'tkaziladigan musobaqa.

Haftalik doirasidagi tadbirlar ikki bosqichda amalga oshirildi: 1-bosqich – universitet va hududiy filiallar talabalarini doktorantlari o'rtaida saralash bosqichi. Bunda har bir tadbirda ishtirok etish istagini bildirgan guruhalr (yoki talabalar) universitet va filiallarda saralanib, ariza topshirishga tavsiya qilinadilar. 2-bosqich – arizalari muvaffaqiyatl qabul qilingan jamoalar universitetda tashkil etiladigan tadbirlarning birida (arizalariga muvofiq) ishtirok etadilar.

"TUIT Bright Future Week" haftaligi doirasida bo'lib o'tgan musobaqalarda Respublika bo'yicha 12 mingga yaqin, TATUNing hududiy filiallaridan esa 250 dan ortiq talabalar, jumladan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filialidan 25 nafar iqtidorli talabalar va xodimlar ishtirok etishdi.

Ushbu haftalik unda ishtirok etgan talabalar, magistrantlar va doktorantlar o'z g'oyalari amalga oshirishlari uchun imkoniyat va mablag' taqdim etishi bilan birga, yurtimiz ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qiladigan iste'dodli va bilimga chanqoq yoshlarni kashf etdi.

## ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. Toshkent, 2017-yil 7-fevral.
- Lex.uz. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son.
- Normatovich B. B., Boboyorov S. B. O. Cybersecurity and Information War //2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2021. – C. 1-5.

## YANGI O'ZBEKISTONDA – YANGICHA SAYLOVLAR: FUNKSIYALARI VA ASOSIY TAMOYILLARI

*QOLQANOV*

*Nuriddin Tashpulatovich,  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori,  
dotsent*

### ANNOTATSIYA

Fuqarolar davlat hokimiyati va killik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo erishilayotgan muvaffaqiyatlardan xotirjamlikka berilishni emas, takomil va taraqqiyot sari muttasil va dadil intilishni taqozo etadi. Keyingi yillarda parlamentga va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylovlar jarayonida orttirilgan tajriba milliy saylov qonunchiligi va amaliyotida ayrim bo'shliqlar va yechimini kutayotgan vazifalar mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur mas'uliyatli jarayonda milliy saylov tizimini yanada demokratlashtirish, saylov qonunchiligi va amaliyotini umum e'tirof etilgan xalqaro demokratik standartlarga uyg'unlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar aralash saylov tizimiga o'tildi.

**Kalit so'zlar:** saylov, mojaritar, proporsional, aralash, saylov qonunchiliği, saylovnning umumiyligi prinsiplari.

### АННОТАЦИЯ

Граждане имеют право избирать и быть избранными в представительные органы государственной власти. Право голоса, равенство и свобода волеизъявления гарантируются законом. Стремительно меняющийся

мир требует от достигнутого успеха не уступать спокойствию, а твердо и смело стремиться к совершенствованию и прогрессу. Опыт, полученный в ходе выборов в парламент и местные советы в последующие годы, показал, что в Национальном избирательном законодательстве и практике есть определенные пробелы и задачи, которые ждут своего решения. В целях дальнейшей демократизации Национальной избирательной системы, приведения избирательного законодательства и практики в соответствие с общепризнанными международными демократическими стандартами в ходе этого ответственного процесса выборы депутатов Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан перешли на смешанную избирательную систему.

**Ключевые слова:** выборы, ма-жоритарная большинство, пропорциональные, смешанные, избирательное право, общие принципы выборов.

### ANNOTATION

Citizens have the right to elect and be elected to representative bodies of state power. The right to vote, equality and freedom of expression are guaranteed by law. The rapidly changing world requires that the achieved success should not be abandoned to tranquility, but rather firmly and boldly strive for improvement and progress. The experience gained during the elections to the parliament and local councils in subsequent years showed that there are certain gaps and tasks in the National Electoral Legislation and practice that are waiting to be addressed. In

order to further democratize the National Electoral System, bring the electoral legislation and practice in line with generally recognized international democratic standards, during this important process, the elections of deputies of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan have switched to a mixed electoral system.

**Kye words:** elections, majoritarian majority, proportional, mixed, electoral law, general principles of elections.

qilish va hal etishda faol ishtirok etadilar (Konstitutsiyaning 36-moddasi)<sup>1</sup>.

Saylovlar vakillik demokratiyasi sharoitida keng qo‘llaniladi va aksincha, bevosita demokratiya sharoitida esa saylovlarning ahamiyati unchalik yuqori emas. Chunki bevosita demokratiya sharoitida hokimiyat saylangan vakillar orqali emas, balki fuqarolarning bevosita ishtiroki orqali amalga oshiriladi. Buni Qadimgi Afina davlati misolida ko‘rish mumkin. Bu yerda respublika ahamiyatiga molik eng muhim masalalar – jumladan, soliqlarning miqdori, urush va tinchlik masalalari, sudyalar va harbiy qo‘mondonlarni almashtirish, hududiy yaxlitlik kabi masalalar barcha fuqarolarning ishtirokida hal qilingan.

Hozirgi jamiyatlarda Qadimgi Afina respublikasiga o‘xshab barcha fuqarolarni bir maydonga to‘plab, u yoki bu masalaga doir ularning fikrini bilish juda murakkab ish hisoblanadi. Shuning uchun ham oldin xalqning vakillari saylab olinadi va undan so‘ng ana shu vakillar xalq nomidan hokimiyatni amalga oshiradi. Bu esa saylovlarning yuqori ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Zamonaviy demokratiya sharoitida saylovlar xalq suverenitetini va xalqning hokimiyat manbai sifatidagi rolini namoyon etishning asosiy shakli hisoblanadi. Shuningdek, saylovlar turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini hokimiyat organlarida aks ettirishda muhim o‘rin tutadi. Umumxalq saylovlari har bir fuqaroni jamiyat taqdiriga beparvo bo‘lmaslikka undaydi. Aksariyat fuqarolar uchun saylovlar jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishning birdan bir vositasi hisoblanadi. Aynan saylovlar

Saylovlar demokratiyaning muhim sharti, fuqarolarning siyosiy xohish-irodasini ifoda etish orqali hokimiyat va boshqaruv organlarini shakllantirish mezonini hisoblanadi. Saylovlar orqali har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etadi hamda mamlakat taqdiriga nisbatan befarq emasligini namoyon etadi. Saylovlar natijasida saylangan nomzodlar hokimiyat vakolatlariiga ega bo‘lishadi. Saylovlar keng (umumxalq) va tor (jamoaviy) miqyosli bo‘lishi mumkin. Keng miqyosli saylovlarda davlat hokimiyatining oliy vakillik organlariga nomzodlar saylanaadi. Tor miqyosli saylovlar davomida turli demokratik institutlar va tashkilotlar, siyosiy partiylar va harakatlar, ko‘ngilli jamiyatlar, aksiyadorlik kompaniyalari, kasaba uyushmalari va boshqa shu kabi jamoalarning boshqaruv organlariga nomzodlar saylanaadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaring eng muhim siyosiy huquqlaridan biri – davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqidir (Konstitutsiyaning 128-moddasi). Fuqarolar ushbu huquq orqali jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali davlatning eng muhim siyosiy masalalarini muhokama

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. 36 va 128-moddalar.

orgali oddiy fuqarolar hokimiyatga ta'sir etish, Parlament va hukumat a'zolarini almashtirish, ularning xalq oldidagi javobgarligini ta'minlash, siyosiy kursni o'zgartirish imkoniga ega bo'ladilar.

Jahon mamlakatlarning davlat qurilishi tajribasida Saylov tiziminining majoritar, proporsional va aralash turlari qo'llaniladi.

Majoritar saylov tizimi deganda, vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan, mutlaq va malakali ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksikada mazkur saylov tizimidan foydalaniladi. Mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) ko'p ovoz (ya'ni 50 % +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillari ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ro'yxatini uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniqlash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur ovozlar miqdori (odatda, kamida 4-5 % qilib) belgilanadi.

Bunda, shartga ko'ra, muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarni taqsimlashda qa-

tnashadi. Avvalo, saylovchilar bergan ovozlar miqdori deputatlik o'rinalining soniga bo'linadi. Shunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma'lum bo'la-di. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdoriga bo'linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o'rinalari soni kelib chiqadi.

Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinalar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Aralash saylov tizimi o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi. Masalan, Germaniyada Bundestagga saylovlarda aralash tizim qo'llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim bo'yicha, 2-yarmi esa, ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan nemis yerlari (federatsiya subyektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi.

Aralash saylov tizimi Rossiya, Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya va boshqa mamlakatlarda ham qo'llaniladi. Proporsional saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha

murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlari ga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtaida ular tomonidan olingen ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda Parlament hamda mahalliy davlat hokimiyyati vakillik organlarining faoliyatida siyosiy partiyalarning rolini yanada kengaytirish borasida demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi.

2023-yil 18-dekabr kuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-883-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi<sup>2</sup>. Mazkur Qonun bilan ilk marotaba O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o'tkazish bo'yicha yangi tizim yaratildi.

Bunda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlik o'rning **50 foizi majoritar**, ya'ni hozirgidek muayyan okruglar bo'yicha eng ko'p ovoz olgan nomzodlar saylanishi, qolgan **50 foizi esa proporsional**, ya'ni aniq bir shaxsga emas, balki partiyaga ovoz berish orqali, partiyalar tomonidan ko'rsatilgan ro'yxat asosida nomzodlar saylanishi nazarda tutildi.

Saylov okruglari 75 ta hududiy bir mandatli hamda yagona saylov okrugiga bo'linadi. Ya'ni Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati amaldagidek

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6697581>  
(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son)

**majoritar tizim** asosida **bir mandatli saylov okruglaridan**, qolgan 75 nafari esa partiya ro'yxat bo'yicha yangi taklif etilayotgan **proporsional tizim** asosida **yagona saylov okrugidan** saylanadi.

Ushbu yangi tizim siyosiy partiyalar va deputatlar o'rtaida aloqalarning mustahkamlanish hamda mamlakat hayotida siyosiy partiyalarning rolini hamda fuqarolarimizning siyosiy faoliagini oshirish, shu jumladan ularning davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonida muayyan g'oya va maqsadlarni ko'zlab ishtirok etishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunday saylov tizimida partiyalar muhim o'rin tutadi. Ular aholi bilan munosabatlarini ta'sirchan va natijador bo'lishiga harakat qiladi.

Partiya o'z dasturi orqali xalqni ishontira olsagina muayyan ovozga erishadi, ya'ni, saylovda qaysi partiya umumiyyat saylovchilarning qancha foiz ovozini qo'lga kiritgan bo'lsa, mamlakat parlamenti quyi palatasida shunga mutanosib ravishda deputatlik o'rinalini egallaydi.

Saylovlarning funksiyalari. Ilmiy adabiyotlarda saylovlarning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatilgan:

1. Aholining turli-tuman manfaatlarini ifodalash, ya'ni artikulyatsiyalash va agregatsiyalash funksiyasi. Saylovlar fuqarolarning o'z manfaatlarini anglab olishlari va ushbu manfaatlarning siyosiy partiyalar va alohida nomzodlar danturlarida ifodalanishi uchun qulay zamin yaratadi. Siyosiy partiyalar va alohida nomzodlar o'z saylovoldi platformalari da eng muhim va dolzarb muammolariga katta e'tibor qaratadilar va nomzodlarning ishonchini qozonishga harakat

qiladilar. Garchi deputatlarning ayrimlari saylovoldi kampaniyasi davomida bergen va'dalarini qisman yoki butunlay unutib qo'ysalar-da, biroq, umuman olganda, deputatlar axloqiy me'yorlar doirasida harakat qiladilar, zimmalaridagi majburiyatni sharaf bilan bajarishga, o'z partiyalarining obro'sini to'kmaslikka va navbatdagi saylovlarga munosib qatnashishga intiladilar.

2. Hokimiyat institatlari ustidan nazorat qilish funksiyasi. Saylovlar natijasida hukumat ustidan nazorat qiluvchi muhim institut-parlament vujudga keldi. Bundan tashqari, saylovlarning o'zi ham qaysidir ma'noda nazorat instituti bo'lib, saylovchilarga hukumatni qisman yoki butunlay yangilash, hukumat tarkibiga muhim tarkibiy o'zgartirishlar kiritish, mavjud siyosatni o'zgartirish imkonini yaratadi.

3. Turli qarashlarni jipslashtirish va umumsiyosiy irodani shakllantirish funksiyasi. Zamonaviy jamiyatda pluralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi hadsiz-hududsiz emas. U anarxiyaga, bosh-boshdoqlik va ijtimoiy inqirozga olib bormasligi uchun davlat tomonidan boshqarilishi zarur. Saylovlar yordamida ko'pchilik fuqarolarning muayyan siyosiy platformaga ega bo'lishlari va uning liderlari atrofida birlashuvi ta'milanadi, hukmron siyosiy iroda aniqlab olinadi. Ushbu siyosiy iordaning ifodalanshi hukumatga kuch va nufuz baxsh etadi hamda uning ishchanligini oshiradi.

4. Siyosiy tizimni legitimlash va barqarorlashtirish funksiyasi. Saylovlar fuqarolar ishonchini oqlamagan hukumatni almashtirish imkonini beradi. Aks holda muayyan hukumat va u olib borayotgan nooqil siyosat tufayli fuqarolar butun siyosiy rejimni rad etishlari mumkin.

Demak, saylovlar siyosiy tizimning beqarorlashuvi va buhronga yuz tutishiga yo'l qo'ymaydi hamda inqiroz holatlari, inqilobiy harakatlar, destruktiv intilishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Saylovlar yordamida nafaqat siyosiy tizim, balki parlament, hukumat va boshqa hokimiyat strukturalari legitimlashadi, ulaming davlatni boshqarishdagi huquqi tan olinadi.

5. Hokimiyat institatlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ken-gaytirish funksiyasi. Saylov jarayonida nomzodlar muntazam ravishda fuqarolar bilan uchrashadilar, ularni qiziqtirayotgan yoki qiyinayotgan muammolarni eshitadilar, o'z saylovoldi dasturlariga tuzatishlar kiritadilar. Saylovlar fuqarolar va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro muloqot uchun muhim kanal hisoblanadi. Saylovlar tufayli davlat rahbarlari va aholi o'rtasida o'zaro ishonch, tushunish va hamjihatlik vujudga kelishi mumkin.

6. Tinch yo'llar orqali siyosiy mojarolarni hal qilishga yo'naltirish funksiyasi. Saylovlar qarama-qarshi manfaatlar, qadriyatlar, g'oyalarni xalqning ochiq hukmiga havola etadi, ijtimoiy fikr kuchi va davlat institutlarining nufuzi orqali qarama-qarshi tomonlarni keskin qarorlar chiqarish, radikal talablarni ildgari surish va noqonuniy xatti-harakatlardan foydalanishdan saqlanishga undaydi.

7. Saylovchilarni dolzarb ijtimoiy vazifalarni hal qilishga safarbar etish funksiyasi.

Fuqarolarga o'z dasturini tushuntirish, odamlarni u yoki bu siyosiy qadriyatlar va maqsadlarni qabul qilishning nechog'li muhim ekaniga ishontirish, ularni amalga oshirish usullarini ko'rsatib berish orqali partiyalar va alohida



nomzodlar aholining keng qatlamlari va ijtimoiy fikrni mamlakat uchun muhim bo‘lgan ishlarni bajarishga safarbar etadilar.

8. Aholini siyosiy ijtimoiylashtirish, uning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish funksiyasi. Saylov jarayonida fuqarolar siyosiy qadriyatlar va me’yorlarni yanada ko‘proq o‘zlashtiradilar, siyosiy bilim va tajribalarini kengaytiradilar. Saylov jarayonida siyosiy axborot va tashviqotlarning hajmi keskin oshadi, turli-tuman siyosiy-tarbiyaviy ishlarni ko‘lami kengayadi, odamlarning e’tibori dolzarb siyosiy muammolar va ularni hal qilish yo’llariga jalb qilinadi. Saylovchilar munosib nomzodlarni tanlash bilan parallel ravishda o‘zları ham ma’lum

ma’noda muayyan siyosiy kuch taraf-dori ekanliklarini his etadilar.

9. Siyosiy elitani yetishtirib berish funksiyasi. Saylovlar fuqarolar ichidan siyosiy elita saflariga kirishi mumkin bo‘lgan iqtidorli shaxslarni aniqlashda katta yordam beradi. Saylovlar natijasida elita saflari yangilanadi, siyosiy partiyalar va vakillarining siyosiy hayotdagi vazni ham o‘zgaradi.

10. Muqobil siyosiy dasturlarning o‘zaro raqobati asosida jamiyatning yan-gilanishiga erishish funksiyasi. Saylovlar – oddiy fuqarolarning davlat va jamiyatga tartiblashgan holda ta’sir o‘tkazish omili demakdir. Turli-tuman siyooly kuchlar ijtimoiy muammolarni aniqlab, ularning yechimi borasida saylovoldi dasturlarini tuzib chiqadilar. Buning natijasida

saylovchilar bir nechta dasturlar ichidan eng yaxshilarini tanlab, ular uchun ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa samarasiz siyosiy dasturlar o‘rniga yangi, hayotbaxsh siyosiy dasturlarning qabul qilinishini ta’minlaydi.

Saylovlarning yuqoridagi funksiyalari faqat ular demokratik tarzda tashkil

qilingan taqdirda to‘la amal qiladi. Saylovlar demokratik jamiyatdagina o‘zini to‘liq namoyon qilishi mumkin, chunki saylovlar demokratiyaning umumiyligini konsepsiysi va qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biri ham davriy va adolatli saylovlar hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни. 1996 йил 26 декабрь. 337-І-сон.
3. Қаҳҳарова М., Қолқанов Н., Джамиев Б., Қаршиев Ш. Сиёсий партиялар ва сайлов. – Тошкент, 2015.
4. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 46.

**“XALQARO  
HAMKORLIKNING  
SUD EKSPERTIZANI  
TAKOMILLASHTIRISH VA  
RIVOJLANTIRISHDAGI  
O‘RNI” MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERNSIYA VA UNDA  
ERISHILGAN NATIJALAR**

*SAIDXODJAEV*

*Saidillaxodja Xusanovich,*

*X. Sulaymonova nomidagi Respublika  
sud ekspertiza markazining Xalqaro  
hamkorlik va jamoatchilik bilan  
aloqalar bo‘limi boshlig‘i*



Joriy yilning 18-19-aprel kunlari Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatga qarshi kurashish bo'yicha boshqarmasining (UNODC) Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda **"Xalqaro hamkorlikning sud ekspertizani takomillashtirish va rivojlantirishdagi o'rni"** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Konferensiyada xorijiy sud ekspertiza tashkilotlari rahbarlari, xususan, Yanko Kolev, Hizir Asliyuksek, Halima Binti Abdul Rahim, AQSH elchisi Jonatan Xenik hamda Bolgariya, Turkiya, Hindiston, Malayziya, Ozarboyjon, Qozog'iston, Avstriya kabi davlatlardan kelgan mehmonlar, shuningdek, mamlakatimizdagi davlat sud-ekspertiza muassasalari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda yuridik yo'nalishidagi olyi ta'lim muassasalarining 400 nafar vakillari ishtirok etishdi.

#### I. Tadbir doirasida:

a) O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri bilan Sud ekspertiza Xalqaro assotsiatsiyasi (IAFS) Prezidenti Yanko Kolev, Osiyo sud ekspertizasi tarmog'i (AFSN) vitse-prezidenti Halima Binti Abdul Rahim, Turkiya Adliya vazirligi sud-tibbiyot instituti prezidenti Hizir Asliyuksek va AQSHning O'zbekistondagi elchisi Jonatan Xenik bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazildi.

Yanko Kolev Sud ekspertiza xalqaro assotsiatsiyasi ishtirokchilari bilan O'zbekiston sud ekspertiza muassasalarini sud ekspertiza sohasidagi xalqaro hamjamiyatga to'laqonli intergasiyalashtirishda hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi.

Hizir Asliyuksek Turkiya sud-tibbiyot institutida RSEMning ekspert xodimlarining tizimli ravishda malakasini oshirish va stajirovka o'tkazish bo'yicha hamkorlik qilishga tayyorligini ma'lum qildi.

b) "Sud ekspertiza imkoniyatlari" mavzusi bo'yicha mamlakatimizda sud ekspertizaning

imkoniyatlarini oshib beruvchi ixtisoslashtirilgan maxsus transport vositalari, asbob-uskuna va jihozlarning ko'rgazmasi hamda hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayoni o'tkazildi;

d) Respublika sud ekspertiza markazi binosida sud ekspertlari uchun Turkiya va Malayziya yetakchi mutaxassislari tomonidan "Raqamli sud ekspertizasining yangi tendensiyalari" va "Sud ekspertizasida DNK tahlili usullarining dolzarbligi" mavzulari bo'yicha master-klasslar o'tkazildi;

e) Konferensiya ishtirokchilari, xorijiy mehmonlar tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "OLMOS" konvension markazida tashkil etilgan "ADOLAT BOG'I"ga ko'chatlar o'tqazildi.

II. Konferensiya davomida quyidagilarga erishildi:

1) Sud ekspertizani takomillashtirish va sohada o'zaro tajriba almashish yo'nalishida:

- ✓ Sud ekspertiza xalqaro assotsiatsiyasi (IAFS), Osiyo sud ekspertizasi tarmog'i (AFSN), Bolgariya, Turkiya, Malayziya, Ozarboyjon, Hindiston va Qozog'iston sud ekspertiza muassasalari bilan o'zaro tajriba almashish hamda sud-ekspertlik sohasida hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib olindi;

- ✓ Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan Turkiya sud-tibbiyot instituti bilan:

- Odam biologik izlaridan identifikatsiya uchun yaroqli natija olish imkonini beruvchi NGS (Next-Generation Sequencing) texnologiyasi;

- Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasida barcha tadqiqot jarayonlari va uskunalarini bog'lovchi, tadqiqot jarayonlarini avtomatik tarzda o'tkazish imkonini beruvchi LIMS (Laboratory Management Software) dasaturi;

- PC-Crash dasturi va 3D simulyatsiya dasturini joriy qilishda hamkorlik qilish;

- birgalikda ekspertizaning yangi zamonaviy turlarini yaratish va amaliyatga joriy etishga kelishib olindi.

2) Sud ekspert xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishida:

- ✓ Sud ekspertiza xalqaro assotsiatsiyasi ishtirokchilari bilan Respublika sud ekspertiza markazining ekspert kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovka o'tashda hamkorlik qilish;



✓ Malayziya Fan, texnologiyalar va innovatsiyalar vazirligining Kimyo departamenti laboratoriyalarda Respublika sud ekspertiza markazining ekspert kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovka o‘tishda hamkorlik qilishga kelishildi;

Joriy yilda Kimyo departamentida “mahsulotlarda GMO (genetik modifikatsiyalangan organizmlar) mavjudligini aniqlash”, “mahsulotlarning halolligini aniqlash” tadqiqot turlarini joriy etish bo‘yicha Respublika sud ekspertiza markazi mutaxassislari malakasini oshirish.

✓ Turkiya Adliya vazirligi sud-tibbiyot instituti bazasida har yili kamida 5 nafar RSEM ekspert xodimlari malakasini oshirib, stajirovkasini tashkil etishga kelishildi;

joriy yilda sud-biologik, sud-kompyuter texnik, sud-xatshunoslik, sud-avtotexnik va boshqa sud ekspertizalari yo‘nalishida stajirovkalar amalga oshiriladi.

✓ RSEM va Ozarboyjon Respublikasi Adliya vazirligining Sud ekspertiza markazi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi Anglashuv memorandumini imzolashga kelishildi.

III. Konferensiya yakunlari bo‘yicha quyidagi takliflarni o‘z ichiga olgan “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi:

– Bolgariya sud ekspertiza tashkilotlari bilan Anglashuv memorandumlarini imzolash hamda Bolqon sud-ekspertiza fanlari akademiyasi (Bal-

kan Academy of Forensic Sciences-BAFS) bilan hamkorlik o‘rnatish;

– Malayziya Fan, texnologiya va innovatsiyalar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasida sud ekspertiza sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yuzasidan memorandum imzolash;

– Xalqaro hamkorlik masalalarini qonunchilik hujjatlarda to‘liq tartibga solish maqsadida normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

– Respublika sud ekspertiza markazining 5 yilga mo‘ljallangan xalqaro hamkorlikni rivojlanishiga qaratilgan yagona strategiyasini ishlab chiqish;

– Hodisa va jinoyat sodir bo‘lgan joylarda hamda ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazishda 3D skanerlashni joriy qilish;

– Sud-ekspertiza uslubiyotlarini sertifikatlashtirish tartibini joriy etish;

– Sud ekspertiza amaliyotiga “Lokal va global tarmoqlar tadqiqoti”, “Bulutli servis xizmatlari tadqiqoti” va “Zararli dasturlar va ulardan qolgan izlar tadqiqoti” kabi yangi raqamli sud ekspertiza tadqiqotlarini joriy etish;

– 2026-yilda Bolgariyada o‘tkaziladigan Sud ekspertiza xalqaro assotsiatsiyasining (IAFS) 24-konferensiyasida RSEM vakillari ishtirokini tashkil etish hamda ushbu anjumanda O‘zbekistondagi sud ekspertiza sohasining zamonaviy imkoniyatlarini yoritish.

